

# UZSCIENCE

INTERNATIONAL JOURNAL OF  
MULTIDISCIPLINARY RESEARCH



Conference **May-2023**



**“O‘zbek milliy cholg‘ularini o‘rganish va targ‘ib etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**

**UZSCIENCE INTERNATIONAL JOURNAL OF  
MULTIDISCIPLINARY RESEARCH  
JOURNAL**



CONFERENCE

May  
**2023**

**UZSCIENCE INTERNATIONAL JOURNAL OF  
MULTIDISCIPLINARY RESEARCH  
JOURNAL**

**EDITOR-IN-CHIEF**

**Dr. KHAMIDOV DOSTON**

Master's student of the State Institute of Art and Culture of  
Uzbekistan, recipient of the state scholarship named after Navoi

**Khamdam Ismoilov**

Candidate Of Philological Sciences, Associate Professor Of  
Uzbek State Institute Of Art And Culture, Uzbekistan  
(Tashkent, Uzbekistan)

**Munisa Mavrulova Abdukhaliilovna**

Doctor of Philosophy, Department of Culture and Art Management, State Institute  
of Art and Culture of Uzbekistan

**Dilafro'z Yusupaliyeva Kahramonovna**

Associate Professor of History, State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

## Conference (2023): UZSCIENCE IJOMR

## Articles

1. УСТОЗЛАР ТАЖРИБАСИ ЁШЛАРГА НАМУНА, ИБРАТ!  
Т.К.Юлдашев 7
2. БОШЛАНҒИЧ МУСИҚИЙ ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР  
Одилжон Фозилович Назаров 12
3. ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИДА “ТАРМОНИЯ” ВА “МУСИҚА АСАРЛАРИ  
ТАҲЛИЛИ” ФАНЛАРИНИНГ ЎРНИ  
Муллажонов Давлат Мавлонович 19
4. PROFESSIONAL SOZANDALARNI TAYYORLASHDA NOTA SAVODXONLIGINI  
SHAKLLANTIRISH USULLARI  
Rayimjonov Вахтийор Маҳмуджонович 24
5. ЎЗБЕК МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МАДАНИЯТИДА АНЪАНАВИЙЛИК ВА  
ЗАМОНАВИЙЛИК МАСАЛАЛАРИ  
Фотимахон Зупарова 29
6. ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИДА ИЖРОЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
МУАММОЛАРИ  
Абдуллаев Шохруҳ Бердимуродович 35
7. YOSHLAR TARBIYASIDA MUSIQANING O‘RNI  
N.Yu.A’zamjonova, M.B.Abdullayeva 39
8. ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИК САНЪАТИДА “СУҒДИЁНА” КАМЕР ОРКЕСТРИНИНГ  
ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАРИ.  
Мухаммадиев Собиржон Ғуламович 43
9. ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY YURISHLARI  
VA AN’ANASINING DAVOMCHILARI  
Said Bolta-Zoda SAIDIY 47
10. SHARQ MUSIQASHUNOS OLIMLARINING CHOLG‘U MUSIQASIGA OID  
QARASHLARI  
Nosirov Dilmurod Tursinovich 51
11. AN’ANAVIY XONANDALIK ASARLARI IJROCHILIGIDA IJTIMOY  
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR XUSUSIDA  
Arzimurodova Nigora Samarovna 56

12. DOIRA IJROCHILIGIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI  
Islomov Dilmurod Muxutovich 60
13. SOZGARLIK SAN'ATIDA USTA USMON ZUFAROV FAOLIYATINING O'RNI  
Durdona Xaydaraliyeva 64
14. ХАЛҚАРО ЖАЗ ФЕСТИВАЛЬ 2023 ЎЗБЕКИСТОНДА  
Седих Татьяна Томовна 66
15. SAN'ATGA BAXSHIDA UMR.... USTOZIM AXMAD ODILOV FAOLIYATIGA CHIZGILAR  
Komiljon Shermatov 71
16. CHANG CHOLG'USINING O'ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDAGI O'RNI  
Xurramova Diyora 78
17. XALQ TUSHMUSH TARZI BILAN BOG'LIQ AN'ANALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR  
Kamoliddin Isayev 81
18. YOSHLARNI TARBIYALASHDA MUSIQA SAN'ATINING AHAMIYATI  
Xakimova Feruza Abdumanabovna 86
19. DOIRA CHOLG'USINING GENEZISI  
Qobilqoriyev Quدراتilla Baxtiyor o'g'li 90
20. CHOLG'UCHILAR DASTASINI TASHKIL QILISHDA NAZARIY VA AMALIY KO'RSATMALAR  
Odirov Askarali Ismailovich 96
21. NAY CHOLG'USIGA BIR NAZAR  
Vahidov Yusuf Kadirovich 100
22. CHANG CHOLG'USIDA IJRO KO'NIKALARINI O'ZLASHTIRISH USLUBIYOTI  
Alimova Saboxat 106
23. XALQ QO'SHIQLARI -USTOZLAR SAYQALIDA  
Xolmirzayeva Xumora Bahodirovna 111
24. TALABALARNING MUSIQIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA REPERTUAR MASALASI  
Xurshid Beknazarov 115

25. ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA, MUSIQA DARSLARI SIFAT SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING EKSKLYUZIV XUSUSIYATLARI  
Iroda Erkin qizi Sattarova 119
26. MUSIQA TERAPIYASINI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA QO'LLASH USULLARI.  
Saydaqulova Gulshona Odiljon qizi 125
27. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQIY CHOLG'ULARNI O'RGATISH VA TO'GARAKLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MASALALARI  
Aziz Sami Elbek 130
28. MUHAMMADJON MIRZAYEV XALQ KUYCHISI  
Shuxrat Qoraboyev 135
29. BOYSUN HUDUDIDAGI KO'HNA CHOLG'ULAR TARIXI  
Rashidov Qahramon 139
30. O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRI REPERTUARLARI TAHLILI, MUAMMO VA YECHIMLAR  
Karimov Dilshod Mashrab o'g'li 144
- O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGINING YOSH AVLODNI YUKSAK MA'NAVIYAT RUHIDA KAMOL TOPISHIDAGI O'RNI VA TA'SIRI
31. Uvaydulloyev Azizbek Dilmurod o'g'li 150
32. AN'ANAVIY CHOLG'U IJROCHILIGIDA DUTOR CHOLG'USINING O'RNI VA TARIXI  
Qodirov Boboxon Xudoynazarovich 155
33. PROFESSIONAL SOZANDALARNI TAYYORLASHDA USTOZ – SHOGIRD AN'ANALARINI TIZIMLI SHAKLLANTIRISH.  
Saydumarova Nigina 159
34. TALABALARDA MUSIQIY JAMOALAR BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA DIRIJYORLIK FANINING O'RNI  
Salomova Saodat Soatmurotovna 165

**УСТОЗЛАР ТАЖРИБАСИ ЁШЛАРГА НАМУНА, ИБРАТ!****Т.К.Юлдашев, ЎзДСМИ профессори**

Ёшларни чуқур фикрлашга, руҳан тетик, келажакка ишонч билан қараш, ўзини тўлқинлантирган муаммоларни ҳал этиш йўллари излашга ўргатиш замон талаби ҳисобланади. Юксак тушунчага эга бўлиш учун ёшлар санъатимиз тарихини чуқур ўрганиб, алломаларимиз босиб ўтган нурли йўллардан юришса мақсадга мувофиқдир.

**«Фикр тарбияси энг керакли, кўп замонлардан бери тақдир қилиниб келган, муаллимларнинг диққатларига суялган муқаддас бир вазифадур» (Абдулла Авлоний).** Инсонлар бир-бирига ўхшамаганидек,

уларнинг фикрлари ҳам хилма-хилдир. Биз устоз-муаллимлар Ватан, ватанпарварлик нимадан иборатлиги ҳақида ёшларга тушунча беришга, тўғри йўл кўрсатишга масъулмиз. Ўз мақсадимизга эришиш учун ҳамиша ҳаракатда бўлмоғимиз зарур. **«Ҳаракат заиф бўлган жойда кучли билим фойдасиздир. Ҳаракатсиз билим, ипсиз камон ўқидир» (Аз-Замахшарий).** Бугун айрим ёшларимиз Ватанимиз ўтмиши, қаҳрамон ботирлари, халқимиз анъаналари, байрамлари тўғрисида аниқ тасаввурга эга эмаслар. Ватан, ватанпарварлик тушунчалари Ватанпарварлик туйғусини сингдиришга ёрдам берувчи материаллар, тавсияномалар, кекса авлод тажрибаларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мусиқа ва санъат дарғалари, замонамизнинг таниқли, тажрибали устоз-санъаткорлари фаолияти билан таништириш ҳам муҳимлигини инобатга олиб, ҳамкасбимиз, дўстимиз, кўп йиллик тажрибага эга бўлган дирижёр, маэстро ҳақида мулоҳаза юритишга, босиб ўтган ибратли фаолиятларини ёритишга жазм қилдик, бу ёш санъаткорлар учун ўрнатилган, ибрат вазифасини ўташига шубҳа йўқ. **Юсуф Хос Ҳожиб бобомиз айтганларидек:**



**“Заковат бор жойда улуғлик бўлади,  
Билим бор жойда буюклик бўлади”.**

Ёш авлодни маънан етук **инсонлар** килиб тарбиялашда алломаларимиз, устазодаларимиз тарихини ўрганишлари, ўртак олишлари учун биз куч ғайратимизни сарфламоғимиз даркор. **Инсонни илм-маърифат ва одоб улуғлайди.** Ёшларимиз албатта тарихимизни билишлари, ҳозирги кундаги долзарб масалаларга теран кўз билан боқишлари, замон билан ҳамнафас қадам ташламоқлари зарур эканлигини тушунтирмоғимиз лозим. Буюкликка ўз-ўзидан эришиб бўлмайди, бунда тарих, соҳа эгаларининг тажрибалари, эришган ютуқлари, ижодий фаолиятлари намуна, ибрат ҳисобланади. Бу борада биз **Фарук Тожиевич Содиков** ҳақида баён этмоқчимиз. Йиллар ўтиши билан ҳар бир ижодкор ўзи босиб ўтган йўл, фаолиятини эслаб, ўз-ўзига ҳисобот беришга, баҳолашга уринади. Қаҳрамонимиз ҳам ўз фаолиятини куйидагича эслайди. ... Қашқар рубобида созанда сифатида биринчи меҳнат фаолиятимни **Муқимий номидаги Давлат мусиқа ва драма театри**да бошлаганини маэстро – Ф.Содиков шундай хотирлайди: “консерваторияни энди I босқичини битирган талаба учун бу катта даргоҳда, забардаст санъаткорлар билан бир сахнада ижодий фаолият олиб бориш мен учун катта воқеа эди”. Ўша вақтда театрда ўз даврининг бетакрор, буюк актёрлар ва актрисалари меҳнат қилишар эди. Халқ артистлари – Лутфия ая Саримсоқова, Раззоқ Хамраев, Маҳмуджон Ғофуров, Сойиб Хўжаев, Хамза Умаров, Эътибор Жалилова, Фароғат Раҳматова, Суръат Пўлатов, Наима Пўлатова, Бахтиёр Ихтиёров ва бошқа иқтидорли, ёши улуғ санъаткорлар билан бирга, ёш санъат аҳли фаолият кўрсатишарди. Менинг ҳаётимда, ижодимда ички ишлар қуролли кучлари сафидаги хизматим ҳам самарали тажриба вазифасини ўтаган, шу сабабли ҳурмат-эҳтиром билан эслайман.

Албатта, ижодимни кейинги асосий катта даври “**Ўзбек халқ чолғулари оркестри**”да раҳбарлик вақтимда қашқар рубобида бир созанда сифатида орттирган озми-кўпми тажрибам муҳим аҳамият касб этган. Жумладан, оркестр жўрлигида Ўзбекистон халқ артистлари Саодат Қобулова, Ориф Алимаҳсумов, Муножат Йўлчиева, Матлуба Дадабоева, Маҳмуджон Тзхтасинов, халқ хофизлари Маҳмуджон Тожибоев, Маҳмуд Йўлдошев, Оролмирзо Сафаров, Тожикистон халқ артистлари Шоиста Муллажонова, айниқса Барно Исҳоқова, Мастона Эргашевалар билан турли концертларда, Ўзбекистон радиоси олтин фонди тасмаларига ёзувларни алоҳида таъкидлаш лозим. Катта ҳажмдаги грампластинкага ёзувлар (18 та катта диск) менинг ижодимнинг энг ёрқин ва бахтли дамларидан бўлиб, менга завқ, хурсандлик, мамнуният бағишлаб ижодий баркамолликка етаклаган.”



Ф. Содиқов 1946 йилнинг 31 декабрида Тошкентда зиёлилар оиласида таваллуд топди. **Отаси Тожихўжа** ака машхур хирург, ўз касбининг устаси бўлган, етук мутахассис сифатида бир неча йил чет элда ишлаб келган. **Онаси Азиза ая** кўп йиллар бошлангич синф ўқитувчиси бўлиб ишлаган. Ёш Форук Глиэр номидаги Республика ўрта махсус мусиқа мактабида қашқар рубобида **Б. Мирзаахмедов**, дирижёрликдан Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист **Э.Тошматов** синфида таҳсил олди. Ўзбекистон давлат консерваториясида (1965–1970) у қашқар рубобида доцент **Ф.Н. Васильев**, дирижёрликдан давлат мукофоти лауреати, профессор **А. И. Петросянц** синфида сабоқ олди. Ўз касбининг билимдонлари бўлган бу устозлардан илм олиш Ф.Содиқов келажагини мусиқа билан чамбарчас боғлашига замин яратди. Талабалик давридаёқ севган касбига ўзини ва бошқаларни ҳам жалб қила олганлиги учун ўқитувчилик амалиёти бўйича у Тошкент шаҳар 73–умумтаълим мактабида қизлардан дуторчилар оркестри тузиб, консерватория залида чиқишлар қилди. Фаоллигига ишонган А. Петросянц IV курсда ўқиётган Ф.Содиқовга талабалар оркестрига раҳбарликни топширди, V курсдан эса, ўқитувчи сифатида ишга таклиф этиб, қашқар рубобидан ва оркестр дирижёрлигидан дарс берди. 1970 йили ўқишни битирган Ф.Содиқов фақат дирижёрликдан дарс беришни лозим топди. Ўқиш даврида қашқар рубоби билан бирга афғон рубобида ҳам изчил шуғулланганлиги учун у 1971 йили афғон рубоби чолғусида ижрочи созандаларнинг I –Республика танловида қатнашиб ғолибликни қўлга киритди. Дирижёрлик касбини янада чуқурроқ ўрганишга бўлган интилиш Ф.Содиқовни 1971 йили опера-симфоник дирижёрлиги факультетида ўқишга ундади. У 1976 йили моҳир устоз, композитор ва дирижёр, жамоат арбоби, Халқаро мукофотлар лауреати, Халқ артисти, профессор **М. Ашрафий** синфини муваффақият билан битирди. Шу йили Ўзбекистон Республикаси маданият ишлари вазирлиги Ф.Содиқовни **Т. Жалилов номидаги ўзбек халқ чолғулари оркестрига бадий раҳбар ва бош дирижёр** этиб тайинлади. Ф.Содиқов келишидан олдин 1975 йилда давлат аттестациясидан ўта олмаган бу оркестр чуқур инқирозни бошидан кечираётган эди. Оркестрнинг ижрочилик даражасини ошириш мақсадида Ф.Содиқов жамоага бир қатор иқтидорли созандаларни, Республика танловлари ғолибларини таклиф этди.

Ф.Содиқов раҳбарлигидаги оркестрнинг ижодий сафарлари анча кенгайди. Булар: Марказий Осиё давлатлари. Марказий Россия ва Сибирь, Узоқ Шарқ, Украина, Белоруссия ва Кавказ орти республикаларидир.

Шунингдек, Ф.Содиқов раҳбарлигидаги оркестр Ўзбекистон телевидениеси ва радиосининг олтин фондига ўзининг энг ноёб дастурларини ёзишга эришди.

Ф.Содиқов моҳир дирижёр, жамоат арбоби бўлиши билан бирга меҳрибон устоз ва севимли мураббий сифатида ҳам фаолият юритди. У 20 йилдан ортик мобайнида М. Ашрафий номидаги Тошкент Давлат консерваторияси (ҳозирги ЎзДК)да талабаларга халқ чолғулари оркестри дирижёрлиги сирларини ўргатди. У 1985 йилдан доцент, 2005 йилдан А.Қодирий номидаги Тошкент Давлат маданият институти профессори (ҳозирги ЎзДСМИ) сифатида самарали фаолият юритди.

Ф.Содиқов раҳбарлигида оркестр 2001 йили Республикамизнинг энг нуфузли мусиқа ўчоғи –А. Навои номидаги Давлат академик катта опера ва балет театри сахнасида биринчи марта икки бўлимдан иборат Дж. Верди вафотининг 100 йиллигига бағишланган «Италия мусиқаси оқшоми», 2003 йили яна шу театрда Санкт-Петербург шахрининг 300 йиллигига бағишланган «Рус мусиқаси оқшоми», 2004 йил И. Штраус таваллудининг 200 йиллигига бағишланган «Вальс оқшоми». 2004 йил шу театрнинг солисти Н. Султоновнинг иштирокида «Неаполитан кўшиқлари оқшоми», 2005 йил рус мусиқасига бағишланган «Широкая масленница» номи билан ўтказилган мусиқа кечалари жамоатчиликда катта қизиқиш уйғотди ва Республикамиз мусиқа ҳаётида муҳим воқеа бўлди. Оркестрнинг профессионал ижрочилик соҳасидаги эришган улкан ютуқлари ва кенг оммани мусиқий эстетик тарбиясидаги муваффақиятлари учун «Давлат оркестри» (1980), «Академик оркестр» (1991) юксак унвонлари билан тақдирланди. Ушбу ютуқлардаги хизматлари учун **Ф.Содиқов «Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист»** (1980), «Ўзбекистон халқ артисти» (1999) фахрий унвонларига сазовор бўлди. Шу жумладан оркестр артистлари **А.Муборақов** (2002) ва **Ш. Ахмеджонов** (2003) «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист» фахрий унвонига, К. Базоров, Е. Каримов, У Махмудовлар Халқаро конкурс лауреатлари даражасига кўтарилди. 1976 йилдан оркестрнинг бадий раҳбари ва бош дирижёри сифатида фаол ижод қилиб келган Ўзбекистон халқ артисти, профессор Ф.Содиқов шу жамоада самарали ишлаб. маҳоратини янада юқори даражага кўтаришга эришди.

Президентимиз таклифи билан 2023 йил “**Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили**” деб номланди. Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, **нажот - таълимда, нажот - тарбияда, нажот - билимда...** Мактабгача таълим тизимидан бошланган туб ислохотлар ўрта бўғинда ва Олий босқичда узвий ҳамда изчил давом эттирилиб, сифат масаласига жиддий эътибор қаратилиши замон талаби. Жамиятимизнинг маънавий асосларини мустаҳкамлаш,

маданият соҳасини ривожлантириш, илмий-ижодий ташкилотлар, муҳтарам зиёлиларимиз фаолиятини қўллаб-қувватлаш ҳам биз учун устувор йўналишлардан бири бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлар бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги Фармони. // “Халқ сўзи” газетаси, 2017-йил 8-февралдаги сони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” (Ўз.Р қонун ҳужжатлари тўплами 2017-йил, 18-сон 313-модда, 19-сон 335-модда, 24-сон 490-модда, 37-сон 982-модда).
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси 2022 йил 20 декабрь.

**БОШЛАНГИЧ МУСИҚИЙ ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН  
ТЕХНОЛОГИЯЛАР**

**Одилжон Фозилович Назаров** – Ўзбекистон давлат консерваторияси  
“Халқ чолғуларида ижрочилик” кафедраси профессори,  
Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист,  
Тел: +998 90024 90 64  
E-mail: ffozilov996@gmail.com

Мақолада мусиқий таълимнинг кўйи босқичида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш ҳақида сўз боради. Унда мавзу педагогик технологияларнинг чолғуларда ўқитишда қўллаш мумкин бўлган айрим турлари мисолида ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Педагогик технология, мусиқий таълим, БМСМ, чолғуларда ўқитиш, Шашмақом, миллий мусиқа, рубоблар оиласи

The article deals with the use of innovative technologies in primary music education. The article is based on the example of using possible techniques of pedagogical technologies in teaching musical instruments.

**Key words:** Pedagogical technology, music education, ИТРМЕ, teaching on instruments, Shashmak, national music, a family of rubabs

.В статье речь идёт о вопросах использования инновационных технологий в начальном музыкальном образовании. Статья раскрывается на примере использования возможных приёмов педагогических технологий в обучении на музыкальных инструментах.

**Ключевые слова:** Педагогическая технология, музыкальное образование, ДШМИ, обучение на инструментах, Шашмақом, национальная музыка, семейство рубабов.

Bugun mamlakatimizda yosh avlodni estetik ruhda komil inson etib tarbiyalashda musiqiy ta'limga katta e'tibor berib kelinayotganligi sir emas. Respublikamizda mavjud 300 dan ortiq bolalar musiqa va san'at maktab (BMSM)larida yoshlarga musiqaning barcha yo'nalishlarida sifatli ta'lim berib kelinmoqda.

Ma'lumki musiqiy ta'limda, ayniqsa cholg'u ijrochiligi yo'nalishi(milliy cholg'ular, fortepiano, skripka, damli cholg'ular) bo'yicha dars mashg'ulotlari yakka (individual) tarzda olib boriladi. Sababi, cholg'ularga o'rgatish amaliy

mashg'ulotlar shaklida olib borilishidir, albatta. Bugungi kunda musiqiy ta'lim belgilangan dastur va talablar asosida olib borilsada, cholg'ularga o'rgatishda darslar har bir mutaxassisning muayyan cholg'uda o'qitish bo'yicha shaxsiy tajribasiga asoslangan uslubi asosida an'anaviy ko'rinishda amalga oshirib borilishi ko'pchilikka ma'lum. Shunday bo'lsada, yakka dars mag'ulotlarida ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalana olish, hamda hayotning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelayotgan axborotlar oqimini qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash va o'quvchilarga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.<sup>1</sup>

Ta'lim-tarbiya jarayoniga, xususan musiqiy ta'limga ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Технология тушунчаси қарийб бир асрдан буён таълим соҳасида кенг қўлланиб келинмоқда. Ушбу йўналишда дунё миқёсида етук олимлар изланишлар олиб борганлар. Ўзбекистонда Н.Сайидахмедов, М.Очилов, Н.Азизхўжаева, Р.Ишмухамедов, А.Абдуқодиров, Р.Мавлонова, Х.Абдуллаев, М.Маҳкамова каби ўнлаб таниқли олимлар ушбу соҳада олиб борган ишларида педагогик технологияга ўз қарашларини билдириб ўтганлар. В.П.Беспалькони́нг ўзбекистонлик шогирди Н.Сайидахмедовнинг фикрича “Педагогик технология – бу ўқитувчи томонидан ўқитиш воситалари ёрдамида ўқувчиларга таъсир кўрсатиш ва бу фаолият маҳсули сифатида уларда олдиндан белгилаб олинган шахс сифатларини шакллантириш жараёнидир”<sup>2</sup>. Нуфузли ЮНЕСКО ташкилоти маъқуллаган таъриф бўйича “Педагогик технология – таълим шакллари́ни оптималлаштириш мақсадида техник воситалар, инсон салоҳияти ҳамда уларнинг таъсирини инобатга олиб, ўқитиш ва билим ўзлаштиришнинг барча жараёнларини аниқлаш ва қўллашнинг тизимли методидир”<sup>3</sup>. Таъкидланганидек, замонавий таълимда ўқитиш тизимида ахборот ва педагогик технологияларнинг амалиётда қўлланиши муҳим аҳамият касб этиб бормоқда.

2009-2014 йилларга мўлжалланган БМСМ лар моддий техник базасини мустаҳкамлаш бўйича Давлат дастурини амалга ошириш борасида олиб

<sup>1</sup> Н..Исакулова, З.Боҳовуддинова, С.Маҳмудова. “Ўқув жараёнида таълим технологияларидан фойдаланиш услубияти” “Фан” нашриёти, Т.,2013,3-бет

<sup>2</sup> Н.Сайидахмедов. “Янги педагогик технология моҳияти” “Халқ таълими”, 1999 №1, 98-бет

<sup>3</sup> Б.Л.Фарберман. “Прогрессивные педагогические технологии”, Т., 2012 3-бет



борилган ишлар натижасида бугун мамлакатимизда БМСМлар замонавий бинолар, жиҳозлар билан бирга энг сўнгги мусиқа чолғулари, аудио-видео ускуналари, ўқув жиҳозлари, электрон мусиқа асбоблари, электрон мусиқий доскалар каби имкониятларга эга. Таъкидлаш мумкинки, чолғуларда ўқитиш борасида педагогик технологиялардан фойдаланиш услубиёти ҳали етарли даражада эмаслиги, бу борада амалга оширилиши керак бўлган ишлар талайгина эканлиги бугун мутахассислар олдида долзарб вазифаларни қўяди. Сабаби, педагогик технологияларнинг деярли барчаси асосан гуруҳли дарслар учун ишлаб чиқилганлигидир. Лекин, амалиётда тажрибали ўқитувчилар педагогик технологияларнинг у ёки бу туридан ўз фаолиятларида фойдаланиб келадилар.

Мусиқий таълимнинг юқори босқичларида нота кўчириш, партитура ёзиш, чолғулаштириш, композиция, ёзилган матнларни эшитиб кўриш учун ахборот технологияларидан Sibelius 6,7, ва синтезатор махсус мусиқий дастурлардан фойдаланилса, ўқитишнинг қуйи босқичида бу усулларининг энг оддийлари яъни, аудио-видео технологияларидан ҳозирда БМСМларда кенг фойдаланилмоқда. Ўрганилаётган асарни ижтимоий тармоқларда ва БМСМ фонотекасида мавжуд аудио ёзувларини машғулотларда тинглаб, уни ўқувчи билан таҳлил қилиш, кўп бора эшитиб бориш ўқувчига асарни ўзлаштиришда катта имкониятларни яратиш беради. Чунки ўқувчи эшитиш орқали асарнинг нафақат нота матни, балки, унинг ижро штрихлари, йўналиши (стили) ва ифодавийлик хусусиятларини илғай бошлайди. Энг муҳими, бу орқали ўқувчининг эшитиш қобилияти риожлантириб борилади.

Шу ўринда ўзбек миллий мусиқаси нола-қочиримларини нота орқали тўлиқ ифодалаш, уни миллий оҳангларда мукамал ижрода ўзлаштириш имконияти чекланганлигини яна бир бор таъкидлаб, бугун Ўзбекистоннинг барча мусиқий таълим масканларида мавжуд “анъанавай ижрочилик” йўналиши бўйича таълим беришда Шашмақом ва мақом йўлидаги асарларни ёш авлодга сингдириб, уларни миллий мусиқамизга бўлган муҳаббат руҳида тарбиялаш, ушбу улкан маънавий меросимизни чуқур ўрганиш, уни асраб-авайлаш, келажакда етук мақом ижрочиларни етиштириб боришда айнан компьютер технологияларидан бири аудио ёзувлардан фойдаланиш, яъни, ўқувчиларга миллий мусиқамиз намуналарини бевосита эшитиб ўрганиш асосий мезонлардан бири эканлигини алоҳида қайд этиш лозим.

Бугун БМСМларда ўқитишда видео ёзувлардан фойдаланиш ҳам



самарали усуллардан бири бўлиб майдонга чиқмоқда. Илгари мусиқий таълимнинг қуйи босқичларида бундай имкониятлар умуман бўлмаган. Ҳозирги даврда эса Ўзбекистондаги концертлар, машҳур санъаткорлар ижроларининг видео ёзувлари мавжуд. Бундан ташқари интернет орқали дунёнинг машҳур ижрочилари томонидан чалинган асарларни кўриш, эшитиш имкони яратилган. Аудио ёзувдан фарқли ўлароқ видео орқали ўрганишда ўқувчи бевосита ижрочининг қўл ёки бармоқ ҳаракатлари, аппликатура ва артикуляцияни кўллаш усулари, ҳатто нафас олиш ҳолатларигача кўриш орқали ўзлаштириши мумкин.

Бундан ташқари фақатгина мусиқа тинглаб ёки унинг ижросини видео орқали кузатиб қолмасдан, балки, педагогик технологияларнинг турли методларидан электрон тарзда ҳам фойдаланиш мумкин. Машғулотлар яқка тарзда бўлсада ҳар бир дарс бошланишида 5-10 дақиқа мавзу бўйича ўқитувчи томонидан олдиндан тайёрланган турли слайдлар намойиши ҳам кўзланган натижага эришишда самарали воситалардан ҳисобланади. Масалан, синфга дастлаб кириб келган ўқувчига ўзи ўзлаштираётган чолғуси ҳақида маълумот бериш учун фото материаллари слайдлари, шунингдек, Венн диаграммаси слайдидан фойдаланиш мумкин. Агар ўқувчи миллий чолғулардан қашқар рубоб чолғусини танлаган бўлса, бу чолғунинг бошқа бир турдош чолғуга, яъни уйғур рубобига Венн диаграммаси орқали турли анимациялар воситасида солиштириш ўқувчининг диққатини тортади ва ўз-ўзидан унинг мазкур чолғуга қизиқишини кучайтиради.



Ўқувчининг музикаий тафаккурини кенгайтириш, ўзлаштириладиган билимларни кўриш орқали идроклашни кучайтириш учун қўллаш мумкин бўлган методлардан фойдаланилганда музикаий таълимда энг асосий омиллардан ҳисобланадиган хотирани мустаҳкамлаш жараёни ривожланади. Масалан, муайян чолғулар оиласи ҳақида маълумот беришда шундай методлардан бири кластер методидан фойдаланиш мумкин.




Бугунги кунда маълум бўлган бундай схемалар муסיқий назарий билимларни ўзлаштиришда, шунингдек, муайян асар ижросида учрайдиган муаммоларнинг дастлабки сабабини аниқлаш бўйича фикрлар занжири, тизимли, ижодий ва таҳлилий фикрлашни ривожлантиради ва фаоллаштиради.

Муסיқа дарси ўзининг тузилиши ва услубиёти билан бошқа ўқув фанлардан тубдан фарқ қилади, чунки муסיқани ҳар томонлама мантиқий фикрлаш билан ўзлаштирилмаса, ўқувчининг ҳиссиётига бевосита таъсир этмаса, уни ўзлаштириш анча қийин кечади. Ўқувчи ҳар бир дарсда ўз муסיқий қобилияти, уқуви, шу билан бирга куйнинг оҳанги, ўлчови, шакли, усули, суръати асосларини чуқур ўзлаштириши ва хотирасини мунтазам равишда ривожлантириб бориши лозим<sup>4</sup>. Бу ишлар дастлабки ва муҳим босқич бўлган болалар муסיқа ва санъат мактабларида амалга оширилиши мақсадга мувофиқ бўлишини кейинги йиллар тажрибаси кўрсатди. Шу маънода мазкур таълим босқичларида “Бошланғич муסיқа назарияси” фанини чуқурлаштирилган тарзда ўқитиш ва унда илк бор, албатта муסיқага оид бўлган атамаларни ўзлаштириш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Musiqiy nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va ularni mustahkamlash maqsadida pedagogik texnologiyalarning ayrim metodlaridan yakka darslar mavzularini o‘zlashtirishda mustaqil ish uchun yozma topshiriq sifatida foydalanish mumkin. Masalan, musiqa maktabida mashg‘ulotlarning ilk bosqichlarida o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan va turli mavzularga moslashtirilgan “Nima uchun”, “BBB” jadvalining oldindan tayyorlangan bo‘sh nusxasini to‘ldirib kelishni uyga vazifa sifatida berish mumkin.

Биламан	Bilmayman	Bilishni hohlayman
1. Bu cholg‘uni oldin ushlab ko‘rganman 2.	1. Qanday chalishni 2.	1. Ko‘p kuylarni chalishni 2.

Shuningdek, o‘quvchining musiqiy tafakkurini kengaytirish, uni tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashini rivojlantirish maqsadida o‘zi o‘rganayotgan cholg‘usi haqidagi fikrlarini “Nima uchun” sxemasi orqali yozma ravishda tayyorlab kelishni mustaqil topshiriq sifatida barish mumkin



Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, musiqiy ta’limda innovasion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash doimiy rivojlanib, yangilanib boradigan jarayon ekanligini alohida e’tirof etib, bu yo‘nalishda o‘qituvchilardan muntazam ravishda o‘z bilim va malakalarini oshirish va ta’lim tarbiyaning zamonaviy usullaridan boxabar bo‘lib borish zarur ekanligini yana bir bor ta’kidlamoqchimiz. Cholg‘ularda ijrochilik sirlarini yoshlarga o‘rgatuvchi har bir ustoz, musiqa o‘qituvchisi o‘z faoliyatiga doimo izlanuvchanlik va ijodkorlik bilan yondoshib innovasion pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llab o‘qitishning yangi-yangi usul va uslublarni amaliyotga tatbiq etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) N.Isaqulova, Z.Bohovuddinova, S.Mahmudova. “O‘quv jarayonida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish uslubiyati” “Fan” nashriyoti, T.,2013,3-bet
- 2) N.Sayidahmedov. “Yangi pedagogik texnologiya mohiyati” “Xalq ta’limi”, 1999 №1, 98-bet
- 3) B.L.Farberman. “Progressivniye pedagogicheskiye texnologii”, T., 2012 3-bet
- 4) O.Nazarov. “Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti” T.2008, 27-bet

## ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИДА “ГАРМОНИЯ” ВА “МУСИҚА АСАРЛАРИ ТАҲЛИЛИ” ФАНЛАРИНИНГ ЎРНИ

Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият  
институти “Муסיқа-назарий фанлар” кафедраси  
доценти, санъатшунослик фанлари номзоди  
Муллажонов Давлат Мавлонович

**Аннотация:** Мазкур мақолада Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Чолғу ижрочилиги” таълим йўналишида “Гармония” ва “Муסיқа асарлари таҳлили” фанларининг “ўқитилиши” жараёнларига оид фикр-мулоҳазалар баён этилган. Хусусан, муסיқий-назарий фанлар доирасидаги мураккаб ушбу фанлар мундарижасидаги мавзуларни дарсларда тизимли амалга ошириладиган йўналиш ва услублар ёритилган.

**Таянч иборалар:** гармония, таҳлил, куйни гармониялаш, изчиллик, созанда, кўникма, назарий, даврия, оддий икки ва уч қисмли шакллар, мураккаб шакллар, муסיқий лавҳа.

## О РОЛИ ПРЕДМЕТОВ «ГАРМОНИИ» И «МУЗЫКАЛЬНОГО АНАЛИЗА» В ИНСТРУМЕНТАЛЬНОМ ИСПОЛНЕНИИ

Мулладжонов Давлат Мавлонович доцент  
кафедры «Музыкально-теоретических  
дисциплин» Государственного института  
искусств и культуры Узбекистана

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются процессы преподавания предметов «Гармония» и «Анализ музыкальных произведений» по образовательному направлению «Инструментальное исполнительство» Государственного института искусств и культуры Узбекистана. В частности, акцентированы практические направления и методы системной реализации сложных тем в содержании этих предметов в рамках музыкально-теоретических дисциплин.

**Ключевые слова:** гармония, анализ, гармонизация, цифровки, инструменталист, теория, период, простые двух- и трехчастные формы, сложные формы, музыкальные фрагменты.

## ON THE ROLE OF THE SUBJECTS OF "HARMONY" AND "MUSICAL ANALYSIS" IN INSTRUMENTAL PERFORMANCE



**Mullajanov Davlat Mavlanovich**  
**Associate Professor of the Department of «Musical**  
**and Theoretical Disciplines» of the State Institute of**  
**Arts and Culture of Uzbekistan**

**Annotation:** This article discusses the process of teaching the subjects "Harmony" and "Analysis of musical works" in the educational direction "Instrumental performance" of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan. In particular, practical directions and methods of systematic implementation of complex topics in the content of these subjects within the framework of musical and theoretical subjects are emphasized.

**Key words:** harmony, analysis, harmonization, digits, instrumentalist, theory, period, simple two- and three-part forms, complex forms, musical fragments.

Маълумки, “Гармония” ва “Муסיқа асарлари таҳлили” фанларини ўрганиш ва ўзлаштирилган билим ва кўникмалардан амалиётда фойдаланиш муסיқа санъати соҳасининг ҳар бир вакили, айниқса ёш мутахассислар учун муҳим аҳамият касб этади.

Умумқасбий фанлар таркибидаги муҳим фанлардан бўлган “Гармония” ва “Муסיқа асарлари таҳлили” фанларини ўрганиш бўлажак созанда (вокал ижрочи)ларнинг турли ижодий фаолиятининг узвий қисми бўлган муסיқани касбий идрок этиш ва таҳлил қилиш учун замин яратади, шунингдек, у талабаларнинг билимларини бойитади, амалий йўналтирилган аниқ техник кўникмаларни ривожлантиришга хизмат қилади. Шу боис, мазкур фанларнинг таълим тизимида ўқилишига алоҳида тўхталиб ўтамиз.

Таъкид жоизки, “Гармония” фанига оид мавзулар дарсларда илмий-оммабоп услубда баён этиш зарур. Фаннинг асосий мақсади мавжуд коидаларни тизимли содда ва равон тилда баён этиш орқали талабаларга назарий билимларни бериш ҳамда уларни кўникмага айлантириш орқали бўлажак муסיқачи-ижрочи фанга оида мавзуларни тушуниш, тушунтириб бера олиш ҳамда амалиёт жараёнларида татбиқ этиш хусусиятларини шакллантиришга эришади.

Шунингдек, “Гармония” фан мундарижасида ўрин олган мавзуларни талабалар томонидан ўзлаштиришга хизмат қиладиган анъанавий топшириқлар – маълум бир овозли куйлар (бас)ни гармониялаш, шунингдек, ўрганилаётган мавзуларни бевосита амалий ривожлантириш ва уларни



мустаҳкамлашга ёрдам берадиган фортепиано машқлари ҳамда маълум мусиқий асар лавҳасини гармоник таҳлил қилиш каби асосий турлардан иборатдир. Қайд этилган умумий маънода ўқув ва амалий вазифаларнинг номланган турларига алоҳида-алоҳида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

Шу билан бирга, “Гармония” фанининг умумий курсларда “ўқилишида” гармониялашга тақдим этилган куйлар (бас)нинг турли шаклдаги ривожловини тизимли ва мақсадли ўрганиш ҳам зарурдир. Ўз навбатида бу гармониялашга ҳам, фортепиано машқларига ҳам тегишлидир.

Айниқса, фортепиано машқларининг ҳар хил турлари мураккабликнинг босқичма-босқич ўзлаштириб борилиши билан тавсифланади, бу албатта қўлланиладиган гармоник изчилликларнинг табиий кенгайиб бориши билан боғлиқдир. Бу, бир томондан, мусиқий матннинг аккордсиз товушлар билан “тўлдириш” орқали ривожланган куй шаклини яратишга эришилса, иккинчи томондан эса вазифаларнинг бадиҳавий шаклларининг улуши аста-секин ўсиб боришига хизмат қилади.

Бундан ташқари, муайян турдаги даврия, қўшиқ, оддий икки ва уч қисмли классик мусиқий шаклларни дастлабки ижодий ўзлаштириш ҳам фаннинг яна бир муҳим вазифаларидан биридир. Мусиқий яхлитликни аниқ хис этиш, унинг функционал жиҳатдан барқарор, экспозицион, ўрта ривожланиш, якуний каби турли босқичлари ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиш – бу куйни гармониялаш устида ишлаш жараёнида, маълум бир якунланмаган мусиқий лавҳанинг давомини яратишда ҳамда фортепиано машқларида шаклланади.

Навбатдаги гармоник таҳлил мазкур фанни амалий ўзлаштиришнинг муҳим жиҳатларидан бири сифатида нафақат таҳлил қилинаётган асардаги аккордларни аниқлаш ва белгилаш, аккордсиз товушлар бирикмасининг тавсифи ва бошқа аниқ технологик вазифаларни, балки бундай таҳлил асосида керакли умумлашма хулоса қилиш қобилиятни ривожлантиришга ҳам хизмат қилади. Масалан, асарнинг стилистик хусусиятини ёки асарнинг лад тузилишини кўрсатиш, ундаги гармоник изчиллигининг бўёқдорлигини белгилаш билан бирга ундаги линейар ҳодисалар моҳиятини баҳолашга ҳам ўргатади.

Классик мусиқа асарларини ўзлаштиришни талаб қилувчи гармоник таҳлил бўйича ёзма, бадиҳавий (импровизацион) ва оғзаки топшириқлар эса

ижодий машқлар билан бирлашиб, айрим талабаларда мусиқий композиция яратиш маҳоратини ҳам ривожлантиради.

Шу каби “Мусиқа асарлари таҳлили” ҳам турли ижодий фаолиятнинг узвий қисми бўлган мусиқани идрок этиш ва уни таҳлил қилиш учун замин яратади, шунингдек, у талабаларнинг билимларини янада бойитиб, амалий кўникмаларни ривожлантиради.

“Мусиқа асарлари таҳлили” фанига келсак, шунини таъкидлаш зарурки, ушбу фанга янги, тизимли ёндашиш зарур. Назаримизда мусиқа таҳлили соҳасидаги баъзи белгиланган қоидаларни назарий қайта кўриб чиқиш шарти юзага келди. Бунда амалиётда синаб кўрилган амалларни ва ушбу соҳадаги мавжуд ишларни инкор этмаган ҳолда миллий мусиқа санъатимиз намуналарида саралаб олиш ва уларни тизимлаштириш мақсадга мувофиқ кўринади.

Хусусан, фан мундарижасида ўрин олган мавзуларни талабалар томонидан ўзлаштиришга хизмат қиладиган анъанавий топшириқлар – маълум бир мусиқий асарни таҳлил этиш, шунингдек, ўрганилаётган мавзуларни бевосита амалий ривожлантириш ва уларни мустақкамлашга ёрдам берадиган мусиқий асарни таҳлил қилиш каби асосий турлардан иборатдир. Шунга кўра, қайд этилган умумий маънода ўқув ва амалий вазифаларнинг номланган турларига алоҳида-алоҳида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ деб ҳисобладик.

Таъкид жоизки, “Мусиқа асарлари таҳлили” фанининг мазкур курсларда ўқитилишида энг аввало даврия ва унинг турлари, оддий икки ва уч қисмли классик мусиқий шаклларни ижодий ўзлаштириш фаннинг муҳим вазифаларидан биридир. Айнан шу мавзулардан мусиқий яхлитликни аниқ ҳис этиш, унинг функционал жиҳатдан барқарор, экспозицион, ўрта ривожланиш, якуний каби турли босқичлари ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиш учун нота ёзуви ва албатта фортепиано ва аудио ёзувларни тинглаш орқали тизимли ва мақсадли ўрганиш зарурдир.

Намунавий фан дастурида ўрин олган мавзулар босқичма-босқич ўзлаштириб борилиши билан тавсифланадики, бу албатта мусиқа асарларнинг шакллари табиий мураккаблашиб бориши билан боғлиқдир. Бу, бир томондан, мусиқа шаклларнинг дастлаб даврия шакли ва уларнинг турлари ўзлаштиришга эришилса, иккинчи томондан эса вазифаларнинг бадиҳавий

шаклларнинг улуши аста-секин ўсиб боришига ҳамда самарали ўзлаштиришга хизмат қилади.

Музикий объектнинг элементларини тавсифлаш тадқиқот йўлининг бош ирмоғи бўлиши керак, бу эса умумлашмалар ва муайян қонуниятларнинг шаклланишига олиб келади. Шундагина қонунийлик мажмуи пировард натижада музикий асар таҳлилининг асосий мақсад ва асар мазмунини тушунишни ҳал қилишга олиб келадиган назариянинг асосига айланиши мумкин.

Юқорида айтилганларнинг барчаси музикий асарларни бадиий мазмун моҳиятини чуқур англаш, музика таълимининг барча бўғинларида ўқув жараёнида қамраб олиш имконини берадиган тадқиқот усули сифатида таҳлил қилиш зарурлигини исботлайди.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азимова А.Н. Гармония. Назарий курс (2-нашр). – Т.: 2004.
2. Азимова А.Н., Ибрагимова Ш. Замонавий гармония. Ўзбекистон композиторлари ижодида аккордлар таркиби. – Т.: 2009.
3. Дубовский И.И., Евсеев С.В., Способин И.В. Гармония дарслиги. “Ўқитувчи”. – Т.: 1979.
4. Степанов А.А. Методика преподавания гармонии. «Музыка». – М.: 1984.

**PROFESSIONAL SOZANDALARNI TAYYORLASHDA NOTA  
SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

*Rayimjonov Baxtiyor Mahmudjonovich*

*Respublika musiqa va san'at kolleji*

*“Xalq cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi bosh o‘qituvchisi*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada, cholg‘u ijrochiligi, professional sozandalarni tayyorlashda turli xil o‘quv metodlaridan foydalanish, musiqa o‘qituvchisi nazoratida talaba va o‘quvchilarning musiqa ijro qilish holati, notaga qarab ijro qilish hamda uning murakkab jarayonlari, nota o‘qish savodxonligini rivojlantirish to‘g‘risida batafsil yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** cholg‘u ijrochiligi, nota, musiqiy bilim, eshitish qobiliyati, musiqiy pedagogika

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье игра на музыкальных инструментах, использование различных методов обучения в подготовке профессиональных музыкантов, состояние музыкального исполнительства студентов и школьников под руководством учителя музыки, исполнительство по ноте и его сложные процессы, развитие грамотности чтения конспектов написано подробно.

**Ключевые слова:** инструментальное исполнительство, ноты, музыкальные знания, слух, музыкальная педагогика.

**ABSTRACT**

In this article, the performance of musical instruments, the use of various educational methods in the training of professional musicians, the condition of music performance of students and pupils under the supervision of a music teacher, performance according to the note and its complex processes, the development of the literacy of reading notes to is written in detail.

**Key words:** instrument performance, sheet music, musical knowledge, hearing ability, musical pedagogy

## KIRISH

O'zbek xalqi orasida musiqa san'ati insoniyatning ma'naviy boyligi, asriy qadriyatlarini namoyon etuvchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi. Xususan, milliy musiqiy cholg'ularda ham har bir xalqning uzoq yillar mobaynida shakllanib kelgan rangbarang an'analari o'z aksini topadi. Shunday ekan cholg'ularni insoniyat ma'naviyatining bir bo'lagi sifatida o'rganib, tadqiq va targ'ib etish eng dolzarb masalalardan biri desak xato bo'lmaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Taniqli psixolog B.M. Teplov musiqa faoliyatining uchta asosiy turini ajratib ko'rsatadi: musiqani tinglash, ijro etish va bastalash. Bu tasnifni to'ldirgan holda, polshalik musiqa psixologi Y. Vershilovskiy har qanday profildagi musiqachining yana bir nisbatan mustaqil faoliyatini kiritadi, bu nota varag'idan o'qish yoki notaga qarab chalish. Olimning fikriga ko'ra, bu faoliyat aniq ifodalanuvchi psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, u jo'rnavozlik va dirijyorlik kabi musiqa ixtisosliklari uchun asosiy va yetakchidir.

Olimlar haqli ravishda ta'kidlaganidek, notaga qarab chalish, shu jumladan, nota varag'idan o'qish musiqiy ixtisosliklarning oxirgi guruhida birinchisidan sifat jihatdan ajralib turadi, Notani o'qish savodxonligi musiqachilarning kasbiy faoliyatida ikkinchi darajali va hatto uchinchi darajali o'rin tutadi. Mazkur mavzuda ko'rilyotgan predmet uchun bu farqlar prinsipial ahamiyat kasb etadi. Lekin professional cholg'u ijrochilari ta'limida nota savodxonligi eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi

Agar nota matni va musiqiy-ijrochilik vazifalari xarakterini sadolantirish mezon sifatida qabul qilinsa, u holda notaga qarab chalishning bir necha turlarini ajratish mumkin. Bu o'rganish, ya'ni asarning birmuncha ahamiyatli parchalarini tahlil qilish va tafakkur etish, ijro etish, ya'ni asarni nota yozuvidagi barcha tafsilotlari bilan vazmin sur'atda chalish. Va nihoyat, asarni o'rganish ishlari olib borilgandan so'ng zarur sur'atda va xarakterda eskiz tarzida chalish.

Ammo sanab o'tilganlarning barchasi ham badiiy-obrazli tabiatga ega emas. Musiqani notaga qarab o'qish, notaga qarab chalishning birmuncha murakkab turi bo'lib, u badiiy faoliyat statusiga ega.

Nota varag'idan o'qishni notaga qarab chalishning boshqa turlaridan ajratib turadigan chegara qayerda joylashgan? Musiqiy asarini notaga qarab ijro etish nimalardan iborat bo'ladi? Bu borada ikki xil fikr mavjud:

– Birinchisi keng tarqalgan tasavvurga olib boradi: nota varag‘idan o‘qish – bu notanish musiqa materialini bir marta «notadan», «bir qarashda» ijro etishdir (*a livre ouvert, aprima vista*).

– Ikkinchisi nuqtayi nazarga muvofiq (Y. Zak, G. Kogan, A. Foldesh va boshq.), nota varag‘idan o‘qish deb, yangi musiqiy materialni to‘liq tarzda nafaqat bir marta chalishga, balki ikki yoki ikki-uch marta chalishga aytiladi. Ma’lumki, bu yerda keltirilgan son «meyorlari» keskin emas. G. Kogan «Pianinoning ishlari» nomli asarining keying nashrlarida ularni olib tashladi va umumiy ko‘rsatma bilan cheklandi: ijrochi o‘zining musiqiy mazmun xarakteri xususidagi eng umumiy tasavvuriga ega bo‘ldimi, notadan chalishni to‘xtatishi kerak. D. Oystrix ham asarni «ma’lum vaqt notaga qarab chalish» zarur, deb hisoblagan. S. Feynberg asarni ilk bor ko‘rganda «yaxshisi yangi asar musiqiy obrazga aylanmagunicha kutib turish kerakligini» maslahat beradi.<sup>5</sup>

### MUHOKAMA

Demak, musiqachi-ijrochi ishida notaga qarab chalishlar soni prinsipial ahamiyat kasb etmaydi. Ijrolar soni xususidagi masalani aniqlayotib, biz yana bir muhim xulosaga kelamiz. Nota varag‘idan o‘qish birinchi bosqichda, yangi asar bilan ilk bor tanishganda ishning asosiy metodiga aylanadi. Bunga nota matnini ravon o‘qishning psixologik tabiati yordam beradi, bu fikrlashning alohida usuli, to‘liq idrok va ijroga ko‘rsatma, maxsus ijrochilik strategiyasi, badiiy faoliyat statusi va hatto, nota matnida berilgan barcha ko‘rsatmalarni bajarish shart emasligidir.

Notaga qarab chalayotib, ijrochi yoddan chalganda ruxsat etilmaydigan harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Ko‘plab mohir ijrochilar notadan o‘qishning o‘ziga xosligini ta’kidlab, tezkor chalish jarayonida «hamma narsa ham ko‘ngildagidek o‘qilmaydi», deyдилar (G. Neygauz), «falsh notalarga» ham yo‘l qo‘yiladi (M. Grinberg) va «sur‘at ham taxminiy» bo‘ladi (K. Igumnov). Barcha notalar va nozik nyuanslarni aniq chalishni majburiy vazifa qilib qo‘yish mumkin emas. “Nimaiki birinchi chalishda chiqmasa, bu ko‘ngil sovishi hissini uyg‘otmasligi kerak”, – deb yozgan edi S. Feynberg.

Dastlabki o‘qish – tanishish «g‘oyani to‘liq anglab yetishga erishish» (L. Auer), asar «musiqasini tezkorlik bilan o‘zlashtirish», «ma’naviy obraziga» duch kelish uchun zarur. Uni “go‘yoki qush parvozidan” ilib olishga (L. Barenboym), uning “psixologik tonalligini” his etishga (G. Kogan) qaratilgan. Bu asnoda “mazkur

<sup>5</sup> O.Ibrohimov “Musiqqa tarixi” ma’ruza



asarga nisbatan munosabatni shakllantirish”(Y. Zak), “asarni o‘ziga ta’sir qilishiga qo‘yib berish” muhim, faqat uning natijasida “uning asl mazmunini avvaldan his etish” (S. Savshinskiy) yuzaga keladi.

Nota varag‘idan chalish o‘zining butun «taxminiyligi» bilan avvalo, musiqani erkin va ishtiyoq bilan ijro etish. U texnik erkinlikdan ko‘ra, badiiy-mazmuniy jihatdan erkin bo‘lib, musiqani faol idrok etish va his qilishni talab etadi. Asarning aynan emotsional-obrazli mazmunini his etish sabab, u haqdagi ilk yorqin tasavvur yaratiladi. Keyingi barcha ishning “kamertoni”ga, uning “yo‘lchi yulduzi”ga aylanadigan o‘sha obrazli xayolot yaratiladi.

### XULOSA

Shunday qilib, asarni notaga qarab chalish uni avvaldan o‘rganmasdan shunchaki tezda chalib chiqishni anglatmaydi. Birinchi o‘qish uning badiiy mohiyatiga kirib borishni nazarda tutadi. Birinchi yorqin taassurot, u qanchalik taxminiy va tugallanmagan bo‘lmasin, faqat musiqiy mazmun interpretatsiyasi natijasidagina yuzaga keladi. Nota varag‘idan o‘qish musiqa adabiyoti bilan har tomonlama, keng miqyosda tanishish uchun qulay imkoniyatlarni ochib beruvchi faoliyat shaklini namoyon etadi. Musiqachi oldidan turli mualliflar, badiiy uslublar va tarixiy davrlarga oid asarlarning bitmas-tuganmas silsilasi o‘tadi. Boshqacha aytganda, nota varag‘idan o‘qish, bu yangi musiqiy idrok va taassurotlarning doimiy va tezkor o‘zgarishi, boy va rang-barang musiqiy axborotning shiddatli oqimidir.

O‘quvchining musiqiy-intellektual sifatleri tabiiyki, nafaqat nota o‘qish davomida, balki kasbiy faoliyatning boshqa turlarida ham sayqallanadi. Ammo musiqani aynan notadan o‘qish orqali buning uchun “maksimal darajadagi qulay” sharoitlar yaratiladi. Avvalo, shuning uchunki, o‘quvchi musiqani o‘qiyotib, keyinchalik ijrochilik nuqtayi nazaridan o‘rganish, o‘zgartirish shart bo‘lmagan asarga ishi tushadi. Bu asarlar eslab qolish, o‘rganish uchun emas, balki shunchaki yangilikni bilish, kashf etish zavqi uchundir. Muhim psixologik sozlanish ham shundan kelib chiqadi. O‘quvchining nota varag‘idan o‘qish orqali musiqiy intellektual kuchini faollashtirish uchun qulay sharoitlar shu bilan belgilanadiki, yangi musiqa bilan tanishuv doimo yorqin, jalb qiluvchi emotsional ranglarga ega bo‘lgan jarayondir. Bu ko‘plab musiqachilar tomonidan ko‘p bora ta’kidlangan.

Emotsional tartibdagi omillar umuman inson tafakkuri va ayniqsa, badiiy-obrazli tafakkuri faoliyatida prinsipial jihatdan muhim rol o‘ynaydi. Emotsional to‘lqin cho‘qqisida musiqiy intellektual harakatlarning umumiy ko‘tarilishi yuz beradi, ular katta energiya bilan to‘yinib, alohida aniqlik va tartib bilan kechadi.

Shunday qilib, *nota varag'idan o'qish* o'quvchining umummusiqiy rivojlanishi yo'lidagi eng qisqa va birmuncha istiqbolli yo'llardan biridir. Qolaversa, *nota varag'idan o'qish* – asarni ijro etish. cholg'u ijrochiligida yaxlit g'oyani ifodalab, asarni keyingi ijro uchun o'rganishning asosiy jihatidan biri deb bermalol ayta olamiz. Bunda ijro yangiligining bir qismi yo'qotilishi mumkin, ammo u texnik mukammallikka ega bo'lib, kompozitorlik g'oyasiga teran kirib boradi va musiqachining tajribasini boyitadi. Bastakorning bir lahzali kechinmasi ijrochi tomonidan ijro onlarida his etiladi, unda butun hayot tajribasi jamlanadi, bu esa tinglovchini konsert ijrochiligidan mo'jiza kutishga majbur etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahimov SH. Cholg'u ijrochiligiga o'rgatish metodikasi. - T.: O'quv qo'llanma, 2009.
2. Berdiyeva Lobar "O'quvchilarni estetik tarbiyalashning vositalari".
3. Z.Nishonova Bolalar psixologiyasi va o'qitish metodikasi.
4. E.G`oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
5. Munavvarov. A. Pedagogika - Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1996-2008.
6. A.Odilov "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi" O'qituvchi nashriyoti. Toshkent 2013.

## ЎЗБЕК МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МАДАНИЯТИДА АНЪАНАВИЙЛИК ВА ЗАМОНАВИЙЛИК МАСАЛАЛАРИ.

**Фотимахон Зупарова**

ЎзДСМИ “Чолғу ижрочилиги” кафедраси  
доцент в.б.

### Аннотация

Ушбу илмий мақолада, ўзбек миллий мусиқий маданиятимизнинг асрлар оша бой тарихи, ундаги қадрият сифатида ўрганиб келинаётган анъанавийлик ҳамда ўзбек миллий мусиқий маданиятимизни ривожлантириш жараёнидаги замонавий тенденциялар ҳақида илмий мулоҳазалар юритилган. Мақоланинг илмий жиҳатларидан бири, илмий хулосалар бериш жараёнида қомусий олимларимизнинг назарий мусиқага оид қарашларидан фойдаланилган.

**Таянч сўзлар:** Миллий мусиқа, мусиқий маданият, анъанавийлик ва замонавий тенденциялар, мусиқий мерос, шарқ мусиқа илми, мусиқа таълими;

### Аннотация

В данной научной статье рассматриваются богатая история нашей узбекской национальной музыкальной культуры, изучаемая в ней традиционность как ценность, современные тенденции развития нашей узбекской национальной музыкальной культуры. Один из научных аспектов статьи, в процессе дачи научных выводов были использованы взгляды наших энциклопедистов на теоретическую музыку.

**Ключевые слова:** национальная музыка, музыкальная культура, традиции и современные тенденции, музыкальное наследие, восточная музыкальная наука, музыкальное образование;

### Annotation

This scientific article examines the rich history of our Uzbek national musical culture, the tradition studied in it as a value, modern trends in the development of our Uzbek national musical culture. One of the scientific aspects of the article, in the process of giving scientific conclusions, the views of our encyclopedists on theoretical music were used.

**Keywords:** national music, musical culture, traditionalism and modern trends, musical heritage, oriental music science, music education;

Ҳар бир халқнинг, миллатнинг маънавий руҳий камолотида мусиқа санъатининг алоҳида ўрни бор. Ўзбек халқининг мусиқа маданияти жуда узок тарихга эга бўлиб, тарихий тараққиёт давомида халқ мумтоз мусиқаси, анъанавий касбий мусиқа, халқ бастакорлик йўллари, фольклор ҳаваскорлик мусиқий мероси, вокал чолғу мусиқий жамоалари сингари шаклан ва услубан бир бирига яқин ижрочилик кўринишлари орқали намоён бўлиб келмоқда. Маънавиятимизнинг асосий бўғини бўлган мусиқий маданиятимиз узок тарихий ўтмишга эга бўлиб, ҳамиша халқимизнинг кундалик ҳаётида маънавий озуқа сифатида эътироф этиб келинган.

Бугунги тезкор жараёнда мамлакатимизда иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий соҳаларда туб ислоҳатлар ўтказилаётган бир паллада жамиятимизда миллий маданият ва санъат, маънавият ва маърифат каби инсонпарвар ҳамда тараққийпарвар омилларга алоҳида эътибор берилмоқда. Бу ўринда амалий бебаҳо қадриятларимизни, халқчил удум ва анъаналаримизни тобора тўлароқ тиклаш, тарихий маданий ёдгорликларимизни шу жумладан мусиқий меросимизни муфассал ўргана бориш ниҳоятда муҳим аҳамият касб этмоқда. Уни қадрият сифатида ёш авлодлар томонидан илмий ҳамда амалий жиҳатдан пухта ўзлаштириш учун сўнги йилларда барча зарур шарт шароитлар юзага келтирилганини эътироф этиш мумкин. Бу борада кўзланган эзгу мақсадларга эришиш учун республикамизнинг маданият ва санъат ўқув юртларида, шунингдек халқ таълими тизимига кирувчи гуманитар йўналишдаги олий ва ўрта ўқув юртларида ўзбек мусиқа ижодиётининг барча қатламларини халқ мусиқаси, мақомчилик, достончилик, ўтмиш ва замонавий бастакорлик, композиторлик, бадий ҳаваскорлик, эстрада санъатини камраб олувчи қатор махсус ўқув фанлар жорий этилмоқда. Бироқ ушбу соҳани қанчалик ривожлантириш учун эътибор берилишига қарамасдан, ўзбек миллий мусиқий маданиятимизни ривожлантириш ва унинг тарбиявий қийматини ошириш борасида кўп илмий тадқиқот ишларини олиб бориш ва мусиқа илмидаги анъанавийлик, замонавийлик тенденцияларини ўрганиб, таҳлил қилиб ёшларимиз қалбига унинг сеҳрини жо қилиш зарурлигини даврнинг ўзи тақозо қилмоқда. Албатта, савол туғилади. Мусиқа аслида нима? Мусиқа атамаси аслида юнонча муза (муса) сўзидан келиб чиққан. Муза юнон мифологиясидаги тўққизта худолардан бири бўлмиш Эвтерпа лирик шеърят ва мусиқа худоси, илхом парисидир. Мусиқа сеҳри шунчалик мўъжизакор-ки, уни қалби гўзалликка

иштиёқманд кишиларгина севади, англайди. Муסיқа тинглаш ва уни идрок этиш болаликдан тарбияланади ва сингдирилиб борилади. Муסיқани барча эшитади, бироқ уни ҳамма ҳам бирдай идрок эта олмайди. Муסיқани тинглаш жараёнида идрок этиш даражаси тингловчининг умумий маданияти ва муסיқий тайёргарлик даражасига боғлиқ. Битта муסיқий асарни тинглаган икки киши ўз ҳаётини тажрибасидан келиб чиққан ҳолда уни турлича тушуниши, турли образларни кўриши мумкин. Демак бундан тушуниш мумкин-ки, муסיқа биз ўйлагандан кўра қудратлироқ кучга эга. Айниқса бизда Шарқда муסיқа илми ва унинг сеҳрли оҳанги, жилоси ва тарбиявий аҳамияти хусусида мутафаккир алломаларимиз асрлар давомида кўплаб тадқиқот ишлари олиб бориб, рисолалар битганлар. Айнан Шарқ мутафаккирлари муסיқа инсоният тарихидаги буюк кашфиётлардан бири эканлиги, у инсонни қадрлашга, меҳр муҳаббатли бўлишга, эзгуликка интилишига чорловчи муҳим омиллардан бири эканлигини исботлаб беришга уриндилар. Шу боис, яқин ва Ўрта Шарқнинг йирик шаҳарларида муסיқа санъати, чолғулар ва муסיқа ижрочилигининг гуркираб ривожланиши 1X асрдаёқ фаннинг мустақил бўлими муסיқа илмининг туғилишига олиб келди.

Ўрта Осиёнинг улуғ мутафаккири ва қомусий олими Абу Наср Фаробий муסיқа илмининг чинакам асосчиси сифатида ҳам танилди. Юнон фалсафасини чуқур билган, жаҳонга тарғиб қилган ва замонаси билимларини чуқур пухта ўзлаштириб, муסיқа илмига ҳам катта хисса қўшган ва 1X асрда Шарқ муסיқа маданиятининг энг йирик намоёнчаси забардаст бастакор сифатида танилган.

Аллома ўз даврида моҳир бастакор ҳам бўлиб, уд, танбур, ғижжак, най каби асбобларнинг моҳир ижрочиси ҳам бўлган. Аллома соз чалар, куй ижро этиб, одамларга кучли таъсир берар, муסיқанинг сеҳрли олами билан шинавандаларни ҳайратга солар эди. Ўзи муסיқа сеҳрини тушунганлиги боис ҳам муסיқа илмини ўрганиш бобида оламшумул аҳамиятга молик асарлар ижод этиб, муסיқашунослик тарихида ўчмас из қолдирди. Масалан: Фаробийнинг бизгача етиб келган энг юксак фундаментал асари Шарқ муסיқаси ҳақидаги “Китоб ал муסיқий ал кабир” ҳисобланади. У 1967 йилда Қоҳирада нашр этилиб, 1208 саҳифадан иборат. У китобда мутафаккир яшаган замон муסיқа маданиятининг қарийб барча қирра ва кўринишлари берилган. Фаробийнинг бошқа асарларида ҳам муסיқанинг келиб чиқиши



омиллари хақида фикрлар берилади. Аллома асрларининг муҳим жиҳати шундаки, ўзидан олдин яшаб ўтган мутафаккирларнинг муסיқий қарашларини танқидий ўрганган холда, муסיқа санъатининг инсон ва жамият ҳаётидаги ўрни, муסיқанинг хиссий идроки, унинг таъсир кучи, муסיқий эстетик тарбия хақидаги фикрларини илгари суради. Масалан: Фаробий муסיқанинг келиб чиқишига баҳо берар экан, олдин муסיқа амалиёти, кейин муסיқа илми келиб чиққан, деб ҳисоблайди ва унинг лаззат берувчи, кўнгилочар восита, маънавий тарбия воситаси эканлигини таъкидлайди.” Ҳар бирида муסיқа тингловчига таъсир этиш воситасига айланиши лозим. Бу муסיқанинг санъат сифатида яшаши учун биринчи омилдир”.

Фаробий ўз даврида муסיқа илмини назарий ўрганиш орқали инсон руҳиятини тарбиялашда муסיқанинг аҳамияти беқиёс эканлигини таъкидлаб: ”Муסיқа инсон онги ва руҳиятини бошқара олади “ деган хулосага келади. Муסיқа илми ва унинг муаммолари хусусида айтиладиган бўлса, муסיқа таълимининг ўзига хослиги, ташкилий тузилиши, амалий ижрочилик фаолиятлари, шунингдек ўқитиш усуллари, уларнинг самарадорлигини таъминловчи омиллар, воситалар тахлили ва уларни умумий-ижодий, ижобий жиҳатларини умумлаштириш ҳамда янги турларини тилаб чиқиш ва замонга ҳамнафас ривожлантириш вақти келди. Юқоридаги муаммоларни кўриб чиқиб, муסיқа таълими йўналишида ушбу таълим турининг кўплаб афзаллик томонлари борлиги билан бир қаторда муסיқа йўналиши профессор ўқитувчиларига талабалар учун уларнинг ҳам ижодий ҳам назарий билимларини баҳолаш имконини берадиган топшириқлар тайёрлашда “креатив” ёндошувни яъни педагогик жараёнга ижодий ёндошувни талаб этмоқда. Бу эса албатта келажакда ўз мевасини бериб, бўлғуси муסיқа билимдонларига индивидуал қобилиятларини шаклланишида ёрдам бериб, ўз касбига қизиқишни кучайтиради.

Муסיқа тинглаш ҳам асли маданиятдир. Муסיқани тинглаш ва уни идрок этиш болаликдан тарбияланади ва сингдириб борилади. Муסיқани барча эшитади, бироқ уни ҳамма ҳам бирдай идрок эта олмайди. Муסיқани тинглаш жараёнида идрок этиш даражаси тингловчининг умумий маданияти ва муסיқий тайёргарлик даражасига боғлиқ бўлиб, бугунги маданиятлар интеграцияси кучайиб бораётган ахборот асрида барчадан муסיқа соҳалари бўйича жиддий билимга эга бўлишни талаб қилмоқда. Шу боис муסיқий меросимиз, уни ўрганиш даражаси ва муаммолари хақида илмий нуқтаи



назардан тадқиқот ишлари олиб бориш ҳам муҳимдир. Мусиқий билимни боғчалардан ва мактаблардан бошлашимиз кераклиги, ёшларимизнинг мусиқий билим даражаси паст эканлиги ҳамда бу соҳада кўпроқ илмий изланишлар олиб борилиши, мусиқа ўқитувчилари ва устозларнинг ўзлари мусиқий меросимизни чуқур билган, замонавий тафаккур билан қуролланган, нодир маънавий ҳазинамиз бўлган шарқ мусиқасини ноёб жиҳатларини ёшлар онгига сингдиришда замонавий техника воситаларидан фойдаланган ҳолда ўргатиш муҳимдир.

Масаланинг яна бир жиҳатига эътибор қаратсак, бугун қуйланаётган аксарият кўшиқлар матнида инсон маънавиятини маънан юксалтирадиган, кўнглини бир қатор ҳаяжонга соладиган, нозик ҳис-туйғуларни тарбияладиган бадиий тил ифодаси, яъни лирика етишмаяпти. Кўшиқлар матнида ўлдирдим, куйдим, сени кўрмасам туролмайман, ёки айрим аёл хонандаларимизнинг “кетма , лабим асал, белим хипча , қошим камон” қабилдаги қуруқ хитобларини кўшиқ деб айтаётганлари, бундай саёз жумлалар ёшларимизнинг онгини забт этиб, шарқ мусиқасидаги соз ва сўз уйғунлиги, бой маънавий тарбиявий жиҳатларни йўқ бўлишига сабаб бўлмоқда. Кўнгишларга нафис туйғуларни эмас, беҳаёлик ва беандишаликни олиб қирипти. Албатта бундай мисолларни кўп келтириш мумкин, булар эса ўта аянчли ва даҳшатли манзара. Баъзи хонандалар қуйлаган кўшиқларидан шунини кўриш мумкинки, шеър мезонларини қўйя турайлик, оддий адабий тил меёрларига амал қилмаслик ҳолатлари, биз шу соҳа мутахассисларини ранжитмоқда.

Бу борада қуйидаги таклиф ва мулоҳазаларни бериш мумкин:

Авлоддан авлодга ўтиб келаётган миллий мусиқий меросимизни асраб авайлаш, янги шароитларда риволантириш, улар орқали ёшларни мусиқа илмига йўналтириш;

Ҳаваскор ёшлар орасида истеъдодли ижрочиларни аниқлаш, анъанавий мусиқа жанрларини янги шарт шароитларда ривожлантиришда уларни тўғри йўналтириш;

Мусиқа ва санъат мактабларида “Устоз шогирд” анъаналарини ривожлантириш;

Шарқ мусиқий меросимиз дурдона асарларидаги тарбияви бадий аҳамиятли жиҳатларини ёшлар онгига сингдириш;

Авлоддан авлодга ноёб мерос сифатида ўтиб келаётган мумтоз мусиқий маданият намуналарини тўплаш, бойитиш, ёш авлод онгида бу бебаҳо бойликларга чуқур ҳурмат ва ҳавас туйғуларини сингдириб бориш.

### АДАБИЁТЛАР

1. М.М.Хайруллаев. Ўрта Осиёда 1X – X11 асрларда маданий тараққиёт. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси ФА. “ФАН” нашриёти.1994 й.
2. Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш Концепцияси. 2018 й. 28 ноябрь

## ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИДА ИЖРОЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ

Абдуллаев Шохрух Бердимуродович

**Аннотация:** Ушбу мақолада халқ чолғуларида ижрочиликни ривожлантиришдаги муаммолар ва уларнинг ечимлари ҳақида фикрлар юритилган.

**Калит сўзлари:** мусиқа, халқ чолғулари, ижрочилик, ўқув қўлланма, дарслик, нота матнлари.

Мусиқа – бу сўзнинг замирида олам сирлари мужассам, инсонни яхшилик ва эзгуликка чорловчи буюк кучдир. Ҳар бир ёш ва кекса қалблар санъатга ошуфтадир. Мусиқа инсон онгу-шуурига таъсир этувчи, турли ҳолатлар - баъзан қувноқ, баъзан ғамгин кайфиятларни кўзғатувчи, хотираларни жонлантирувчи, ғурур ва ўзлигимизни эслатувчи ажиб бир мўжиза. Мусиқа шундай гўзал бир чаманзор-ки, унинг бўстонида турфа гуллар етилади. Бу бўстонда бир бирига ўхшамайдиган, бир бирини такрорламайдиган, анъана ва қадриятларимизни янада юксалтирадиган ижодкорлар авлоди қайта-қайта бўй чўзаверади.

Маълумки, баркамол авлод тарбиясида мусиқанинг ўрни ва аҳамияти катта. Бошланғич синфларда мусиқа фанларидан ўқув машғулотларини олиб боришда мавжуд бўлган муаммо ва ечимларни аниқ таҳлил қилиб, уларни ижобий ҳал этиш чора-тадбирларини кўриш муҳимдир.

Таълимни талаб даражасида сифатли йўлга қўйиш учун ўқитиш методикаси борасида атрофлича тажриба, билимларга эга бўлиш лозим.

Болалар мусиқа ва санъат мактаблари ҳамда ихтисослаштирилган мусиқа мактабларининг “Халқ чолғулари” бўлимида таҳсил олаётган ўқувчилар нота билан ўқитиш, сольфеджио, мусиқа назарияси ва фортепиано дарсларини яхши ўзлаштирмаганликлари натижасида олий таълим тизимида ўқишни давом эттириш жараёнида айрим қийинчиликларга дуч келмоқдалар. Юқорида айтиб ўтилган ўқув юртларида барча миллий чолғулар бўйича дарсликлар, ўқув қўлланмалар мавжуд бўлсада, баъзи етарли даражада билим ва кўникмаларга эга бўлмаган ўқувчилар, яъни нотадан ўқиш малакалари паст даражада бўлгани сабабли мусиқа асарлари ва мусиқий–назарий фанларни ўзлаштиришда қийинчиликка дуч келмоқдалар.

Бунинг сабаби, асосан мусиқа ва санъат мактабларида сольфеджио, мусиқа назарияси ва фортепиано дарсларига ўқувчиларнинг муносабати талаб

даражасида эмас. Натижада, ўқувчиларнинг билим-савияси пасайиб бораётганлигини кўришимиз мумкин. Бу ҳолат таълим жараёнидаги муҳим масалалардан бўлиб, ота-оналар ҳам масъулиятни хис этишлари ва ўқитувчилар билан мунтазам алоқада бўлиб, фарзандларини назорат қилишлари керак бўлади.

Таълим муассасалари ўқитувчилари ота-оналар билан уларнинг фарзандларининг муносабатлари хусусида доимо боғланиб, ўқувчиларнинг ўзлаштиришлари юзасидан хабардор қилиб туришлари лозим бўлади.

Ўқитувчи дастлабки машғулотлардан бошлаб, аввалам бор ўқувчини умумий дунёқараши, билим савияси, қобилияти, қизиқиши каби хусусиятларни қай даражада эканликларини аниқлаши ва шу асосда барча муסיқа таълими бўйича маълумотлар билан ўқувчиларни таништиришлари лозим бўлади.

Биринчи галда муסיқа ижрочиси учун лозим бўладиган билимларни эгаллаш, яъни нота матнини тўғри ўқишни йўлга қўйиши ва бунга алоҳида эътибор қаратиши хусусида тушунтириш ишлари олиб борилади. Бундан ташқари, ўқувчи ўзи ўрганаётган чолғуси тарихи ҳақида билиши, чолғуни тузилиши, диапазони ва ижро этиш пайтидаги таянч нуқталари ва чолғу билан боғлиқ бошқа билимлар хусусида маълумотларга эга бўлишлари лозим. Ўқувчиларни нота саноғи, ритм, штрих, темп, динамика, позиция ва аппликатура қоидаларини пухта ўзлаштириб, уларни амалда қўллай олиш тажрибаларини эгаллашга жалб этиш лозим бўлади.

Шунингдек, ўқитувчи ўқувчиларнинг ёши, маҳорати, ижро имкониятлари, ўзлаштириши, дунёқараши ва психологиясидан келиб чиққан ҳолда ўзига мос ва уни камчиликларини тўлдирадиган, ижро маҳоратини ривожлантирадиган асарлар танлаши лозим. Бунинг учун ҳар бир ўқитувчидан ўз навбатида тўғри муносабат, маҳорат, услубий ёндошган ҳолда эътибор қаратиш талаб этилади. Албатта, бу ўз ўрнида ўқитувчидан касбига нисбатан фидоийликни талаб қилади.

Қайд этиш лозимки, афсуски чолғу ижрочилигида айрим камчиликлар тобора кўпроқ кузатилмоқда. Хусусан, аксарият ижрочилар нота матнини нотўғри ва ноаниқ ўзлаштирадилар ва шу ҳолатда концерт ва хаттоки танловларда ҳам намойиш этадилар. Бунда албатта асарнинг мазмуни композитор ўйи ва фикри асосида бўлмай, маносиз матнга айланади, яъни мазмуни тўла тўқис бузилади. Бу муаммо нафақат миллий куйларимизни, балки, Европа, қардош халқлар ҳамда ўзбек композитор ва бастакорлари асарларини ижро этишда ҳам учрамоқда. Бу муаммоларни ҳал этишда куйидагиларга эътибор қаратиш талаб этилади.

**Биринчидан**, мутахассисларнинг малакасини ошириш ишларини йўлга қўйиш, уларни ўз касбиларини пухта билишлари ва ўқитувчилик маҳоратини мунтазам ошириб боришлари муҳимдир. Кадрлар етишмаган баъзи худудларда, вилоятларда йўл қўйилаётган хатоликлар, яъни имкониятдан келиб чиқиб номутахассисларни ишга жалб қилиш ишлари мақсадга мувофик эмас.

Олий таълим муассасасини битирган ёш мутахассислар йўлланма асосида ўз вилоятларидаги ихтисослаштирилган мусиқа мактаблари ва бошқа мусиқа таълим муассасаларига борганларида аксарият ҳолларда иш билан таъминланмай қоладилар. Аммо ўша таълим муассасаларида ўрта маълумотли, тўлиқ, олий маълумотга эга бўлмаган ўқитувчилар тахсил берадилар. Афсуски, таълим муассасаларида дарс бераётган баъзи Педагогика университетининг мусиқа факультетини битирувчиларининг ижрочилик ва педагогик маҳоратлари ҳам талаб даражасида эмаслиги кишини ташвишга солади.

Консерватория, мусиқа соҳасида эришган юқори даражадаги профессионал олий таълим муассасаси ҳисобланади. Бу олий таълим маскани мусиқа таълимининг барча йўналишлари бўйича юқори малакали мутахассислар: концерт ижрочилари, бастакорлар, мусиқашунослар, мусиқий-назарий фанлар бўйича ўқитувчиларни тайёрлаб беради.

“Халқ чолғуларида ижрочилик” кафедраси най, қўшна, баян, аккордеон, чанг, прима рубоб, кашқар рубоб, афғон рубоб, дутор, дутор бас, доира, ғижжак, , ғижжак альт, ғижжак қобуз бас, ғижжак қобуз контрабас, каби чолғулар бўйича профессионал ижрочи мутахассисларни тайёрлайди.

Демак, малакали мутахассисларни тайёрлаш учун консерваторияда тахсил олганларни мукамал билим савиясидан фойдаланган ҳолда шаҳар ва вилоятларда иш билан таъминлаш соҳани ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. Бу эса келгусида етук созанда, хонанда ва мусиқачиларни етишиб чиқиши ҳамда ўзбек мусиқа санъатини дунё сахналарида янграши ва уни кенг тарғиб қилишда муҳим рол ўйнайди.

**Иккинчидан**, Аксарият ҳолларда мутахассис-ўқитувчиларнинг ҳам ўз касбига масъулиятсизлик ва эътиборсизлик билан қараши, ва билим савияларини етарли эмасликларини гувоҳи бўламиз. Бу ўз ўрнида ўқувчи-талабаларга ҳам албатта салбий таъсир кўрсатади. Зеро, ўқувчи устозидан нафақат таълим олади, унга тақлид қилади ва ундан ҳаётий сабоқ олади. Бунинг учун ўқитувчи биринчи галда ҳулқ-атвори билан намуна бўлиши, ўз фанини пухта билиши, қолаверса, билими ҳозирги замон талабларига жавоб берадиган даражада бўлиши керак.

Бу борада муассаса маъмурияти ишни пухта йўлга қўйиши, таълим сифатини катъий назоратга олиши, ўз кадрларини доимо малакаларини оширишларини йўлга қўйишлари ва намунали ўқитувчи сифатида ўзларини намоён этишлари учун масъулиятли бўлишлари талаб этилади.

**Учинчидан**, Кейинги пайтларда баъзи нашр этилаётган адабиётлар-ўқув қўлланма ва дарсликлар талаб даражасида эмасликларини гувоҳи бўлмоқдамиз. Хусусан, уларнинг нота матнларида хато ва камчиликларни кузатишимиз мумкин. Бу асарлар хаттоки танловларда ҳам ижро этилмоқда. Ушбу ноаниқликлар туфайли ижрочилар томонидан асарларни нотўғри ўзлаштиришлари кузатилмоқда ва бу ҳолат танлов натижаларини муҳокамасида фикрларнинг айрим тавофутлари қайд этилмоқда.

Ўқув қўлланмаларни тайёрлашда муаллиф томонидан яратилаётган адабиётни ҳар томонлама талабга жавоб берадиган даражада таҳлил қилиши, ёзма ва нота матнларини тушунарли, сифатли, мазмунли ва тўғри ёзилишига эришиши, таҳрирдан ва эксперт назоратидан ўтгандан сўнг нашрдан олдин шахсан ўзи текшириб кўриши ва талаб даражасида бўлганлигига ишонч ҳосил қилгандан сўнг нашрга тақдим этиши лозим.

Адабиётни таҳрир гуруҳи нафақат қўлланма матнларидаги жусъий камчиликлар, балки нота матнларига ҳам аҳамият берса мақсадга мувофиқ бўлади. Алоҳида қайд этиш лозимки, нашриётда ҳам махсус муסיқа саводига эга бўлган мутахассислар бўлиши адабиётни янада сифатли бўлишини таъминлайди. Бу ўқув қўлланмалар муҳим манба сифатида ўқувчи-талабаларнинг тўғри ривожланишида хизмат қилади. Шу боис улар учун яратилаётган адабиётлар камчиликларсиз ҳамда тушунарли бўлиши лозим. Ўқувчи-талабалар дарслик ва ўқув қўлланмаларни яхши ва пухта ўзлаштиришлари учун эса аудио ва видео форматда ёзиб олинган асарлардан QR-кодлар асосида фойдаланишни таъминлаш мақсадга мувофиқ бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.Одилов. “Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи” “Ўқитувчи” Т.,1996 й.
2. О.Ф.Назаров. “Халқ чолғуларида ижрочилик” “Муסיқа” нашриёти Т., 2018 й.
3. А.Фитрат. “Ўзбек классик муסיқаси ва унинг тарихи”. Тошкент. Фан. 1993.
4. Р.Косимов. “Анъанавий рубоб ижрочилиги”. Тошкент - 1999 й.



## YOSHLAR TARBIYASIDA MUSIQANING O'RNI

N.Yu.A'zamjonova, M.B.Abdullayeva  
Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi  
"Musiqqa-nazariyasi bo'limi o'qituvchilari"

**Annotatsiya:** mazkur maqolada o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida, uni shaxs sifatida barkamol bo'lib yetishishida musiqaning roli va ahamiyati, qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha ahamiyati xususida taxliliy ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Inson, shaxs, tarbiya, ta'lim, musiqa, dars, mashg'ulot, san'at, pedagogika.

Jamiyatimiz ma'naviy hayotini yuksaltirish bevosita yoshlarni barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazish masalasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchi qarshisida yangi, jozibali o'zga bir dunyo paydo bo'ladi. Bola maktabda mo'jizakor olam yangiliklari bilan tanishadi, hayot haqidagi his-tuyg'ularini boyitadi, iroda va xarakterini tarbiyalaydi, o'rtoqlari, katta yoshdagilar bilan muloqotda bo'lishga o'rganadi. O'qituvchi endigina qutlug' ostonaga qadam qo'ygan murg'ak bolaga razm solar ekan, unga alohida e'tibor, mehr, qalbiga yo'l topa bilishi lozimligini tushunib yetadi va kasbiy faoliyati davomida o'quvchilarning aqliy qobiliyatini, irodasini mustahkamlab, xarakterini tarkib toptira boradi. Yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bolalar va san'at maktablari, kollej-litseylar, oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Musiqa – inson ma'naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg'usiga ta'sir etish bilan kishini ma'naviy jixatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa san'ati insonlarga va, ayniqsa, yoshlarga ko'tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo'naltirishi bilan ahamiyatlidir.

Shaxsni shakllantirishda avvalom bor, o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyalash jarayonida musiqaning o'rnini aniqlashdan iboratdir. Musiqa o'quvchi-yoshning tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Musiqa asosida ularning aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir etish imkoniyatlari ko'proq. Bejizga, musiqa darslari eng avvalo tarbiya darsi ham deyilmaydi.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folpklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va

usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrlan an’analarimizga bo‘lgan ehtibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo‘nalish kasb etdi.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyluklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o‘tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o‘zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma’naviyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an’anaviy qo‘shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy musiqa va qo‘shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo‘qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo‘lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo‘lib qolaveradi

Mustaqil taraqqiyot yillarida to‘plangan tajriba, dunyoqarash jamoatchiligi o‘zbek modeli deya e’tirof etgan o‘zimizga mos taraqqiyot yo‘li kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o‘zgarish va yangiliklar xalqimiz qalbi ongi va g‘ururiga ulkan ta’sir ko‘rsatmoqda. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino o‘zining barkamol shaxsni tarbiyalash g‘oyasida musiqani asosiy vosita sifatida ta’riflaydi. Tarixdan ma’lum, milliy a’naviyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan musiqa san’ati, musiqa madaniyati, an’anaviy xonandalik asarlari, maqom ijrochiligi ham isha xalqimizning kundalik hayotida ma’naviy ozuqa sifatida e’tirof etib kelingan. Xalq og‘ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo‘shiq va musiqa ularga hamroh bo‘lgan. Zero, bugungi globallashuv kabi bir davrda ulkan ma’naviyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an’anaviy qo‘shiqlarimizga murojaat qilish, eng asosiysi o‘zbek xalq musiqa tarixi asosida shaxsni barkamol qilib tarbiyalashda foydalani tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim

ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita

Mamlakatimiz uchun ham ta'lim tizimini isloh qilish, bilimli va aql-zakovatli yetuk avlodni tayyorlash – barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan musiqa ta'limiga alohida e'tibor qaratilayotganligi barchamizga ma'lum, so'nggi yillarda yuzlab yangi san'at va madaniyat maktablari, litsey va kollejlari foydalanishga topshirilmoqda, ular zamonaviy uskunalar va zamonaviy talablar darajasida axborot texnologiyalari bilan ta'minlanmoqda. Ma'lumki, vatanparvarlik tuyg'usi shaxsda yoshlik yillaridan boshlanadi. Yoshlarda bu tuyg'uni shakllantirish, boyitish, shuningdek, Vatan ravnaqi, xalq manfaati yo'lida sidqidildan mehnat qilish ko'nikmalarini hosil qilish o'ta murakkab pedagogik jarayon. Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb ijtimoiy pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Prezident Sh.Mirziyoev "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish halqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusida davlatimiz ziyolilari bilan uchrashuvida "madaniyatimiz va san'atimizni rivojlanish hamda bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta'sirini xolisona va tanqidiy baholab, o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish masalasini ko'ndalan qo'yidilar. Ijodiy uyushmalar, Madaniyat vazirligi hamda uning tarkibidagi birlashma va tashkilotlar faoliyatini chuqur tahlil etib, ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o'rni va vazifasini oshirish deb ta'kidlab o'tidilar. Mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajriba, dunyoqarash jamoatchiligi o'zbek modeli deya e'tirof etgan o'zimizga mos taraqqiyot yo'li kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangiliklar xalqimiz qalbi ongi va g'ururiga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino o'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vosita sifatida ta'riflaydi. Tarixdan ma'lum, milliy ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqa san'ati, musiqa madaniyati, an'anaviy xonandalik asarlari, maqom ijrochiligi hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi globallashuv kabi bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga

murojaat qilish, eng asosiysi o'zbek xalq musiqa tarixi asosida shaxsni barkamol qilib tarbiyalashda foydalani tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi. "Musika – millat ruhining tili, musiqa – millat his-tuyg'ularining tarjimonidir. Shuning uchun faqat estetik tarbiyada emas, axloqiy, ma'naviy, ruhiy, hattoki, diniy-ilohiy tarbiyada musiqaning xizmatlari beqiyosdir" deb aytadi filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining adabiy suhbatlaridan birida va shu o'rinda Ibn Xaldunning ushbu fikrini eslatib o'tadi: "Musika bir san'at sifatida faqat ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksalgan muhitlarda rivoj topadi. Iqtisodiy farovonlikka erishgan jamiyatlarga musiqa kuchli ehtiyoj sezadi Musika (yunon tilida mousiche - muzalar san'ati) - inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musika insonning turli kayfiyatlari (masalan ko'tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatleri (kat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va b.)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy madaniyatimizning xalq ma'naviy hayotidagi o'rni beqiyosdir. Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o'zining ma'naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini bigalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: O'zbekiston. 2017.
3. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar. –T.: O'zbekiston, 1996-2016.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma'naviyat, 2016,
5. Rajabov I. Maqom asoslari. (o'quv qo'llanma).–T.: 1992.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovation texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: —Iste'dodll jamg'armasi, 2008. – 180 b

## ЧОЛГУ ИЖРОЧИЛИК САНЪАТИДА “СУҒДИЁНА” КАМЕР ОРКЕСТРИНИНГ ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАРИ.

**Мухаммадиев Собиржон Гуламович**

Ўзбекистон Давлат консерваторияси хузуридаги Б.Зокиров номидаги Миллий эстрада санъати институти Эстрада чолгу ижрочилиги кафедраси катта ўқитувчиси.  
Тел: +998970341878  
E- mail: [sobiruz78@gmail.com](mailto:sobiruz78@gmail.com)

Ушбу мақолада Сўғдиёна миллий чолғулар камер оркестрининг халқаро тажрибалари хусусида сўз боради. Унда жамоанинг жаҳон сахналарида ўзбек миллий мусиқа ижрочилиқ санъатини кенг миқёсда тарғибот қилиниши манбалар асосида атрафлича ёритилган.

**Калит сўзлар:** Сўғдиёна, миллий чолғулар, чолғу ижрочилиги, жамоа ижрочилиги, дирижёр, созанда, композитор, ғарб мусиқаси, жаҳон мусиқаси.

В данной статье рассказывается о международном опыте национального камерного оркестра Согдиана. В ней на основе источников подробно рассказывается о широкомасштабном продвижение коллективом узбекского национального музыкального исполнительского искусство на мировой арене.

**Ключевые слова:** Согдиана, национальные инструменты, коллективное исполнительство, дирижёр, музыкант, композитор, западная музыка, мировая музыка.

This article talks about the international experiences of the National Chamber Orchestra Sogdiana. In it, the team's wide-scale promotion of Uzbek national music performance art on the world stage is detailed based on sources.



**Key words:** Sogdiana, national instruments, instrumental performance, team performance, conductor, musician, composer, western music, world music.

Мустақилликка эришгандан сўнг Ўзбекистон илм-фан ва техника, саноат ва қишлоқ хўжалиги, санъат ва адабиёт, ҳамда спорт каби ҳаётнинг барча соҳалари бўйича дунё халқлари тажрибалари билан ўртоқлашиш, улар билан ҳамкорлик қилиш имкониятига эга бўлди.

Барча соҳаларда бўлгани каби санъат, хусусан музика ижрочилиги йўналиши ҳам бундан мустасно эмас эди албатта. Бугун Ўзбекистоннинг машҳур созанда ва хонандалари дунёнинг кўплаб давлатлари сахналарида ўз санъатларини намойиш қилиб келмоқдалар. Ўзаро ижодий ҳамкорлик, тажрибалар билан алмашиш, фикрлар билан ўртоқлашиш, ҳар қандай соҳа тараққиётига ижобий таъсир қилиши сир эмас.

Бундай муносабатлар “Сўғдиёна” ўзбек халқ чолғулари камер оркестрининг ижодий фаолиятида яққол кўзга ташланади. ”Музикаий ифоданинг янги шакл ва имкониятларини излаш, дастурлар тузишга ижодий ёндошиш, ижрода анъана ва замонавийликни мужассамлаштириш – барчаси ушбу жамоада жамланган”.<sup>6</sup> (таржима муаллифики) Балки айнан шу хусусиятлар кўплаб хорижий санъаткорлар, ижрочи жамоаларнинг диққатини тортиб, “Сўғдиёна” жамоасини ижодий ҳамкорлик қилишга таклиф этишаётгандир. “Сўғдиёна” жамоаси халқаро тажрибалари географияси Япониядан то АҚШ гача бўлган масофадаги мамлакатларни ўз ичига олади.

“Охирги ўн йилликларда ўзбек халқ чолғулари оркестрларининг Ғарб ва Шарқ мамлакатларининг музикаий жамоалари билан ижодий ҳамкорликлари фаоллашди. Бу жараён нафақат дўстлик концертларида кўзга ташланади, балки турли ижрочилик ва йўналишларга эга бўлган жамоаларнинг сахнадаги чиқишлари орқали амалга ошириладиган ўзаро ижодий тажрибаларда намоён бўлади. Тингловчилар кўз ўнгида Ғарб ва

---

<sup>6</sup> Э.У.Мамаджанова.”Международные горизонты камерного оркестра национальных инструментов “Согдиана”, “Согдиана: измерения мастерство”, Т., 2013.



Шарқ маданиятининг янги синтези юзага келган жонли мусиқий мулоқот содир бўлади”.<sup>7</sup>(таржима муаллифники)

Дарҳақиқат, жамоанинг кўплаб хорижий ижодкорлар билан ўтказган концертлардан олинган таъсуротлар бунинг яққол исботидир. 1997 йил VII халқаро араб мусиқаси фестивалида Қохира опера театри Кичик залида бўлиб ўтган “Суғдиёна” камер оркестри концертидан сўнг Қохира мусиқа Академияси Ректори Файзи Шомий: “Ажойиб концерт. Оркестрнинг ижро дастури турли миллат тингловчиларига мўлжалланган. Улар чалаётган мусиқа таржимасиз тушиниладиган тилга айланиб юракдан юракка ўтади” дея эътироф этган.

Ушбу фестивалга тайёргарлик мобайнида янги дастурлар, асарлар излаб топиш, уларни оркестрга мослаштириш ва нихоят ижро этиш жараёнида янги ижро услублари, араб мусиқасига хос бўлган штрихлар, ижро йўналишларини ўзлаштириш билан бирга оркестр янги дастурлар билан бойитилди.

Шундай халқаро тажрибалардан яна бири Тошкентдаги Буюк Британия кенгаши томонидан таклиф қилинган шотландиялик машхур фольк-рок гуруҳи “IRON HORSE” (“Айрон Хорс”) ва “Суғдиёна” жамоасининг концерти 2002 йилда амалга оширилди.

“Тингловчилар диққатига Келт миллий мусиқа фольклори асосида тайёрланган мусиқий композициялар “Суғдиёна” ижроси талқинида янги қирралари билан очилиб бойитилди”.<sup>8</sup>

Ушбу концертда Шотланд мусиқаси жозибаси ва ўзбек мусиқаси миллий таровати ҳамоҳанг жаранг сочди. Натижада ажойиб мусиқалардан тузилган аудиоальбом ёзиб олинди. Бу концертда ижро этилган Ф.Зокировнинг “Мажнунтол”, хонанда С.Назархон ижро этган “Улуғимсан ватаним”, А.Мансуровнинг “Янгра доира”, ўзбек халқ кўшиғи “Қилпиллама” каби асарлар “IRON HORSE” концерт репертуаридан жой олган бўлса, шотланд мусиқаларидан “Skotish melody”, ”Lullaby”, “Nothing

<sup>7</sup> Ф.Р.Абдурахимова “Роль культуры национального инструментализма в развитии музыкальной исполнительской среды Узбекистана”. “Суғдиёна: ижод тилсими” Т.,2013.

<sup>8</sup> Г.Турсунова. “Ижодий изланишлар самараси” “Суғдиёна” ижод тилсими”. Т.,2013.

kross rising” куйлари “Суғдиёна” жамоасининг мунтазам ижро этадиган асарларига айланди.

1994 йилда Россияга ижодий сафардан бошланган халқаро тажрибалар Қозоғистон (1995,2008,2010), Германия (1995,1998,1999), Испания (1996), Жанубий Корея (1997,2008), Миср Араб Республикаси (1997-1998), Франция (1997), АҚШ (2001), Ҳиндистон (2008) каби хорижий мамлакатларда ва Ўзбекистонда деярли ҳар йили турли давлатлардан келган муסיқачилар ҳамкорлигида ўтказиб келинмоқда.

Шу ўринда сўнги йилларда Тошкент ва Самарқанд шаҳарларида ўтказилган учрашувлар, маҳорат дарслари, фестивал ва танловлар ҳам бевосита “Суғдиёна” жамоаси фаолияти билан боғлиқлигини таъкидлаш жоиз. 2014 йил октябр ойида Тошкентда ўтказилган “Она юрт оҳанглари” деб номланган I халқаро халқ чолғулари танлови доирасидаги учрашувлар, концертлар ҳам хорижлик ҳамкасбларимизда катта таъсурот қолдирди.


“Суғдиёна” жамоасининг халқаро тажрибалари, умуман унинг ижодий фаолияти Республикамиз ва хорижда халқ чолғуларимиз тарғиботиға ва ривожланиши, хусусан халқ чолғу оркестрлари фаолиятиға ижобий таъсир кўрсатмоқда десак муболаға бўлмайдди.

Оркестр бугун ҳам қизгин изланишда давом этмоқда. Жамоаға яна янги зафарлар тилаб, изланиш ва ижод самараси ўлароқ, миллий санъатимизнинг ёрқин ҳодисасиға айланишини тилаб қоламан.

## ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY YURISHLARI VA AN'ANASINING DAVOMCHILARI

**Said Bolta-Zoda SAIDIY, NavDPI, s.f.n, professor**

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336 yil 9 aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muxammad Tapag'ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamo-yu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan. Sohibqironning nevaralaridan biri Zaxiriddin Muhammad Boburdir.



1526 – yilda shijoatli xukmdor sifatida Bobur 100 - ming kishilik otliq va piyoda askarlar, 6 – ming jangari fillar, fillar ustidagi qallabanddan esa 24 – mingdan ortiq kamonchilardan tashqari fillarning bo'yniga va orqa qismiga o'rinishgan 12 – mingdan ortiq surnavoz va burg'uchilar, nog'orachilaru - tabbolchi ijrochilarining fillar qulog'iga qarab urg'ochisi chaqirganidek na'ra tortganlar, ularga qarab butun fillar javob qaytarganlar.

Natijada savol – javob tariqasida aynan “trevoga”- ga o'xshash vahimali intonatsiya yuzaga kelib dushmanni dovdiratib, hangu- mang qilib qo'ygan va shu usulda titrayotgan dushman ustiga jangga kirgan. Ayrim dushman qo'shini qo'rquvdan jangsiz taslim bo'lishgan. Hindiston hukmdori Ibrohim Ludiya qarshi 10-12 ming otliq askari bilan jangga kirib, uni panipatda yengadi. Bobur hujumni davom ettirib, Dehli va Agrani ham qo'lga kiritadi.

Shunday qilib BOBURIYLAR saltanati yuzaga keladi. Sohibqironning janglarida esa sur va burg'u ijrochilari pastdan va balanddan fillar bo'yniga mingan holda qulog'iga qarab damba- dam na'ra tortganliklari haqida manbalar mavjud.

Ushbu an'ana XVI-XVII asrlarda Buxoro amirlari va Xiva hamda Qo'qon xonliklari tomonidan davom ettirilgan bo'lib, nog'ora cholg'usi qimmatbaho sovg'a sifatida turli davlatlar rahbarlariga taqdim qilingan.



Bu haqda musiqashunos T.Vizgo «Buxoro Amirlari va Xorazm xonlari» rus podsholariga matolar, tillo piyolalar qatorida musiqiy cholg'ulardan Tulumbas [nog'ora]-lar sovg'a qilganliklari haqida ma'lumot beradi.

Xususan, 1585 yil Buxoro elchisi tomonidan rus podshosi Fedor Ivanovichga Buxoro amiri Abdulloxon tomonidan qashonida turli maysarang va sof tillo naqshlar yurgizilgan ikkita misli «tulum bas» sovg'a etilgan, Xiva elchisining 1885 yilgi xat xabarlarida, Azimxon tomonidan tulumbas keltirilgani; Balxan xoni Nodir Muhammad podsho Mixail Fedorovichga 17- ta tulum bas tillo bilan yuborganini, Buxoro xoni Bahodir Muzaffarxon esa Fedor Alekseevichga tillo suvi bilan yurgizilgan 9- ta katta tulumbas berilgani aytilgan. Temuriylar va keyingi ikki yuz yillik davrda yaratilgan miniaturalarda cholg'u ansambllarining quyidagi ikki turi tasvirlangan: a) doyra, nay hamda chertma torli cholg'ulardan iborat ansambl, b) puflama [karnay, surnay, bo'lamon] va urma [doyra, nog'ora] cholg'ularidan iborat harbiy ansambllar. Mazkur ikki tur cholg'u ansambli haqida Darvesh Ali Changiy ham o'z risolasida ma'lumot beradi<sup>1</sup>.Ulug'bek davrida

<sup>1</sup> Ансамблининг иккинчи кўриниши кўп ҳолларда ҳарбий оркестр сифатида намоён бўлган. Шу тартибдаги урма ва пуфлама чолгуларнинг турли гуруҳлари Марказий Осиёнинг барча давлатларида, айниқса, Ўзбекистонда мавжуд бўлганлигини қайд этиш лозим.

Buxoroning mumtoz musiqasi yanada rivojlandi. Shayboniylar davrining buyuk sozanda va musiqa nazariyotchilaridan Mavlono Najmiddin Kavkabiy-Buxoriy [XVI asr] va Darvesh Ali Changiy [XVI-XVII asrlar] o'z tadqiqotlarida mazkur cholg'u tizimiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Hujumga saflanish, o'tlanish va tayyor bo'lish jarayoni Yaponiya, Xitoy, Eron, Afg'oniston va ba'zi Ovroqo mamlakatlarida kuzatilganidek, Buxoroda ham faqat urma zarbli cholg'ular, [chindoul, al-tabr, dohul, safoil, misli mudovara tarelka]da bajarib kelingan.

*\* Mirzo Bobur tomonidan Xindistondan Buxoro Amiriga to'xfa etilgan 2000 (ikki mingta) fillardan so'ngi urg'ochilari. Buxoro amirligining oxirgi jangovar fillari. ARQ- turizm. Venger sayyohlardan olindi. Buxoro- 1920 yil. Ma'lumotlarga qaraganda ushbu fillar chor Rossiyasi tomonidan qo'lga kiritilib, Buxoro amirligining temir yo'li orqali vagonlarga chiqarib Moskvaga olib ketilgan.*

Armenin Vamberi ma'lumotiga ko'ra, to'rtinchi va beshinchi usulda og'ir tavsifli zarb usullar turi joylashgan bo'lib, ular hatto askarlarni vahimaga solishi bilan bir qatorda, dushmanlarning ham o'zlari va otlariga vahimali ta'sir ko'rsatishgan .

Bobur 1530 yil 26 dekabrda Agrada vafot etadi. Uning jasadi Jamna daryosining chap sohilidagi Nurafshon bog'ining markaziy qismiga dafn etiladi. 1533 yilda esa hoki vasiyatiga muvofiq Qobulga, «Bog'i Bobur» ga ko'chiriladi.

*«Bobur fe'li- sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevisiga arzigulikdir».*  
*Eduard Xolden.*

XV- asrning o'rtalariga kelib Temuriylar orasida xukmronlik uchun o'zaro nizolar, urushlar kuchaya bordi, bu esa yagona davlatning "kuchsizlanishi va asta-sekin uluslarga bo'linib, ularning mustaqillasha borishini kuchaytirdi. Shimoldan bosib kelgan Muxammad Shayboniyxon boshchiligida qo'shinlar Movarounnaxr va Xurosondagi Temuriylarga zarba berib, ular hokimligini zavoliga sabab bo'ldi.



Shayboniyxon 1500 yilda Samarqand, 1505 yilda Urganch, 1507 yilda Hirotni bosib oldi. Shu bilan Markaziy Osiyoda Temuriylar hukmronligi tugadi. Temuriylardan Bobur Xurosondan ketishga majbur bo'lib, 1525 yilda Hindiston tuprog'iga kirib bordi va uni o'ziga qaratdi hamda Hindistonda 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar saltanati imperiyasiga asos soldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Амир Темур ўғитлари.- Т.: Наврўз, 1992.– 104 б.
- 2.Амир Темур жаҳон тарихида. Ҳ.Кароматов раҳбарлигида қайта ишланган иккинчи нашри.- Т.: Шарқ, 2001.– 295 б.
- 3.Буниятов М. Государство Хорезмшахов Ануштегини-тов.- М.: Гослитиздат , 1983.– 144 с.
- 4.Олимхон А.С. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи.-Т.: Фан.- 1991.- 44 б.
- 5.Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат.- Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996.– 88 б.
- 6.Маҳкам Маҳмуд. Мироншоҳ саройида мусиқа базми // Ж. Гулистон.- 1999.- №5.



## SHARQ MUSIQASHUNOS OLIMLARINING CHOLG'U MUSIQASIGA OID QARASHLARI

**Nosirov Dilmurod Tursinovich**

Qo'qon DPI musiqiy ta'lim kafedrası dotsenti

Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari cholg'u ijrochiligi amaliyotida vujudga kelgan cholg'ularning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbati, sozgarlik mezonlari, cholg'ular tayyorlashda ishlatiladigan daraxtlar va materiallar haqida malumotlar keltirilgan.

Ularda torli cholg'ulardan: Borbad, Ud, Rud, Qo'biz, G'ijjak, Navha, Nuzxa, Qonun, Chang, Rubob, Tanbur, Dutor;

Damli cholg'ulardan: Ruhafzo, Shammoma, Organun, Sibizg'i, Nayi anbon, Chag'ona, Bulamon, Surnay, Nay, Qoshnay, Karnay;

Urma zarbli cholg'ulardan: Daf, Doira, Nog'ora, Safoil kabilar to'g'risida turli darajadagi ma'lumotlar keltirilgan.

Al Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida cholg'ular va ularda ijrochilik masalalariga katta e'tibor bilan yondoshib, cholg'ularni amaliyotdagi tutgan o'rni, ayrim falsafiy xususiyatlari hamda ma'lum darajada tasnifoti bilan yoritganlar.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida Chang va Qashqar rubobi shakllandi hamda cholg'u ijrochiligidan keng o'rin egalladi. Ud va Qonun cholg'ulari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda Kurd sozi ham o'ziga xos jozibasi bilan cholg'u ijrochiligidan munosib o'ringa oldi.

Musiqiy cholgularning ta'rifi, shakllari, tuzilishlari, tarkibiy jihatlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan o'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyotlar hamda musiqiy risolalarda yoritila boshlandi. Demak, o'rta asrlarga kelib, qadimdan shakllanib, takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z isbotini topgan.

Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Al Xorazmiy, Zaynulobiddin Husayniy, Sayfiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, o'z risolalarida cholg'ular va ularning bir qator sifat va xususiyatlari haqida oz risolalarida mufassal bayon etganlar. O'rta asrda yozilgan musiqiy risolalarda cholg'ularning takomillashishi hamda rivoji yo'lida qilingan o'zgarishlar, yaratilgan yangi cholg'ular va istemoldan chiqqan cholg'ular tasnifotini to'rish mumkin.

XIX asrning II yarmiga kelib o'zbek an'anaviy cholg'ularini o'rganishga alohida ahamiyat berila boshlandi. O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga qiziqish G'arb mamlakatlarida ortib bordi va uni o'rganish maqsadida mutaxassislar kela boshladi. Marko Polo, Vamberi, Ankomin, Leysek, Eyxgorn kabi sayohatchi etnograflar, tarixchilar, kopelmeysterlarning kundaliklarida qayd etilgan ma'lumotlar keyinchalik yirik-yirik maqolalar va kitoblar tarzida nashr etildi.

XX asrga kelib cholg'u ijrochiligi san'atida keng ommalashgan cholg'ularni o'rganish va tadqiq etish ishlariga e'tibor kuchaydi. Bu ishni atoqli jadidchilik harakati namoyandalaridan Abdurauf Fitrat boshlab berdi. Undan so'ng musiqashunos olimlar V. Belyayev, F. Karomatov, T. Vizgo, A. Malkeyevalar bu ishni muvaffaqiyatli davom ettirdilar.

Halq cholg'u asboblari, ma'lumotlarga qaraganda juda qadim zamonlarda, eramizdan avvalgi XIII ming yillikda paydo bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Cholg'ulardan dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan, chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, ovga chiqishlar usul (ritm) tuzilish jihatidan bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli musiqa asboblari paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib, usul (ritm) ni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Keyinroq halq ustalari tomonidan qamish va bambuk poyasidan surnay, hushtak, yana bir oz o'tgach esa nay, naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltor (arfa) yasaldi. O'sha paytdagi nay cholg'u asboblari xozirgi zamon zamonaviy ko'p teshikli naylardan bir oz farq qilgan.

Vaqt o'tib, ushbu cholg'ular takomillashib, ko'p yillik naylar yuzaga keldi, so'ngra torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'la boshladi. Ulardan saroy a'yonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalanilgan.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek halq cholg'u asboblari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoni G'arbiy viloyatlarida Parfiyon(a), Sharqda esa Grek Baqtriya Davlatlari tashkil topdi. Eramizning I asrida O'rta Osiyoning Janubiy qismida qudratli Ko'shon shohligi tashkil topdi. Mahalliy Kushon sulolasi ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasi ularoq shaharlar yuksaldi, madaniyat gullab yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg'ularining yaratilishiga shart-sharoit yuzaga keldi.

Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo halqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'u asboblari ham takomillashdi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspedisiyalar (S. L. Tolstov, V. A. Vyatkin, M. V. Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O'rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg'ularini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay rubobsimon cholg'u, hozirgi doiraga o'xshash do'mbra, nog'ora va shu singari cholg'u asboblari chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproq qal'a, Ayratam kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: Lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud, shemani, (musiqor) chag'ona, chiltor, nay, burg'u, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularda mashq qilishlari tasvirlangan.

Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarda ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'pincha yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.

Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va chindavul kabi urma zarbli musiqa asboblari keng qo'llanilgan.

Feodalizm davrida arab istilosi O'rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazdi. VII-VIII asrlarda arab xalifaligida tirik jonzotni tasvirlashni taqiqlovchi, islom dinini yoyilishi, devoriy sur'atlarni shu jumladan musiqa cholg'ulari tasvirining barham topishiga olib keldi.

IX asrga kelib Buxoro yirik madaniy markazga aylandi va ayni paytda yakka navoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o'z ichiga olgan vokal-cholg'u musiqa turkumlari rivojlandi. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv, maxsus musiqa ustaxonalari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz shogird an'analari qaror topib rivojlandi. Musiqa cholg'u asboblari ham shakllandi. Asboblarning yangi namunalari kashf etildi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari musiqa tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqa cholg'usini jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar. Abu Nasr Muhammad Forobiyning (873-950) "Musiqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqa al-kabir"), Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitob um-shifo") qomusidagi "Musiqa haqida risola", Al Xorazmiyning X asr "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Oliyjanoblik haqida kitob" yoki "Sharafiy kitobi", Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqida risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va halq cholg'u asboblari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Safiuddin Urmaviy istedodli ud cholg'uchisi Urmiya shaxrida tug'ilgan (Ozarbayjonlik) mashhur xonanda, uning eng katta yutug'i "Modius" ladning mukammal yo'nalishlarini ishlab chiqqanligidir. Ibn Zaylning VI asr "Musiqaxaqida to'liq kitobi" va "Kitob ul-kabi fil-musiqiy" uning musiqailmidagi yagonava bebaho kitobdir. U yangi usulni, musiqada lادلarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog'iy XV asr, Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan bo'lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqailmda ohanglar to'plami" ("Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqahaqidagi ta'limotni kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqacholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Al-Husayn XV asr asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan torli musiqasbobidutor haqida ma'lumot bergan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqanazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur (sato) haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi ning musiqasboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan.

Al Forobiy (IX asr) mohir ijrochi sifatida ham tanilgan. U damli cholg'u nay asbobini, torli mizrobli cholg'u tanbur va ud musiqasboblarini juda zo'r mahorat bilan ijro etgan. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqacholg'u asboblarining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u "Jangu jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq va muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan cholg'ular bor", deb yozgan edi. Kitobning ikkinchi qismida halq cholg'ulari lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shoxrux, qonun, dutor va boshqa cholg'ular izchil va batafsil ta'riflanadi. Lyutnya-torli mizrobli cholg'usi o'sha davrda eng keng tarqalgan bo'lib, o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lada) lar joylashgan.

IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u asbobi ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkazorti xalqlari orasida, O'zbekiston va Tojikiston cholg'uchiligida hozirgi kungacha saqlanib kelayapti. (Zamonaviy ud namunalari T.D.K. ning sohaviy-tajribaviy sinovxonasida mavjud)

"Musiqaxaqida katta kitob" da Forobiy yana bir cholg'u asbobi tanburni ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur forscha tan-bur ya'ni (Dilni tirnash) ud cholg'usiga yaqin turadigan cholg'udir deydi. Forobiy shuningdek nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli musiqacholg'ularini ovoz hosil qilish uslubiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi, ya'ni nay quvurida havoning damli harakati orqali, tovush hosil bo'ladi. Ulardan biri oddiy nay, yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi bo'ylanma naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uning Vetnamliklar sao, tojiklar tutek,

tatarlar kaval, qozoqlar sibizg'a, Ozarbayjonliklar nay (juda kam uchraydi), qirg'izlar uo, choor (cho'ponlarning cholg'u asbobi) o'zbeklar nay deydi.

Olim va mashhur cholg'uchi Forobiy surnay musiqa asbobi haqida bir qator ma'lumot beradi. Uning o'rik yoki tut daraxtidan ishlanganligi va o'sha davrda keng tarqalgan musiqa asbobi ekanligi haqida to'xtalib o'tadi.

Forobiy, shuningdek, Dunay, (Mizmar) ni ham alohida tilga oladi. Dunay hozirda qo'shnay yoki turkman cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamishdan yasalgan cholg'u) ga o'xshatadi.

Forobiy o'z risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshash bo'lib, pardalari dutor pardalariga o'xshagan, dastasi ancha uzun bo'lganligini, asosiy qismini yog'och dekali pastki qismi esa charmdan ishlangan, dekali musiqa cholg'usi deb ta'riflaydi. Shuningdek, musiqa asbobi changni ham ta'riflaydi. O'sha vaqtgacha changning 15 ta tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovush qatorga ega deydi. Yana Forobiyning guvohlik berishicha ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan "Cholg'u asboblari haqida kitob" ida olim tanbur, rubob, chang, cholg'u asboblari udda chalayotgan kuyga yoki yakka navoz xonandaga, uyg'un jo'r bo'lish, uchun sozlash usullarini tushuntiradi.

Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi Al-Forobiy musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'u asboblari o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soladi.



## AN'ANAVIY XONANDALIK ASARLARI IJROCHILIGIDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR XUSUSIDA

*Arzimurodova Nigora Samarovna*

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi kunda An'anaviy xonandalik asarlari ijrochiligida ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlar to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, An'anaviy xonandalikning maqsad vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari, ijtimoiy holati haqida ham batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** An'anaviy xonandalik, pedagogika, imkoniyatlar, musiqa ta'limi va san'at, musiqa ijrochisi, metodika va metodologiya, xorijiy tajriba va milliy an'analar.

**Аннотация:** В данной статье представлены мнения о социально-педагогических условиях исполнения традиционных певческих произведений. Кроме того, приводится подробная информация о целях и задачах традиционного пения, педагогических условиях, социальном статусе.

**Ключевые слова:** Традиционное пение, педагогика, возможности, музыкальное образование и искусство, музыкальный исполнитель, методология и методика, зарубежный опыт и национальные традиции.

**Annotation:** In this article, there are opinions about social pedagogical conditions in the performance of traditional singing works. In addition, detailed information about the goals, pedagogic conditions, and social status of traditional singing is provided.

**Key words:** Traditional singing, pedagogy, opportunities, music education and art, music performer, methodology and methodology, foreign experience and national traditions.

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng birinchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi g'oyani yodga olmoq unga ko'ra jamiyatning har bir fuqarosi, mansabi, tutgan o'rni ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar fozil kishi, fozil inson o'z davlatining barcha qonun qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi. Avvalo, bunday fikr yuritishning o'zi bobolarimizning ma'naviy darajasini naqadar yuksak bo'lganligini va albatta bunday fikr



aytish bu borada ko'p asrlik meroslarni o'rganish natijasida vujudga kelishini ta'kidlash joiz.

Demak, bizning barkamol shaxsni tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma'naviy asos bor. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'sib kelayotgan yosh avlodning kelgusida bilimli insonlar bo'lib yetishishi uchun qayg'urib quyidagilarni ta'kidlaydilar - "Men yoshlarimizga, mening bolalarimga qarata, o'rganishdan hech qachon charchamanglar, deb aytmoqchiman. O'rganish, hech qachon ayb sanalmaydi. Nimanidir bilmasang uni o'rganish zarur. Avvalambor, endi hayotga kirib kelayotgan yoshlarga nima lozim? O'rganish, o'rganish va yana bir bor o'rganish kerak. Kasb o'rgangan, ilm olgan kishi, o'zbekona aytganda, hech qachon kam bo'lmaydi". Musiqa tarbiyasi umum tarbiyaning asosiy va murakkab qurollaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni yuksak idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiribgina qolmay balki ma'naviy dunyoqarashlarini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli e'tibor, kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-estetik tarbiyaning muhim vositasidir.

Bobomiz Shayx Sa'diyning shunday so'zlarini keltirishimiz mumkin "Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir". Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotini aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib qoladi. Musiqaning estetik tarbiyadagi roli falsafa, musiqashunoslik va ijrochigagina doir adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, lekin an'anaviy xonandalik san'atining shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi roli haligacha ilmiy yoritilmagan. Buning sababi bizningcha an'anaviy xonandalik san'atining murakkabligi va uning inson ongiga ta'sirining ko'p qirraliligidir. Biz ushbu ishimizda mazkur nuqsonni to'ldirishga, ya'ni an'anaviy xonandalikning tarbiyaviy jihatlarini va uning yangi insonni kamol toptirishdagi rolini va pedagogik shartsharoitlarini yoritishga harakat qilamiz. "An'anaviy xonandalik"ning maqsad va vazifalari. O'zbek musiqa san'atida an'anaviy xonandalik, o'z sohasi va yo'nalishidan kelib chiqib turli sharoitlarga moslashgan holda shakllanib, rivojlanib kelgan. Folklor ayimlari, dostonchilik, marosim ayimlari, zamonaviy akademik (vokal) va estrada xonandaligi, mumtoz xonandalik shular jumlasidandir. Har bir yo'nalish shakl va ijrochilik nuqtai nazaridan o'z uslubi, qonun-qoidalariga egadir. Ular orasida o'zgarmas xususiyatlar doirasida shakllangan va eng mukammal an'analarni o'zida aks ettirgan an'anaviy yo'nalish o'zining barcha xususiyati, salohiyati bilan namuna bo'lib kelmoqda. Mumtoz musiqa xonandaligida,

o'zbek xalqining eng go'zal urfodatlari, milliy ruhiyati bilan bog'liq qadriyatlari yuzaga kelib, xalqning boy ma'naviyati namoyon bo'lgan. Shu bois, xonandalik an'anasida mumtoz ashula ijrochilik yo'nalishlari va uslublari shakllanib borgan. Buni an'anaviy xonandalik san'ati yo'nalishlari sifatida yuritish urfga aylandi. Milliy mumtoz ashulachilik an'analari esa o'zbek an'anaviy xonandalik san'atining asosi bo'lib rivojlandi.

“An'anaviy xonandalik” xonandalik san'atiga xos o'quv malakalarini shakllantirish, ularga xalq qo'shiqlarini yakka holda yoki, jamoa bo'lib kuylay olish va maqom guruhlarini tashkil qila olish psixologiyasi bo'yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qila olish xususiyatlarini singdirishdan iborat. Fanning maqsadidan kelib chiqqan holda, guruhli darslarda bir qator vazifalar amalga oshiriladi.

1. Maqom qo'shiqchisiga va maqomchilar dastasi rahbarligiga qo'yiladigan talabalarni bilish va unga o'rgana borish.

2. Guruh va yakka holda kuylashning tabiati, didaktik tamoyillari va boshqa qonuniyatlarni bilib olish.

3. Xalq qo'shiqlari, bastakorlar tomonidan yaratilgan ashula va qo'shiqlar va shashmaqom namunalari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lish.

4. Jamoada kuylash va jamoa bilan ishlash jarayonida inson organizmida yuz beradigan ruhiy-fiziologik o'zgarishlarni xis qilish va unga ko'nikma hosil qilish.

An'anaviy xonandalik kursi quyidagi vazifalari amalga oshiriladi: An'anaviy va xalq qo'shiqchiligini o'rganish. An'anaviy ijrochilikda xalq qushiqlari 4 turi haqida tushuncha berish. Mehnat qo'shiqlari, mavsum marosim va urf-odat qo'shiqlari, lirik qo'shiqlari, termalar. An'anaviy xonandalik namunalari ijrosi bilan amaliy tanishish:

- Talabalarning o'zbek an'anaviy musiqa madaniyati haqidagi bilim darajasini kengaytirish, repertuarini boyitish, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash;
- Talabalarning milliy an'analarga bo'lgan qiziqishi va xurmatini oshirish;
- O'zbek qo'shiqchiligiga xos, nola, qochirimlarni maromiga yetkazib kuylashga odatlantirish;
- Talabalarni umumiy musiqiy qobiliyatlarini o'stirish;
- Kuylash va ishlash jarayonida inson organizmida ro'y beradigan ruhiy-fiziologik holatlarni his etish va unga ko'nikma hosil qilish;

- Xonandalarga qo‘yiladigan talablarni bilish va unga amal qilish.
- Dars jarayonida talabalarga ta‘lim va tarbiya berish, ularni chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tayyorlash, talabalarni badiiy jihatdan rivojlantirish, ularga an‘anaviy ijrochilik va uning sirlarini o‘rgatish. An‘anaviy xonandalikning maqsadlaridan yana biri Respublikamiz badiiy jamoalariga mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iboratdir. Talabalarga o‘zbek xalq qo‘shiqlari hamda “Shashamaqom” haqida ma‘lumotlar berish bilan birga, yaratilish tarixi, ijro diapazoni, ovozni ishlatish, dinamik belgilar, xonandaning ijro holati, asarlardagi o‘lchovlar, usullar, kuylarning shaklan tuzilishi, ijro texnikasi, o‘rganilayotgan asarlarning mualliflari haqida ma‘lumotlar va zarur ko‘rsatmalar beriladi. Shuningdek, fan o‘zbek xalq qo‘shiqlari haqidagi tushuncha va ko‘nikmalarni hosil qilish hamda o‘rgatishga xizmat qiladi va talabalarda an‘anaviy musiqa muhabbat tuyg‘ularini hamda musiqiy-badiiy didni o‘stiradi. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin bo‘ladiki musiqa san‘ati insonni axloqiy, madaniy-ma‘rifiy tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, hamma davr va jamiyatda musiqa san‘ati va uning taraqqiyotiga katta e‘tibor berib kelingan. O‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati hayoti oliy insoniy faoliyatlari, badiiy ma‘naviyati istiqol va mustaqillik uchun kurashi, orzu umidlari aks etadi. Musiqa ta‘lim tarbiyasining maqsadi yosh avlodni, maktab o‘quvchilarini, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazib tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun o‘quvchilar musiqa san‘atini butun nafosati, go‘zalligi bilan o‘rganishlari, uni badiiy idrok etish, jamoaviy tarzda kuylash, raqs tushish va ijodkorlik malakalarini egallashlarida musiqa madaniyati mashg‘ulotlarida keng foydalanish talab etiladi. Xullas komil insonni tarbiyalashda An‘anaviy xonandalik asarlarining ahamiyati jud kattadir. Bunday ijro asarlaridan samarali foydalanishimiz lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rajabov “Maqomlar” 2006-yil. 12 - bet
2. T.Ismailov; “THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE” "Экономика и социум" №1(80) 2021;
3. T.Ismailov; “CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART” "Экономика и социум" №3(82) 2021;
4. O. Ibrohimov “O‘zbek xalq musiqa ijodi” 1994 y

5. T.Kh.Ismailov; “Musical currents and the formation of Russian classical music” “Вестник магистратуры” 2021. №5 (116);
6. Shakhlo Khakimovna Kharatova “USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS” Science and Education ISSUE 3, March 2022;
7. Mamirov K. Jamoa qo’shiqchiligiva ashulachiligi - Toshkent, ilm-ziyo, 2012.

## DOIRA IJROCHILIGIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARI

*Islomov Dilmurod Muxutovich*

O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasini professori,  
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist

**Annotatsiya:** O‘zbek doyra san’atida ustoz-shogird an’analari o‘ziga xos tarzda shakllangan. Mazkur maqolada o‘zbek doyra ijrochiligida uzoq yillar davomida shakllangan ustoz-shogird an’analari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** ustoz-shogird an’analari, doyra, qo‘sh qars, zarb, usul, doyra ijrochiligi.

**Аннотация:** В искусстве узбекский дойры традиции устаз-шагирд формируется уникальным образом. В этой статье рассматриваются давние традиции педагогической деятельности в искусстве узбекском дойре.

**Ключевые слова:** традиции устаз-шагирд, дойра, куш карс, зарб, ритм, исполнительство дойры.

**Annotation:** In the Uzbek doyra art, the teacher-student tradition in a unique way. Teachers brought up their students as their children. The students also showed high respect for the teachers. This article deals with the long-standing traditions of teacher-student performance in the Uzbek doyra.

**Key words:** teacher-student traditions, ustoz, doyra, qo‘sh qars, zarb, rhythm, doyra performance.

XX asrning 20-yillariga kelib, o‘zbek doyra san’atida yangi davr boshlanib, o‘ziga xos ijrochilik maktabi shakllandi. Bu davrda doyraning yakka ijrochilik yo‘nalishi ommalasha boshlagan edi. Ma’lumki, uning rivojida Yusufjon qiziq

Shakarjonov va Usta Olim Komilovning oʻrni beqiyos. Aynan shu ikki buyuk ustozlar oʻzbek doyra sanʼatiga tamal toshini qoʻydilar.

Xalqimiz Yusufjon qiziq Shakarjonovni askiyachi sifatida yaxshi taniydi. U nafaqat askiyachi, balki mohir va chabdast doyrachi ham boʻlgan. Oʻz davrida uning nomi oʻzga amirlik va xonliklarda mashhur edi.

“Doyra sanʼatida buyuklikka erishgan Oʻzbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilov ham Yusufjon qiziqning sevimli shogirdlaridan boʻlgan edi. Yusufjon qiziq doyra usullarining toʻqson ikki xilini Usta Olimga oʻrgatdi. Rok, duchova, Muhammad Rahimxon usullari hamda oʻn uch xil tanovar usullari shular jumlasidandir”.<sup>9</sup>

Oʻzbek doyra ijrochilik maktabi asoschisi, milliy raqs sanʼatining bilimdoni, shu bilan birgalikda mahoratli pedagog Oʻzbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilov 1875-yili Margʻilon shahrida toʻquvchi-kosib Komil aka oilasida dunyoga keldi.

U chang, dutor, nogʻora, doira cholgʻularini oʻzi yasar edi va ularda ijro qilishni oʻzlashtirgandi. Ammo ular orasida doyraga mehr-muhabbati baland edi. Shu bois boʻlsa kerak doyra chalishga koʻp vaqtini ajratar edi. Oʻsha davrda Margʻilonda oʻz sanʼati bilan nom qozongan Salom xola Usta Olim haqida eshitib, uni izlab topadi va yordam qoʻlini choʻzadi. Bu davr mobaynida Usta Olim Komilov ana shunday shodiyona kunlarda xalq orasida ijro etiluvchi doyra usullarini xotirasiga muhrlab bordi. Keyinchalik oʻn ikki yoshida margʻilonlik mashhur doyrachi Masaid ota Margʻiloniy Usta Olimni shogirdlikka oladi. U 1917-yilga qadar Masaid otadan doyra ijrochilik sinoatlarini chuqur oʻrgandi. Bu davrda toʻy-hashamlar va ommaviy bayramlar, shodiyona kunlarda ijro etiluvchi va xalq orasida ommalashgan doyra usullarini puxta oʻrgandi. Bilim va tajriba jam boʻlib, Usta Olim yetuk sanʼatkor boʻlib yetishdi.

1926-yildan Muhiddin Qori Yoqubov boshchiligidagi etnografik truppada sozanda sifatida faoliyat yurita boshladi. Uning nomi butun respublika boʻylab tanila boshladi.

Shu yillar mobaynida Usta Olim Komilov doyra ijrochiligi va milliy raqslar boʻyicha yangi usullarni ijod qilib, oʻzbek doyra sanʼati va milliy raqs sanʼatiga poydevor yaratdi. Maʼlumotlarga qaraganda, Usta Olim ota ikki yuzdan ortiq

---

<sup>9</sup> Islomov D. “Doyra sanʼati dargʻalari” monografiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019-y. – 150 b.



usullarni yodida saqlagan. Ularning yarmi o'z ijodiga mansub. "Qo'sh qars" doyra usullari buning yorqin misoli sanaladi.

Usta Olim Komilov ijodiy faoliyati davomida bir qancha xorijiy davlatlarda bo'lib, o'zbek doyra san'atini dunyoga tanitdi. Xususan, 1935-yilda Angliya poytaxti London shahrida I Jahon Folklor festivalida o'z san'ati bilan barchani lol qoldirdi. Uning ijrosidan hayratlangan Angliya qirolichasi Mariya Usta Olimning barmoqlaridan gipsga nusxa olib, muzeyga qo'yishni buyuradi. Bu barmoqlar nusxasi hamon muzeyda saqlanadi.

Usta Olim Komilov faoliyati davomida bir qancha o'zbek musiqali drammalardagi raqslarni sahnalashtirishda ham faol xizmat qildi. V.Uspenskiy va G.Mushelning "Farhod va Shirin" hamda R.Glier va Sodiqovning "Gulnora" musiqali dramalari, "Bo'ron", "Buyuk kanal" operalari shular jumlasidandir.<sup>10</sup>

Mana shu sahna asarlaridagi raqslar orkestr jo'rligida emas balki, ikki yoki uch doira jo'rligida ijro etilgan edi.

Ustoz san'atkor XX asrning 30-yillarida xalq orasida ommalashgan doyra usullarini to'plashga e'tibor qaratdi. Ularning ko'p qismi unutila boshlagandi. Usta Olim ularni bolalik chog'larida to'ylardagina eshitgan edi. Unutilayozgan doyra usullarini to'plash, ularni kelajak avlodga yetkazishni maqsad qilgan Usta Olim Komilov o'zining keksa ustozlari Masaid ota hamda Farg'ona vodiysidagi mashhur Yusufjon qiziqqa murojaat qildi. Natijada juda ko'p xalq usullari jamlandi. Bu usullarning har birining o'z nomi bor. Ana shu boy material asosida "Zang", "Gul o'yin", "Sadr" va boshqa ko'plab raqslar dunyoga keldi. "Pilla", "Tantana" kabi raqs asarlarini ham alohida ta'kidlash joiz.

O'zbekiston xalq artisti G'anijon Toshmatov aytgan edilarki, Usta Olim ashulalarning matnini yaxshi bilganlar. Hofizlarga doyrada jo'r bo'lgan paytlarida xonandalar yanglishsa, ularni o'nlab qo'yganlar"<sup>11</sup>.

O'zbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilov 1953-yilning 3-aprelida Toshkentda vafot etdi. Bugungi kunda O'zbekistondagi barcha doyrachilar uni o'zlariga ustoz deb biladilar.

Usta Olim Komilov yaratgan asarlarni kelajak avlodga yetkazishda uning shogirdlarining hissi bor, albatta. Ular ustozning boshlagan ishini munosib davom ettirdilar. Faoliyati davomida minglab shogirdlarga doyra ijrochiligidan saboq bergan To'ychi Inog'omov Usta Olimning yetuk va unga munosib shogirdlardan

<sup>10</sup> Islomov D. "Doyra san'ati darg'alari" monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2019-y. – 150 b.

<sup>11</sup> D.Islomov bilan suhbat jarayoni. Toshkent: 2019-yil.

bo'lib, ustozining so'nggi nafasigacha sodiq shogird bo'lib qoldi. To'ychi Inog'omov faoliyati davomida ustozining nazariy va amaliy ishlarini davom ettirdi. Usta Olim Komilov yaratib ketgan asarlarni og'zaki hamda amaliy shakllarda boyitdi. Ularni to'garakdagi yosh doyrachilar uchun moslashtirib, sodda ko'rinishga keltirdi va ustozning musiqiy merosidan boxabar qildi.

Usta Olim Komilovning suyuqli shogirdlaridan yana biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist G'afur Azimov edi. U ustozidan o'rgangan doyra usullarini o'z ijro yo'lida magnit tasmasiga yozib, ustozning merosini saqlash va o'rganish yo'lida munosib hissa qo'shdi.

Ustozlar asos solgan doyra ijrochilik maktabini keng targ'ib qilib, undagi ustoz-shogird an'alarini munosib davom ettirish, doyra ijrochiligini yanada ommalashtirish, yoshlarni doyra cholg'usiga bo'lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida 1988-yili "O'rta Osiyo doyrachilar uyushmasi" tashkil etildi. 2016-yilda mazkur tashkilot "O'zbekiston doyrachilari jamoat birlashmasi" nomi bilan Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tdi. Hozirda yurtimizning barcha viloyatlarida mazkur birlashmaning hududiy bo'linmalari tashkil etilgan. Ushbu tashkilotni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad doyra cholg'usi bilan professional va havaskorlik darajasida shug'ullanayotgan doyra ijrochilarini, shu sohaga qiziqqan mutaxassislarni birlashtirish, doyra ijrochiligidan saboq berayotgan pedagoglarning ijodiy hamkorligini tashkil etishdir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ustozlar boshlagan xayrli ishlarni davom ettirish, yillar mobaynida doyra ijrochiligida shakllangan o'ziga xos ustoz-shogird an'alarini keyingi avlod vakillariga beqam-u ko'st yetkazish bu yo'nalishdagi asosiy vazifalarimizdan bo'lmog'i lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Islomov D. "Maxsus cholg'u" o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2019-y. – 180 b.
2. Islomov D. "Doyra san'ati darg'alari" monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2019-y. – 150 b.
3. Mahmud L. "Dilmurodning dilkash davralari" – Toshkent: "Istiqlol" nashriyoti, 2000. – 144 b.
4. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami 14-jild. "Mahbub ul-qulub" O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1998-y. – 315 b.

**SOZGARLIK SAN'ATIDA USTA USMON ZUFAROV  
FAOLIYATINING O'RNI****Durdona Xaydaraliyeva**“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrası  
katta o‘qituvchisi

Ma'lumki, o'zbek milliy cholg'u sozlari dunyodagi qadimiy va turi jihatidan rang-barang cholg'ulardan biri hisoblanadi. Bu cholg'ularning kelib chiqishi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni biz dunyoga mashhur bo'lgan allomalarimizning ilmiy risolalaridan bilishimiz mumkin.

O'zbek xalqining sevimli cholg'usi bo'lmish dutor cholg'usi ham qadimiy tarixga ega bo'lib, bu cholg'u haqidagi ilk ma'lumotlar XV asrda yashagan olim al-Husayniyning musiqiy risolalarida keltirilgan. Shuningdek, cholg'uning yaratilishi haqidagi afsonalarni tarixiy adabiyot va risolalarda uchratish mumkin. Misol uchun Yevropadan o'zbek madaniyatini o'rganishga kelgan olimlar xar bir o'zbek xonadonida dutor cholg'usini uchratish mumkin bo'lganligi haqida o'z kundaliklari va ilmiy ishlarida yozib qoldirganlar.

Milliy madaniyat va qadriyatlarimiz nafaqat urf-odatlar, milliy marosimlar balki, milliy sozlarimiz bilan ham belgilanadi. Tanbur, ud, g'ijjak, chang, qonun, nay kabi sozlar qatorida dutor sozi ham alohida o'ringa ega cholg'u hisoblanib, o'zining mungli va mayin ovozi bilan allaqachon xalqimizning sevimli soziga aylanib ulgurgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda dutor cholg'usining ovoz tembri past bo'lganligi uchun asosan xonaki, ayollar cholg'usi hisoblangan. Uzoq yillar ana shu ovoz tembrini ko'tarish, uning ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, cholg'u yasovchi ustalarimiz tomonidan ko'plab tajribalar olib borilgan. Turli ansambllar tashkil etish uchun ham cholg'ular diapazoni keng, tovushi talabga javob beradigan darajada bo'lishi kerak edi.

1927 yili Yunus Rajabiy boshchiligida Toshkent Radio eshittirish komiteti huzurida ashulachilar va sozandalar ansambli tashkil etilganligi ko'pchilikka ma'lum. Ansambli tuzilganidan so'ng ijodiy izlanishlar jarayonida Yunus Rajabiy cholg'ularni takomillashtirish haqida o'ylay boshlaydi. Milliy cholg'ularimizni takomillashtirish, yangi cholg'ular yaratish va tuzilgan ansamblning ijro imkoniyatlarini yanada kengaytirish g'oyalari Yunus Rajabiyni tark etmadi va u usta Usmon Zufarovga o'z

fikrlarini bildiradi. Shu tariqa usta Usmon Zufarov tomonidan yangi cholg'ular, ya'ni katta dutor, katta tanbur va katta g'ijjaklar yaratiladi. Ushbu yaratilgan cholg'ular ansamblning ijro imkoniyatlarining kengayishiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Bilamizki, 30-40 yillarda A.I.Petrosyans boshchiligida bir necha cholg'u ustalari tomonidan o'zbek xalq cholg'ularining ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ularni takomillashtirish ishlari boshlanadi. Ana shunday cholg'u ustalari qatorida usta Usmon Zufarov ham bor edi.

Usta Usmon Zufarov sevimli sozi –dutor cholg'usi ustida ham bir necha tajribalarni olib boradi. Olib borilgan tajribalar nihoyasida dutor cholg'usining oilasi yaratiladi va hozirgi kungacha bu oiladagi barcha cholg'ular havaskor cholg'uchilar, bolalar musiqa maktablari, kollej, litsey o'quvchilari va konservatoriya talabalari tomonidan yakka ijro va xalq cholg'ulari ansambl va orkestrlar tarkibida amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda. Cholg'uning yangi ijro uslublari, yangi shtrixlari paydo bo'ldi. Dutor cholg'usi takomillashtirilmasdan avval faqatgina oddiy usul P-V, teskari zarb, rez kabi shtrixlar ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik pitsikato, tremolo kabi shtrixlar turli ko'rinishlarda ishlatiladigan bo'ldi. O'z-o'zidan ushbu dutorlarning ko'rinishidagi o'zgarishlar natijasida turli ko'rinish va menzuralarga, o'ziga xos tovushga, tembr xususiyatiga va albatta ijro imkoniyatlariga ega bo'lgan dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas, dutor kontrabas kabi cholg'ular yaratildi. Ushbu cholg'ularda an'anaviy dutor cholg'usidagi ipak yoki ichak torlar o'rnini, kapron torlar bilan almashtirildi, ichakdan bog'lama pardalar o'rnini dastaning o'ziga mahkamlangan yog'och pardalar egallab, diatonik tovushqator o'rniga xromatik tovushqatorga ega bo'lgan sozlar paydo bo'ldi. Shu tariqa cholg'uning tovush va ijro imkoniyatida katta o'zgarishlar bo'ldi, ya'ni dutor cholg'usida ham jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari asarlarini ijro etish imkoniyati tug'ildi.

Usta Usmon tomonidan ayniqsa an'anaviy dutorning ko'rinishi, uning bezaklariga ham alohida e'tibor berilgan. Usta Usmon dutor cholg'usining bo'g'iz qismining orqa tomoniga sayrayotgan bulbul tasvirini tushiradi. Usta Usmonga tegishli bo'lgan o'ziga xos ana shu tasvir hozirgi kungacha o'z ko'rinishini o'zgartirmagan holda yashayapti. Bunday tasvirni faqatgina usta Usmon Zufarovning dutorlarida qo'rishimiz mumkin va bu ustaning o'ziga xos imzosidir. Usta Usmon Zufarovning farzandi bo'lmish usta To'xtamurod Zufarov ham otalari izidan borib cholg'u yasash ilmini, uning sir-asrorini, egallagan sozgar ustalardan hisoblanadi. Usta Usmon yaratgan barcha cholg'ular, shuningdek usta To'xtamurod Zufarovning dutorlari O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Milliy cholg'u" IICHEL muzeyida saqlanib kelinmoqda. Usta

Usmon Zufarovning nabirasi usta Anvar Zufarov bobosining an'alarini davom ettirgan holda, dutor cholg'usini yaratib, yosh dutorchi sozandalarni cholg'u bilan ta'minlashga, ushbu tasvirning umrini uzaytirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Hozirda kollej o'quvchilari, konservatoriya talabalari, "Dutorchilar" ansambli sozandalarining qo'lida usta Usmon Zufarov dutorlari bilan bir qatorda, usta Anvar Zufarovning ham dutorlarini qo'rish mumkin. Demak, ustozdan shogirdga, bobodan nabiraga kabi xalqimizning o'lmas an'analari davom etib kelmoqda va bu hali dutor cholg'usini yana ko'p yillar mobaynida sozandalar qo'lida e'zozda bo'lishiga imkoniyat yaratib, uning umrboqiyiligini ta'minlaydi.

## ХАЛҚАРО ЖАЗ ФЕСТИВАЛЬ 2023 ЎЗБЕКИСТОНДА

**Седих Татьяна Томовна,**  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият  
институтини «Муסיкий-назарий фанлар»  
кафедраси доценти

**Аннотация:** Мақолада 2023 йилда Ўзбекистонда ўтказилган Халқаро жазз фестивалининг аҳамияти ва хусусиятлари муҳокама қилинади. Шунингдек, фестивалда қатнашаётган муסיқачилар ва жамоалар ҳақида тегишли маълумотлар берилган.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистон, фестиваль, муסיқа, санъат, бадиҳа (импровизация), жазз, вокал, этно-жазз, ижрочи муסיқачи, ансамбль, чолғу созлари, репертуар, тингловчи.

## МЕЖДУНАРОДНЫЙ ДЖАЗОВЫЙ ФЕСТИВАЛЬ 2023 ГОДА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Седых Татьяна Томовна** доцент кафедры  
«Музыкально-теоретических дисциплин»  
Государственного института искусств и  
культуры Узбекистана



**Аннотация:** В статье рассматривается значение и особенности проведения Международного джазового фестиваля в Узбекистане в 2023 году. О музыкантах и коллективах участвующие на фестивале.

**Ключевые слова:** Узбекистан, фестиваль, музыка, искусство, импровизация, джаз, вокал, этно-джаз, музыкант-исполнитель, ансамбль, музыкальные инструменты, репертуар, слушатель.

## INTERNATIONAL JAZZ FESTIVAL 2023 IN UZBEKISTAN

**Sedykh Tatyana Tomovna Associate Professor  
of the Department "Musical and theoretical  
disciplines" State Institute of Arts and  
Culture of Uzbekistan**

**Annotation:** The article discusses the significance and features of the International Jazz Festival in Uzbekistan in 2023. On the musicians and the collectives participating in the festival.

**Key words:** Uzbekistan, festival, music, art, improvisation, jazz, vocal, ethno-jazz, performing musician, ensemble, musical instruments, repertoire, listener.

Историческим событием в музыкальной жизни Узбекистана стало проведение VII Международного джазового фестиваля в Узбекистане с 25 апреля до 14 мая 2023 года. Фестиваль – это праздник музыкального искусства, влияющий на морально-этические качества, профессиональных, духовных качеств молодого поколения. В Новом Узбекистане правительство уделяет большое внимание молодежи, ее культуре и образованию. Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев подчёркивает: «Нынешняя стремительно меняющаяся жизнь ставит перед нами все новые непростые вопросы, и, принимая меры для их решения, мы еще раз убеждаемся в том, что это зависит, в первую очередь, от образования и воспитания молодежи, формирования ее мировоззрения на основе современных знаний, духовности и просвещения» [1.С. 365].

Данный Международный джазовый фестиваль проходит в Ташкенте при поддержке Фонда развития культуры и искусства Узбекистана и

Представительства ЮНЕСКО, совместно с Посольствами участвующих стран. Фестиваль джазовой музыки приурочен празднованию Дня Джаза 30 апреля, провозглашенный в Послании Генерального директора ЮНЕСКО госпожи Ирины Боковой, который начиная с 2012 года, ежегодно отмечается во всем мире. Следует отметить, что на предыдущих Международных джазовых фестивалях коллективы выступали на лучших концертных сценах Узбекистана – в Самарканде, Бухаре, Гулистане, Фергане. В Ташкенте концерты состоялись в концертном зале «Туркистон», театре «Ильхом», Государственной консерватории Узбекистан. Мастер-классы с джазовыми музыкантами прошли в учебных заведениях: Республиканском Специализированном Музыкальном Академическом Лицее имени В.Успенского, Государственном Эстрадно-Цирковом колледже. На фестиваль приезжали джаз-ансамбли из Америки, Азербайджана, Армении, Болгарии, Венгрии, Германии, Египта, Израиля, Индии, Индонезии, Казахстана, Латвии, Малайзии, России, Турции, Франции, Чехии, Швейцарии, Эстонии, Японии.

Новшеством фестиваля является то, что Узбекистан в этом году будут представлять три коллектива, это – Биг-бэнд при Государственной Филармонии Узбекистана, джаз-ансамбль «Jazzigama» в новом составе, а также Проект «Джаз – Маком», организованный в октябре 2021 года, как содружество ряда стран – Узбекистана, Франции и Швейцарии. Участие Биг-бэнда под руководством Народного артиста Узбекистана Мансура Ташматов является одним из новшеств фестиваля. Большие коллективы раньше не участвовали, так как была сложность с передвижения музыкантов, музыкальных инструментов.

Выступление Биг-бэнда предшествовало проведению фестиваля в концертном зале «Туркистон». Этот уникальный, профессиональный коллектив, участник Республиканских и Международных фестивалей, занимает одно из ведущих мест в республике. В его репертуаре, очень продуманно, грамотно составлено, звучит классический джаз, композиции из творчества Фрэнка Синатра, П.Дезмонда, знаменитый «Караван» Х.Тизола, а также, джазовые аранжировки узбекского народного мелоса. Отрадно, что Биг-бэнд выступит и на Заключительном концерте, как своего рода обрамление и большое праздничное, торжественное завершение фестиваля. В беседе с М.Ташматовым стало известно, что 17 джазовых концертов будут

проходить ежедневно на открытой площади Дворца Международных Форумов Узбекистана.

В беседе с автором статьи Саидмурад Муратов, представитель Оргкомитета Международного джазового фестиваля 2023 года рассказал: «При подготовке фестиваля имеется ряд инновационных новшеств. Так, например, несколько джазовых концертов состоятся в одном из уникальнейших залов Ташкента – Международном Дворце Форумов Узбекистана, остальные на открытой площади, вход свободный». С.Муратов высказал интересную мысль: «Джаз из концертных залов «вышел» на улицу, для широкого общения со слушателями». Этот факт подтверждает уникальность джаза, как вида музыкального искусства.

В первый день Международного джазового фестиваля, на открытой площади Дворца Международных Форумов Узбекистана, выступил популярный аккордеонист из Италии Винчче Аббраччианте. В его исполнении прозвучали авторские композиции, а также произведения композитора Эннио Морриконе. Слушательская аудитория восторженно приняла мощные аккордовые каскады, виртуозные пассажи в правой руке. Во второй день фестиваля слушатели ознакомились с творчеством Адама Бен Эзра, известного контрабасиста из Израиля. Он также является автором джазового альбома и ряда аранжировок джазовых композиций. У слушателей сложилось мнение, что два солирующих джазмена, как бы соперничают друг с другом в мастерстве исполнения, виртуозности, искренности музыкальных образов.

Третий вечер представлен инструментальным составом из Германии. Как правило, на фестивале всегда участвуют малые составы. Так, трио – гитара, клавишные, ударные, группы Triounauts, исполнили свой альбом Plus/Delicate Dance. Представитель посольства охарактеризовала интересное творчество группы, как «космические импровизации». Гости столицы и узбекистанские слушатели с первыми музыкальными фразами «погружались» в мир космических фантазий и импровизаций.

Следующий вечер джаза прозвучал в исполнении джаз-ансамбля «Jazzigama» под управлением Саидмурада Муратова. Отрадно, что молодой коллектив, находится в творческом поиске, как в репертуаре, так и исполнителях. В концертной программе ансамбля, интересно сочетался

джазовые импровизации всех участников состава, джаз-рок, композиции из репертуара Майкла Джексона, узбекский этно-джаз. Следует отметить, что слушательская аудитория была в несколько раз больше по масштабу, чем на концертах предыдущих исполнителей. Это свидетельствует о признании группы «Jazzirama».

Анализируя эти музыкальные вечера, следует вывод, что Международный джазовый фестиваль стартовал на высоком профессиональном уровне. Раскрывается мастерство джазовых музыкантов-исполнителей, его креативность и неповторимость. Впереди нас ждут новые интересные коллективы, солисты, раскрывающие еще больше дух творчества и доброго соперничества. Отрадно, что приходят слушатели разных возрастных категорий – старшего поколения и особенно молодежь. Джазовый фестиваль Узбекистан набирает свою силу, способствует укреплению международных контактов, развитию джазовой музыки.

#### **Список литературы:**

1. Мирзиёев Ш.М. Одобрение народа – высшая оценка нашей деятельности. Том 2. ИПТД «Узбекистан». – Т.: 2018. – С. 416.

**SAN'ATGA BAXSHIDA UMR.... USTOZIM  
AXMAD ODILOV FAOLIYATIGA CHIZGILAR****Komiljon Shermatov**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
“Cholg'u ijrochiligi” kafedrasida dotsenti,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko'rsatgan artist

Bizga tarixdan ma'lumki, xalq cholg'ularini o'zlashtirish an'anaviy uslubga asoslangan bo'lib, ya'ni ustoz-murabbiy kuyni o'z shogirdiga og'zaki o'rgatish yoki cholg'uda bevosita ijro etib berish yo'li bilan yetqazish orqali olib borilgan. Shu bois xalq sozandalari orasidagi ustoz-shogirdlik an'analari musiqa ijrochiligini o'rganish uslublaridan biri sifatida qo'llanilib, mohir cholg'uchilarni shakllanishida katta imkon yaratgan. Ustozlarning har biri boy milliy musiqa merosimizni saqlashda, zamonaviy musiqa madaniyatimizning shakllanishi va ravnaq topishida o'zlarining hissalarini qo'shganlar.

1930-yillardan boshlab o'zbek madaniyati va san'ati bilan birgalikda o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati ham jadal ravishda taraqqiy eta boshladi. Yillar o'tib xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati zamon talabiga ko'ra, yangi yo'nalish bo'yicha rivojlandi. Natijada O'zbekiston Respublikasining musiqiy ijrochilik san'atida yangi avlod ustozlarining shakllanishiga zamin yaratildi.

O'zbek xalq cholg'ularidan chang ijrochiligi alohida e'tiborga molik bo'lgan bir maktabni tashkil etadi. Ushbu maktab faoliyati chang cholg'usining mohir ijrochisi, zahmatkash inson va fidoyi san'atkor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor Axmad Odilov nomi bilan bog'liqdir.

Axmad Odilov Toshkentning “Xadra” maydoni yaqinidagi Qoratosh mahallasida, 1928-yil 21-iyul kuni ishchi oilasida tavallud topdi. 1939-yilda maktabning to'rtinchi sinfidan boshlab musiqa to'garaklarida faol qatnashib doira, nay, rubob, fortapianino va ayniqsa chang cholg'ularida xalq kuylarini o'zlashtirishda jiddiy mashq qila boshlaydi.

U 1942-yilning dekabr oyida “O'quvchilar saroyi tarkibidagi o'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagiga qatnashish niyatida borib, to'garak rahbari, taniqli naychi Axmadjon Maksudov, Axmadning chang cholg'usida bilgan qator kuylarini diqqat bilan eshitib, to'garak a'zolidigiga qabul qiladi. 15-yoshli Axmad musiqa bilim



yurtining damli cholg'ulardan klarnet bo'yicha yuqori kurs o'quvchisi Nuriddin Xalilov ismli yigit bilan tanishadi.

Nuriddin Xalilov o'sha yili mart oylarida aka-uka Odilovlarni Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga olib boradi va ularni sinovdan o'tqazishib bilim yurtiga qabul qiladilar.

Shunday qilib, Komil klarnet cholg'usi bo'yicha A.Kozolupov sinfiga, Axmad esa chang cholg'usi bo'yicha A.Ilyosov sinfiga qabul etiladi. Ko'p vaqt o'tmay aka-uka Odilovlar bilim yurtining katta zalida vaqtincha mashg'ulot o'tqazayotgan O'zbek davlat filarmoniyasining A.I.Petrosyans rahbarligidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga sozanda sifatida ishga qabul etiladilar.

Ahmad Odilov ustozidan ko'pgina o'zbek xalq musiqasi namunalarini, kompazitorlar ijodiga mansub bo'lgan xilma-xil asarlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik taniqli gijjakchi, sozanda, dirijyor Suren Nikitich Gabrielyandan qardosh xalqlar kuylarini o'rganadi, yakkanavoz changchi sifatida qator kontsertlarda qatnashib tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi. Ijro mahorati tufayli bilim yurti o'qituvchilari va o'quvchilari hamda keng jamoatchilik nazariga tushdi. O'sha yillari hayajonga solgan bir xushxabar haqida Ahmad Odilov shunday hikoya qiladi: "Hamza" nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining 2-kurs o'quvchisiman. 1945-yil oktyabr oyining oxirlarida bilim yurtining direktori I.Tixonova meni chaqirib: "Sizni, san'at ishlari respublika davlat ko'mitasining raisi Koriyev Raxim Majidovich huzuriga chaqirishdi. Moskvaga tezda yetib borishingiz to'g'risida shoshilinch telegramma olishibdi dedi"lar. Tezlik bilan sobiq 1-may ko'chasida joylashgan san'at ishlari qo'mitasiga borib, R.M.Koriyevga uchrashdim. Meni, ochiq chehra, shirin so'z bilan kutib oldilar. Moskvaga borishim haqidagi shoshilinch xabarnomani o'qib berdilar. Men R.M.Koriyevga: "Ishonchlaringizni oqlash uchun astoydil harakat qilaman", deb va'da berdim. Bu samimiy suhbat dilimda naqshlanib qoldi.

O'zbekiston kompozitorlari Sobir Boboev, G'ofur Qodirov, Ibroxim Hamroev, Boris Gienkolar bilan hamkorlikda chang uchun maxsus asarlar paydo bo'lishida tashabbus ko'rsatdi va ijobiy natijalarga erishdi. 1948-yili Axmad Odilov davlat imtihonlarini a'loga topshirib, imtiyozli diplom bilan musiqa bilim yurtini tugalladi va yosh sozanda konservatoriyada o'qishni davom ettirishga tavsiya qilindi.

1948-yilda xalq cholg'ulari ijrochilik san'ati tarixida zarhal harflar bilan bitishga arzigulik tadbirlar amalga oshirildi. Ko'pchilik musiqa va san'at oliy o'quv

yurtlarida xalq cholg'ulari fakultetlari, kafedralari yoki bo'limlari tashkil etilib, bu yo'nalish bo'yicha ta'lim berish boshlandi.

Bunga zamin shart-sharoitlarin mavjudligi, Muxiddin Qoriyoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasining O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri faoliyati, sozlarini ta'mirlash va takomillashtirish ishlari xalq etilganligi hamda "Hamza Xakimzoda Niyoziy" nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtida konservatoriya talabiga javob beradigan bo'lajak talabalarning mavjudligi sabab bo'ldi. Shu bois, 1948-49-o'quv yili Toshkent davlat konservatoriyasining bir yo'la 1-2-kurslariga talabalar qabul qilishga qaror qilindi.

Valentina Borisenko (prima rubobi), Feoktist Vasilyev (qashqar rubobi) va Axmal Odilov chang sinfi bo'yicha 2-kursga qabul qilindilar. Talabalar bunday imtiyozni sharaflil hamda o'ta mas'uliyatli ishonch deb tushundilar va birinchi o'quv kunlaridan boshlab jiddiy harakatlarini boshladilar. Konservatoriya Ahmad Odilov uchun asosiy musiqa maktabi bo'ldi va u chang sinfi bo'yicha professor Ashot Petrosyans rahbarligida dirijyorlik bo'yicha N.A.Goldman va A.I.Davidovda tahsil ko'rdi.

Axmad Odilov konservatoriyada tahsil olishi bilan birgalikda O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida changchilar guruhining bosh sozandasi sifatida shu bilan birga yakkanavoz ijrochilik faoliyatini davom ettiradi. Talabalik davridayoq A.Odilov 1950-yilning noyabr, dekabr oylarida Xitoy Xalq Respublikasiga kontsert guruhi bilan safar qildi. 1951- yili Moskvada o'tqazilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasida qatnashdi.

A.Odilov Toshkent davlat konservatoriyasi o'zbek xalq cholg'u asboblari fakultetining chang yakkanavozligi, orkestr dirijyorligi ixtisosliklari bo'yicha birinchilardan bo'lib bitirdi.

A.Odilov usta Usmon Zufarov, Saveliy Didenkolar rahbarligida yasalgan chang cholg'ularining yuqori registrini (ya'ni yuqori tovush qatorlarini) qo'shimcha torlar va harraklar hisobiga kengaytirishda, 12 bosqichli temperatsiyalangan tovushqatoriga mos changni yaratishda va uni amaliyotda qo'llashga faol qatnashadi. Shu bilan bir qatorda tovush so'ndirgich va maxsus pedal o'rnatilgan chang cholg'ularini yaratishda ham o'z hissasini qo'shdi.

Bu yangi changning birinchi ijrochisi Axmad Odilov tez orada xilma-xil ijrochilik uslublarining yangi xillarini yaratishga muyassar bo'ldi.

1951-yilning noyabr oyida A.Odilov Moskvada o'tkaziladigan O'zbekiston san'atining 2-dekadasi qatnashchilari bilan yana safarga jo'nab ketdi. Dekadaning

qo'shma kontsertlaridan tashqari Moskva olimlar uyi, Fanlar akademiyasi, Harbiy-siyosiy akademiya, ko'plab madaniyat saroylarida kontsertlar muvaffaqiyatli o'tdi. Davlat mukofoti sovrindori, xalq artisti Xalima Nosirovaning A.Odilovga nisbatan quyidagi fikr-mulohazalarini bayon etgan:

“Kuy har birimizning qalbimizga ona allasi bilan kirib keladi, umrbod oshno bo'lib qoladi. Ayniqsa, milliy cholg'ularimizdan taralgan nafosatli sadolarni, taronalarni tinglash har birimizda beqiyos taassurot qoldiradi. Musiqaga qiziqish, uni dildan sevib ijro etish hammaga ham nasib etmaydi. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini xalqimizning bir necha avlod vakillari yaratdi. Biroq ular orasida yangi yo'nalishdagi chang cholg'usi ijrochilik san'atining tamal toshini qo'ygan ulug' zotlar Faxriddin Sodiqov, Ahmad Odilov, Fozil Harratovlar kabi ustozlarning xizmatlari hech unutilmasdir. Ajoyib san'atkor, uzoq yillar mobaynida pedagoglik bilan shug'ullanib kelayotganiga qaramay, Ahmad Odilov ham ijrochilik faoliyatini aslo unutgan emas. Men bu ajoyib san'atkor bilan faxrlanaman. U bilan ko'pgina kontsert safarlarida birga qatnashganman. Ayniqsa, Xitoy Xalq Respublikasida hamda Ukrainada o'tqazilgan katta kontsert safarlarimiz davomida milliy san'atimizning ravnaqini minglab tomoshabinlarga ko'z-ko'z qilgan oliyjanob sozandadir...”

Ahmad Odilov ilmiy-metodik ko'rsatmalar, bastalangan kuylar, chang va fortapiano uchun moslashtirilib notalashtirilgan xalq musiqa namunalari, darsliklar, to'plamlar muallifi va tuzuvchisidir. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixiga oid A.Odilovning risola-kitoblarini O'zbekistondan tashqarida ham zo'r qiziqish bilan o'rganishmoqda.

Axmad Odilovning ijodiy faoliyati ham samarali va ko'p qirralidir. Uning barakali ijodiy faoliyati uch yo'nalishda kechadi:

1. O'zbek xalq cholg'ulari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari va musiqiy asarlar to'plamlarini yaratish;
2. Chang cholg'usiga maxsus musiqiy asarlar yaratish, kompozitorlar asarlarini chang va fortapiano cholg'ulariga moslashtirish bo'yicha to'plamlar yaratish;
3. Bebaho boy musiqiy merosimiz bo'lgan o'zbek xalq musiqasini, chang cholg'usi ijrochiligi imkoniyatlariga moslashtirib, fortapiano jo'rligida notalashtirilgan to'plamlarni yaratishdan iboratdir.

Axmad Odilov bugungi o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik sohasining peshqadam namoyondalaridan biri sifatida, cholg'ularning taraqqiyoti va ijrochilik tarixini o'rganishga katta e'tibor berib, talaygina kitob va maqolalar yaratgan.

Bulardan eng muhimi “O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi” risolasidir. Unda ko'pdan beri qalamga olinmagan o'zbek xalq cholg'ularida musiqa ijrochilarining asosiy bosqichlari xaqida ilk bor so'z yuritilgan. Risolada xalq cholg'ulari ko'hna tarixidan to hozirgi kungacha bo'lgan davr qamrab olingan. Shuningdek, tarixiy risolada mashhur soz ijrochilarining ijodiy faoliyatlariga alohida-alohida o'rin berilgan.

Axmad Odilovning ijodiy yo'li 1948-yildan boshlangan, o'qituvchilik, ijrochilik, ilmiy-ijodiy va tashkiliy-jamoatchilik ishlari bir-birini uzviy to'ldirgan holda ko'p jihatdan ibratlidir. Uzoq va murakkab ijodiy yo'lni bosib o'tib, ijrochilar, kompozitorlar va ijodiy ziyolilar orasida munosib hurmat qozondi. A.Odilov xalq cholg'u asboblari bo'yicha nafaqat O'zbekistonda, balki sobiq ittifoq bo'yicha birinchilar qatorida - professor ilmiy unvoni bilan taqdirlangan ustoz san'atkordir.

A.Odilov tashabbusi bilan 1970-yildan boshlab o'tqazilayotgan o'zbek xalq cholg'u asboblari va (bayan) yosh sozandalarining Respublika ko'rik-tanlovlari keyinchalik an'anaga aylandi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik taraqqiyotida ijrochilikning yangi yo'nalishlarini shakllantirishda, uning yangi uslubiyatini yaratishda A.Odilov ustoz san'atkor sifatida fidoyilik ko'rsatdi.

Zero, chang cholg'usida ijrochilik san'ati sozanda ijrochidan chuqur musiqiy-nazariy bilim, yuksak mahorat, tinglovchilarning ruhiy olamini boyitish kabilarni talab qiladi. Axmad Odilov 1964-1972-yillari Toshkent shahar kengashining deputati, madaniyat va san'at ishlari bo'yicha doimiy komissiyasining raisi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining kadrlar va o'quv yurtlari boshqarmasining boshlig'i (1970-1971), 1971-1974-yillari M.Ashrafiy nomidagi TDKning prorektori, 1977-1998-yillari o'zbek xalq cholg'ulari kafedrasining mudiri bo'lib ishlab kelgan. U Toshkent davlat konservatoriyasida ilmiy-pedagogik, kontsert- ijrochilik, jamoatchilik ishlarida faol qatnashib, yosh o'qituvchilarga o'rnak bo'lgan.

Axmad Odilovning ijodiy tashabbuskorligi, tashkilotchilik qobiliyati Gnesinlar nomidagi Moskva musiqa pedagogika instituti, Uzeir Xojibekov nomidagi Ozarbayjon davlat konservatoriyasi, Kurmang'oz Sag'irboyev nomidagi Almata davlat konservatoriyasi, Mirzo Tursunzoda nomidagi Tojikiston san'at institutining xalq cholg'ulari kafedralari bilan Toshkent davlat konservatoriyasining o'zaro ijodiy hamkorlik o'rnatilishida yaqindan yordam berdi. Xalq cholg'ularini o'rgatishda dolzarb muammolarga bag'ishlangan respublikalararo ilmiy-amaliy anjumani (Toshkent, 1989-yil) doirasida o'tqazilgan, Ahmad Odilovning ijodiy kechasi ham

yig'ilganlar va mehmonlarda zo'r taassurot qoldirgan. Bu maroqli o'tgan ijodiy kecha Ahmad Odilovning 60-yillik tavalludiga to'g'ri keldi.

Tabrik so'zlarda A.Odilovning ko'p yillik ijodiy va jamoatchilik faoliyatlari yuqori baholanib, professor ustozga sog'-salomatlik, ijodiy omad, ulkan baxt-saodat tilab qolganlar.

Mashxur sozanda ijrochilarni tarbiyalab yetishtirishda, Ahmad Odilovning - xizmatlari nihoyatda buyuk. Hozirda mashxur san'at ustalari Fozil Harratov, Kaxramon Dadayev, Baxtiyor Aliyev, Sayfi Jalil, Xayrulla Lutfullayev, Talatjon Sayfuddinov, G'ani To'laganov, Urozimbek Murodov, Botir Rasulov, Pulatjon Mustafoyev, Xusanjon Nabiyev va boshqa o'nlab san'at ustalari Ahmad Odilovni o'zlarining ustozlari, sevimli murabbiy-muallimi, deb hisoblaydilar.

O'zbekiston Respublikasining musiqa san'ati jahon musiqa san'atining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Ahmad Odilovning ilmiy-pedagogik, tashkiliy jamoatchilik faoliyati bilan o'zbek ijrochiligi san'atining tarixi bir-biriga chambarchas bog'langandir.

Uning serqirra, sermahsul ijodi, o'zbek xalq musiqasi, zamondosh musiqa arboblari, san'at ustalari, professor-o'qituvchilar ijrochilar, umuman O'zbekiston Respublikasi musiqa madaniyati va san'ati muhitida shakllandi. U zamon talablariga xos yangi ijrochilik san'ati tarixining ko'p bosqichlarini birma-bir bosib o'tdi, ustoz-san'atkor O'zbekistonda va Markaziy Osiyoda chang cholg'usi ijrochiligi maktabini yuzaga keltirdi.

Milliy chang cholg'ulari ansamblini tashkil etilishida, o'zbek xalq musiqasi namunalarini chang cholg'usiga moslashtirib, notalashtirishda murabbiy-ustoz san'atkor va ajoyib ijrochilik sifatida tanildi, xalq hurmatini qozondi. Uning ijrochilik san'atida o'zbek xalq musiqasi hozirgi talab darajasidagi peshqadam professional ijrochilarining eng yaxshi fazilatlari mujassamlashtirdi. Ahmad Odilov uchun o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati doim asosiy ilxom manbai bo'lgan. Ijodkor yangi-yangi izlanishlardan tolmadi, dadillik bilan ijrochilik san'atining mashaqqatli yo'llarini bosib o'tdi.

Uning ilmiy-ijodiy asarlari, tarixiy risolalari, o'quv-uslubiy dasturlari, chang va fortepiano cholg'ulariga moslashtirilgan va notalashtirilgan xalq musiqasi qo'llanmalari O'zbekiston Respublikasi musiqa madaniyatining boy xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Ahmad Odilov butun hayoti davomida o'zbek xalq cholg'u ijrochilik san'atiga sidqidillik bilan xizmat qilishga intildi. A.Odilov o'zbek musiqa madaniyatini



rivojlantirishga, xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining taraqqiyotiga, respublika musiqiy ta'limoti rivojiga qo'shgan katta hissasi uchun tashkiliy-jamoatchilik faoliyati, respublika hukumati tomonidan yuksak taqdirlandi. Ustoz 1977-yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" faxriy unvoni, 1970 yili "Hurmat belgisi" ordeni va qator hukumat medallari, O'zbekiston, Tojikiston, Estoniya, Ukraina respublikalari Oliy Kengashining faxriy yorliqlari, "Toshkent quruvchisi" medali, Moskvada o'tqazilgan yoshlar va talabalar VI-jaxon festivalining laureati unvoni bilan mukofotlandi.

A.Odilovda ilk bor musiqiy ta'lim olgan atoqli kompozitor, O'zbekiston xalq artisti, M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining professori Sayfi Jalil shunday deydi:

"Ahmad akani 1945-yildan beri yaqindan taniyman. Men ularni birinchi muallimim deb tan olaman, menga musiqiy-nazariy bilimni va g'ijjak cholg'usini ilk bor o'rgatgan domlam bo'ladilar. O'sha paytlarda bosmaxona ishchisi edim, lekin san'atga nihoyatda qiziqishim katta edi. San'at olamiga qadam qo'yishga ustozim Axmad Odilov sababchi bo'lganlar.

Axmad Odilov XX asr ikkinchi yarmining oxirigacha O'zbekiston Respublikasi musiqa madaniyatida erishilgan barcha ijodiy yutuqlariga o'zining kamtarin hissasini qo'shgan san'atkordir. Xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati ustasi, birinchi professor, g'oyat kamtar sozanda sifatida hamkasblari, ko'p sonli san'at muxlislari orasida hurmatga sazovor bo'lgan ustozdir. Axmad Odilov bunday yuqori darajadagi ulug'lanishga faqatgina o'zining, o'ta mehnatsevarligi, serg'ayratligi, fidoyiligi va san'atga bo'lgan chuvur hurmati evaziga erishgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "O'zbekiston musiqa san'ati ustalari-Axmad Odilov." A.Lutfullaev. Toshkent 2021 y.
2. "Xalq cholg'ulari ijrochiligining zamonaviy omillari" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining maqolalar to'plami. Toshkent 2015 y.
3. "Cholg'u ijrochiligi tarixi"-Fazilat Shukurova. Toshkent 2005 y.

## CHANG CHOLG‘USINING O‘ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDAGI O‘RNI

**Xurramova Diyora**

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Professional ta‘lim: Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) ta‘lim yo‘nalishi  
1-kurs talabasi Ilmiy rahbar :  
“Cholg‘u ijrochiligi “ kafedrasida dotsenti K.Shermatov

**Anotatsiya:** mazkur maqolada chang cholg‘usi tarixi, kelib chiqishi, takomillashishi ijro uslubi hamda ta‘lim yo‘nalishi, texnikalari, taniqli chang ijrochilari, uning imkoniyatlarini kengaytirishga bog‘liq taklif va mulozalar

**Anotation:** This article provides suggestions and comments on the history of the dust instrument, its origin, development, method of performance and direction of training, techniques, well-known dust performers, the expansion of its capabilities

**Анотация:** В данной статье рассматриваются история, происхождение, развитие инструмента, стиль исполнения и направления обучения, приемы. известные дуговые исполнители, замечания по расширению его возможностей

**Kalit so‘zlar:** chang, arfa, tenor, bas, registr, oktava, prima, repertuar, cover, tor, dinamik, texnik.

**Keywords:** chang, harp, tenor, bass, register, octave, prima, cover, tor, dynamic, technical

**Ключевые слова:** чанг арфа, тенор, бас, регистр, октава, прима, репертуар, кавер, тор, динамический, технический

“...bu yorug‘ olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat- bu ma‘naviy jasorat, deb javob bersak, o‘ylanmangki, yanglishmagan bo‘lamiz.”

I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat-  
yengilmas kuch.

Chang- o'zining jarangdor va shirali tovushi bilan ajralib turadi o'zbek xalqining sevimli cholg'u asboblaridan biri. Yozma manbalarda 15,17 asrlardan boshlab "chang" so'zi musiqa hayotimizda ma'lum o'rin egallagay boshlagan. Ungacha esa ushbu ibora o'zbek hamda tojik musiqa madaniyatida butunlay o'zga soz, tirnolib chalinadigan zamonaviy yevropacha arfaning bizda keng ishlatilgan qadimiy kichik hajmdagi namunasi anglatadi. Jumladan Alisher Navoiyning buyuk asari "Xamsa"ning "Sabbai sayyor" dostonidagi chang iborasi ham arfa tusidagi cholg'u sozini aniqrog'i qo'l arfasini anglatgan bo'lib, uning mohir ijrochisi sifatida Dilorom kabi ayol obrazlari tasvirlangani ham bejiz bo'lmagan. Ammo 17 asr lardan keyin bu qo'l arfasi ijrochilikdan chiqib boshlagan va o'z o'rnini – maxsus tayoqchalar bilan urib chalinadigan trapetsiya shaklida chang cholg'u asbobi egallagan. Changdan qadimda va o'rta asr sharq madaniyatida qo'llanilgan hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududida qadimgi changdan taxminan 17 asrgacha qo'llanilgan. O'rta asrlarda Noqus Changiy, Hofiz Changiy, Darveshali Changiy, Mavlono Mirek Changiy Buxoriy va boshqa chang ijrochilari tanilgan. Chang burchakli yoki yoysimon shaklda bo'lib, unga 13 va undan ortiq torlar o'rnatilgan. Ko'pchilik xalqlarda chang turlicha nomlanadi bu changlar orasida muayyan farqlar ham bor. Fors mamlakatlarida tarqalgan turi **santur** deb nomlanadi. Changning chang- tenor, chang – bas turlari ham mavjud. Turli mamlakatlarda uchraydigan changsimon asboblarning quyidagilardir: sinbal, santouriy, santoor, santur, tiompan, salterio, tambal, khim. Hozirda changda o'zbek, tojik, uyg'ur xalqlarida keng foydalaniladi. O'zbekistonda teng ishlatiladigan hozirgi turi trapetsiya shaklidagi tovushxonaga ega. Tovushqator asosini 14 sim tashkil etadi. Sim torlari 2 xarak vositasida 2 guruhga bo'linadi: o'ng xarak ustidan o'tkazilgan simlar past registrda, chap xarak ustida o'tkazilganlari 1 va 1,5 oktava yuqori registrlarda ovoz chiqaradi. Changning diapazoni kattadir: katta oktava A bemoldan ikkinchi oktava E bemolga yetadi. Chang bambukdan ishlangan ikki cho'p yordamida urib chalinadi. 1930-yillarda yangi (xromatik tovushqatorga ega) turlari yaratildi (prima, tenor, bas). Jarangdor tember, keng dinamik va texnik imkoniyatlar tufayli turli ansambl, xalq cholg'ulari orkestri tarkibida ham yakkanavoz cholg'u sifatida ijrochilar orasida keng tarqaldi. O'zbekistonda chang ijrochilaridan Matyusub va Fozil Xarratovlar, Ruzimatxon Isaboyev, Baxtiyor Aliyev, Faxriddin Sodiqov, Maxmudov, Axmad Odilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar T. Otaboyev, F. Shukurova, T. Sobirov va boshqalar tanilgan.

Changning texnik va jarangdorligi betakrorligi tufayli O'zbekiston kompozitorlari hamda bastakorlaridan chang uchun maxsus asarlar, qo'llanmalar va konsert repertuarlari yaratishni talab qilmoqda. "Chang taronalari" to'plamichang uchun maxsus yozilgan musiqa asarlaridan tuzilib, konsertvatoriya hamda musiqa bilim yurtlari uchun qo'llanma sifatida foydalaniladi. Chang cholg'usida nafaqat texnik balkim o'zbek maqom asarlarining betakror ijro etilishi insonlarni o'ziga jalb qiladi. Hozirgi kunda o'tgan yillarga nisbatan ushbu cholg'u ichrosiga qiziqayotgan yoshlar ko'paymoqda. Ammo ba'zi hollarda san'atga qiziqishi yo'qolgan yoshlarni ham uchratish mumkin. Lelin san'at insonni yaxshi va hayolot olamiga olib kiradi. Shuning uchun ham yosh avlodni bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish uchun ularni san'atga qiziqtirish kerak. Bu so'zlarga misol qilib Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning **"...har bir maktab bitiruvchilari, o'quvchi yoshlar biror bir cholg'u asbobini o'rganishi"** to'g'risidagi qabul qilgan qarorini mazmunini keltirishimiz mumkin. Men yoshlarni hozirgi kunda zamon talabiga mos ravishda asarlar tanlab, ular hohishidan kelib chiqqan holda qulog'iga yaqin, sho'x, zamonaviy kuylar, asarlar berib ularni san'atga yanada qiziqitish uslubini qo'lash taklifini bergan bo'lardim. Chet el asarlarini o'zbekcha cover variantlarini ijro etish yosh avlodni san'atga qiziqtiradi bu zamon talabidan kelib chiqqan holdagi taklifdir. Shuningdek chang cholg'usida ham chet el kompozitorlari asarlarini texnik imkoniyatlarini ochish mumkin. Masalan boshqa mamlakatlarda ham keng tarqalgan chang cholg'usi turlarida ijro etilgan asar variantlarini ham ijro etish bu chang imkoniyatlari qanchalik ko'p ekanligini ko'rsatib beradi. Chang cholg'usini o'tirib ham, turib ham ijro qilsa bo'ladi. Bu imkoniyatlarni san'at olamiga targ'ib etish va keng miqyosda qo'lashni ham taklif qilgan bo'lardim.

San'at bu hayot mazmunini rang-barang qilish, tasavvuf olamini yanada yaxshilash uchun yordam beradi. Shuning uchun san'at bilan hamnafas bo'lish inson uchun yaxshi yo'l.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. "Chang taronalari", "Chang darsligi" - Ahmad Odilov
2. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" - I.A. Karimov. 159-bet
3. "Ko'hna cholg'ular tarixi" - O'. Toshmatov, S. Turatov
4. [www.vikiped.uz](http://www.vikiped.uz)

## XALQ TUSHMUSH TARZI BILAN BOG'LIQ AN'ANALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

**Kamoliddin Isayev**

“Folklor va etnografiyasi” kafedrası mudiri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek xalqining turmush tarsi bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat an‘analari va qadriyatlari xususida fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Shuningdek, xalq qadriyatlari va milliylik bilan bog‘liq bo‘lgan aholi turmush madaniyatining ko‘rinishlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** turmush madaniyati, milliylik, an‘ana, qadriyat, madaniy hayot, urf-odat

## ХАРАКТЕРИСТИКА ТРАДИЦИЙ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ПУТИ НАРОДНОГО ВОСПРИЯТИЯ

**Аннотация:** В данной статье высказываются мнения о традициях и ценностях образа жизни узбекского народа. Также приводятся сведения о проявлениях культуры жизни населения, связанных с национальными ценностями и национальностью.

**Ключевые слова:** культура быта, народность, традиция, ценность, культурная жизнь, обычай

## CHARACTERISTICS OF THE TRADITIONS RELATED TO THE WAY OF PEOPLE'S PERCEPTIONS

**Abstract:** In this article, opinions are expressed about the traditions and values of the Uzbek people's lifestyle. Also, information is provided about the manifestations of the population's culture of life related to national values and nationality.

**Key words:** culture of life, nationality, tradition, value, cultural life, tradition

Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi



bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyat-lari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlaboq ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligina muhim manbaya hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashiga, mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas.[1;67]

Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini — oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari

ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

O'zbek oilasining asosiy o'ziga xos xususiyatlari mehmondo'stlik va yoshi kattalarga an'anaviy hurmat-ehtiromli muomala qilishdir. O'zbeklar odatda bir nechta avlodlardan iborat bo'lgan katta oilalar tarkibida yashaydi, shuning uchun ular ko'proq hovlisi bo'lgan katta uylarni yoqtirishadi. Maishiy hayotida mehmondo'stlikning bir qismi bo'lgan choyxo'rlik marosimi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda choy damlash va uni mehmonlarga quyib berish faqat mezbonning mutlaq huquqi bo'ladi. Tushlik yoki kechki ovqatga takliflarni doimo qabul qilish va o'z vaqtida kelish qabul qilingan. Mehmonga kelayotganda o'zi bilan birga mezbonning bolalari uchun suvenirilar yoki shirinliklarni olgan yaxshi. Odatda faqat erkaklar bilan qo'l berib so'rashishadi. Ayollar hamda uzoqroq o'tirgan kishilar bilan o'ng qo'lini yuragiga qo'yib, boshini ohista egib salomlashish lozim. Qo'l berib so'rashish paytida an'anaga ko'ra kishining salomatligi, ishda va uydagi ishlari ahvoli to'g'risida so'raydilar. Qishloq joylarda mehmon kelgan paytda ayollar odatda erkaklarning suhbatiga xalal bermaslik uchun ular bilan bir dasturxonga o'qtirmaydilar. Ayollarning go'zalligiga qoyil qolish va ularga jiddiy e'tibor berish qabul qilinmagan. Turar joy xonasiga kirishda poyafzal yechiladi. Mezbon ko'rsatadigan o'ringa o'tirish kerak. Bunda ushbu joy kirishdan qanchalik uzoqda bo'lsa, shunchalik hurmatli bo'ladi.

O'zbek xalqining urf-odatlarini asrlar bo'yi o'zbeklar millatining tashkil etopishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'analari uchun uyg'unlashuvdagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o'ta o'ziga xos, yorqin va turli-tuman bo'lib, urug'chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarining ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi (beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pincha ular islom urf-odatlarining sehrgarlik amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom qabul qilinganidan beri ko'pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta'sirida o'zgargan, o'zbeklarning hayotiga musulmon diniy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig'iladigan masjidida umumiy namoz (duo) o'qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o'tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda.

Beshik to'yi – chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog'liq bo'lib, nishonlanadigan marosimli bayramdir. Bu eng qakdimgi va O'zbekistonda eng keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to'y chaqaloq tug'ilishining 7-, 9-, 11- kuni o'tkaziladi. Turli viloyatlarda marosim o'zicha xususiyatlarga ega bo'ladi va oilaning boyligi darajasiga bog'liq bo'ladi: o'ziga to'q oilalar odatda bu to'yni katta ko'lamda o'tkazadi, kambag'al oilalar esa uni kamtarona nishonlaydilar. Beshik va chaqaloq uchun barcha zarur andomlar chaqaloq onasining qarindoshlari tomonidan beriladi. Dasturxonga non, shirinliklar va o'yinchoqlar o'rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg'alar tayyorlanadi. Boy bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg'alar transport vositasiga qo'yilib, mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog'ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo'natiladi.[2;112] An'anaga ko'ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o'ng yelkasiga qo'yadi, keyin o'g'lining o'g' yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. O'tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo'lishi uchun ular yuziga oq un surar edilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonga taklif etiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o'tirgan paytda qo'shni xonada kampirlarning ishtirokida bolani yo'rgaklash va beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko'rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg'alarni beradi va beshikning ustiga parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar.

Nikoh marosimi an'anaviy tarzda o'zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'oladi va ayniqsa tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlari bo'la turib, u turli viloyatlarda o'zgacha tusda bayram qilinadi. Nikoh marosimining asosiy payti kelinning ota-onasining uyidan kuyovning uyiga o'tishi paytidir. To'y kuni kuyovnikida to'y oshi (palov) tayyorlanadi va kelinnikiga yuboriladi, u yerda u dasturxonga tortiladi. Xuddi shunday osh kuyovning uyida ham o'tkaziladi. To'y kuni masjidning imomi ikki yoshga «Xutbai nikoh» ni o'qiydi, shundan so'ng ular xudo oldida er-xotin deb e'lon qilinadi. Imom yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. To'y kuni kelinnikida kuyovga sarpo (to'yga sovg'a qilingan kiyimlar va poyafzal) kiydiriladi, shundan so'ng kuyov o'z oshnalari bilan kelinning ota-onasi huzuriga salom berish uchun boradi. Kuyovning oshnalari bilan qaytganidan so'ng kelin ham keladi. Kuyovning uyiga yuborishdan avval kelinnikida ota-ona bilan xayrlashish marosimi bo'lib o'tadi. Kelin bilan birga yaqin o'rtoqlari ham boradi. Ular qo'shiqlarni aytadilar («O'lan» va «Yor-yor»

qo'shiqlari). Kelinni kuyovning uyida kutib olishdan haqiqiy to'y boshlanadi. To'y tugaganidan keyin kuyov kelinni ikki yosh uchun ajratilgan xonaning eshigigacha kuzatadi. Xonada kelinni «yanga» (odatda kelinga yaqin bo'lgan bir ayol) kutib oladi, kelin boshqa kiyim kiyadi va chimildiq (go'shanga) ortida turib, kuyovni kutib olishga tayyorlanadi. Bir qancha vaqtdan keyin kuyov oshnalari bilan birga xonaga yaqin keladi va yangia bilan birga uni kelin kutib turgan gushanga oldiga boradi. Kelinning oldiga kirish uchun u kelinni yangadan ramziy sotib olishi lozim, ular savdolashadi. Shundan keyin kuyov-kelin tuni bilan birga qoladilar. Ertalab azonda «Kelin salom» marosimi boshlanadi. Marosim boshlanishiga yaqin hovlida kuyovning ota-onasi, barcha yaqin qarindoshlari, kuyovningoshnalari va yaqin qo'shnilari yig'iladi. Ularning hammasi navabti bilan kelinning oldiga kelib, o'zining tilaklari, sovg'alari va duolarini baxshida etadi. Kelin har bir kishiga beligacha egilib salom berishi lozim. Shu tariqa bayram tugab, oilaviy hayot boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakx kur tarzi, orzuomidlari va ideallari, vijdoni va ornomusi aks etadi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmugs tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasmrusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahkamov U.. Axloq-odob saboqlari. - T., "Fan", 2019.
2. Murodov. Etnomadaniyat. T. Adolat. 2013. 76-78-b.
3. Sattorov M..O'zbek udumlari. T.: —Fan, 2021. 140-b.(qisqartirib olingan.)

**YOSHLARNI TARBIYALASHDA MUSIQA SAN'ATINING AHAMIYATI**

**Xakimova Feruza Abdumanabovna**  
Professional ta'lim Xalq ijodiyoti  
(cholg'u ijrochiligi) ta'lim yo'nalishi  
1-kurs talabasi Xudoyberdiyeva Sabina  
Abdug'ulom qizi.  
Ilmiy rahbar dotsent

**Annotasiya.** Ushbu maqolada o'zbek musiqasining juda ko'hnaligi uning insoniyat ruhiyatiga ta'siri hamda musiqa janrlarining rang-barangligi haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Musiqa san'ati, ma'naviyat, insoniyat, estetik ruh, milliy qo'shiqchilik, xalq an'analari, professional, she'riyat, iste'dod.

**Аннотация.** В данной статье сама древность узбекской музыки дает информацию о ее влиянии на человеческий дух и разнообразии музыкальных жанров.

**Ключевые слова:** Музыкальное искусство, духовность, человечность, эстетический дух, народное пение, народные традиции, профессионал, поэзия, талант.

**Annotation.** In this article, the very antiquity of Uzbek music provides information about its influence on the human spirit and the diversity of musical genres.

**Key words:** Musical art, spirituality, humanity, aesthetic spirit, folk singing, folk traditions, professional, poetry, talent.

Respublikamiz taraqqiyoti va o'zgarishlarga boy hozirgi vaqt yoshlarining har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z mustaqil Vatanimizdan faxrlanish tuyg'usiga boy qilib tarbiyalash zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli muammolardan biridir.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o'zida ahloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamonlikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa va umuman inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma'naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda maktabning roli shak-shubhasiz



kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U bolani ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlashi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Musiqqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishi imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va musiqiy-estetik tarbiyaning vositasi sanaladi.

Musiqiy-estetik tarbiyaning yana bir asosiy vositalaridan biri ashula (vokal) san'ati hisoblanadi. Ashula aytish san'atining alohida o'ziga hos bir turidir. Ana shu o'ziga hoslik qo'shiqda musiqqa, kuy, she'riy asar hamda ashula ijrosining uyg'unligida o'z ifodasini topadi.

Musiqaning estetik tarbiyadagi roli falsafa, musiqashunoslik va pedagogikaga doir adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Ushbu mavzuda ashula san'atining tarbiyaviy jihatlari va yosh avlodni kamol toptirishdagi rolini yoritishga qaratilgan.

O'zbek musiqasining tarixi juda ko'hna bo'lib, u insoniyatning shakllanishi jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Musiqqa san'ati jamiyatning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan ijtimoiy fikri, g'oyalari, dunyoqarashi mahsulidir. Yozma manbalarda nota yozuvi kashf etilishidan avvalgi davrlardagi musiqqa tarixi, asosan arxeologik topilmalar, manbalar asosida o'rganilishi, to'ldirilishi mumkin.

Arxeologik topilmalarining guvohlik berishicha, O'zbekiston hududida eng qadimiy davrlardan boshlab musiqachilik-raqs, qo'shiqchilikning san'ati bilan shug'ullanib kelingan. Ayniqsa, Baktriya, Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg'ona, Qushon kabi dastlabki quldorlik davlatlari o'zining yuksak madaniyatiga ega bo'lganligi, shu bilan birga, musiqqa va qo'shiqchilik san'ati yaxshi rivojlanganligi shuni ko'rsatadiki, o'zbeklar diyori umuminsoniyat sivilizatsiyasining muhim ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi.

Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari musiqqa san'atining farqlanuvchi jihati asosan milliy qo'shiqchilikning she'riyat va raqs bilan chambarchas bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham musiqqa, qo'shiqchilik san'ati mustaqil ravishda va boshqa san'at turlaridan alohida tarzda paydo bo'lmasdan, madaniyat va san'atning boshqa turlari bilan uzviy bog'liklikda qadr topgan.

Qadimgi musiqqa san'ati janrlari va shakllari rang-barang bo'lib, ular ijtimoiy turmush, xalq an'analari hamda marosimlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlarining musiqqa san'ati asosan madxiyalar, allalar, yig'i, xarbiy chaqiriqlar, tantana bayramlardagi qo'shiqlar tarzida namoyon bo'lgan.

Qadimgi davlatlarda musiqqa san'ati xalq san'ati shaklida paydo bo'lib, keyinchalik sinfiy jamiyatga o'tish va ijtimoiy tabaqalanish natijasida uning kasbiy (professional) shakli ajralib chiqqan boshlagan. O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi

dastlabki ming yillikning birinchi yarimida, ya'ni ilk temir davrda ibtidoiy jamoa tizimi o'zining so'nggi bosqichini o'tab, uning o'rniga sinfiy yuzaga kelganligi nazarda tutilsa, unda professional qo'shiqchilik san'atining ilk asoslari bundan ikki yarim ming yil avval shakllana boshlagan deyish mumkin. O'zbekiston tarixidagi barcha davrlarda musiqa san'ati orqali Vatanga sadoqat, komil inson tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berilgan.

Musiqa san'ati o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning musiqiy-estetik tarbiyasidagi eng kuchli vositalardan biridir. Kuy, musiqa, ashula matni, ijrochilik mahorati uyg'unlikda insonga har tomonlama ta'sir qilishni ta'minlaydi. Kuy va uning musiqiy ifodasi insoniyat hissiyotiga, matn esa uning sezgilari va ongiga ta'sir etadi.

Musiqa san'atida qo'shiq jo'rligisiz ijro etiladigan musiqaning ta'siridan kuchliroq bo'ladi, chunki turmushdagi eng yaqin hamrohi va ruhiy oziqa bo'lib kelgan.

Musiqa san'ati o'zbek xalqining barcha qatlamlariga singib kirib, halqimizning qayg'u-hasratlariga, hursandchiligiga, kelajakka bo'lgan go'zal intilishlari kabi hissiyotlarga hamroh bo'lib kelgan.

Musiqa o'zini qator jihatlari bilan o'quvchi-yoshlarda go'zallikda idrok etishni, zavqlanishni, estetik did, estetik mulohaza, ashulachilik san'ati, uning tizimidagi elementlardan biri bo'lishi juda katta ta'sir doirasiga ega. Musiqa san'ati kuy, usul, zarb kabi qator musiqiy vositalar orqali mazmunni ifodalab, davlat, millat, irq ajratmay insoniyatga yaqindan xizmat qilib, tarixda xalqning aql farosati estetik hissi, qayg'u-shodligi, pok muhabbati va orzu-armonlarini ifodalagan. Ularning ma'naviy-estetik baholashda va estetik ongni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etgan.

Musiqa san'atining estetik tarbiyaviy vazifasi o'quvchi-yoshlar ma'naviyatiga qaratilgan bo'lib, ular dunyoqarashini shakllantirish, ruhiy holati ahloqiy qiyofasi estetik qiziqishi va tafakkurini kengaytirishda chuqur ta'sir ko'rsata olishdan iborat.

O'quvchining estetik tafakkuri ko'proq u qaysi janrdagi san'at asarlarining muhlisi ekanligi, o'z qalbi, irodasi, ish harakati, ijtimoiy orzusi qandayligini o'ylab, o'z-o'zini chamalab bilishida namoyon bo'ladi.

Estetik tarbiya o'smirning estetik tuyg'usini teranlashtirib, san'atga qiziqishini, musiqaning estetik qiymatini tushuntirishni, estetik baho va san'atini tushunish saviyasini, estetik didini yuqori ko'tarib, qalb go'zalligi va estetik turmush saviyasini oshiradi. Shu jihatdan olganda, musiqa estetik tarbiyaning samarali vositasi bo'lib, faqat musiqa asarining ta'siridagina vujudga kelmaydi. U har taraflama ta'sir borliqqa keladi. U turmushning hayot maktabidan, jamoat

hayotidan, moddiy va ma'naviy farovonligidan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, ilm-fan, ahloqiy muhit ta'siri, boshqa halqlarning o'zaro milliy an'analarning ta'siridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

Musiqqa san'ati ijtimoiy ma'naviyatni o'zgartirish, kishilarni ittifoqlashtirish va safarbar qilishda muhim rol o'ynaydi. Dunyoni anglash, xalqni tarbiyalash san'atning realistik xarakteri xalqparvarlik, yaratuvchanlik kabi munosabatlarni yaxshilash bilan belgilanadi. San'at jamiyat va xalqning e'tibor markazida muhim va ijtimoiy ahamiyatli katta masalalardan yiroqlashar ekan, u o'zining haqiqiy xayotiy, tarbiyaviy kuchini yo'qotib qo'yadi.

Biz san'atning barcha turlari va janrlari, san'atning hamma obrazlari va badiiy vositalari hamma joyda to'g'ridan-to'g'ri siyosiy yoki ahloqiy g'oyani ifodalash lozim.

Ya'ni san'at asarlarida kundalik turmushga doir biror aniq ahloqiy fikrning bevosita ifodalanishi shart emas. Shunisi ravshanki, jamiki san'at turlari kishilarga bevosita yoki estetik idrok vositasida go'zallikka va xuquqlikka nisbatan estetik jihatdan yondoshish orqali kishilarda yuksak estetik hamda ahloqiy g'oyalarni shakllantiradi. Bu esa san'at turlari va janrlaridagi umumiy hususiyatdir.

O'smirlarning hayotga qiziqishi his-tuyg'ularining o'sib borishi atrof muxitni kuzatish qobiyatining o'sishida musiqqa san'ati muhim o'rin tutadi. Demak, boshqa san'at turlariga nisbatan san'atni estetik tarbiyaning muhim tarbiyaviy qismidir.

Estetik tarbiya go'zallikni his qilish va tushunish tarbiyasi demakdir. Estetik tarbiyada musiqqa san'ati o'ziga hos alohida o'tkir ta'sirchanlikka ega bo'lganligi sababli qadim zamondan buyon hozirgacha maorifchilarning e'tiboriga sazovor bo'lib kelmoqda. Xullas, o'quv maskanlarida musiqqa orqali amalga oshiriladigan estetik tarbiya yosh avlodda go'zal odob-ahloqiy, insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda muhim vosita ekanligi tarixdan ma'lum. Jamiyat taraqqiyoti moddiy madaniyat bilan ma'naviy madaniyatning bir-birini to'ldirishi va uyg'unlashtirishi orqali amalga oshiriladi.

Musiqqa ma'naviy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismi. U jamiyat kishilariga ma'naviy go'zallik, estetik zavq bag'ishlaydi.

Musiqqa san'ati yosh o'smirlarga tabiat go'zalligi, ijtimoiy turmush go'zalligi kabilarga bo'lgan havasni o'stirib, ularda qalb, so'z, harakat, go'zal ahloqan pok kishilarni tarbiyalash va shu orqali halqning madaniy saviyasini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Musiqqa san'ati o'zining ma'naviy kuch-qudrati bilan mashhur shaxslarning ham ko'pchiligiga bolaligidan hamroh bo'lib kelgan. Ular musiqiy-ma'naviy boy tuyg'usi orqali g'oyaviy, falsafiy tafakkurga erishib, ajoyib kashfiyotlar yaratganliklariga oid tarixiy misollar ko'p uchraydi. Demak, musiqiy-estetik tarbiya

butun insoniyat, jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri, deb aytishga barcha asoslar bor.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madaliyev A. Ta'lim va tarbiya uyg'unligi – komil insonni shakllantirish garovi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010
2. Axmedova Z. Milliy musiqa madaniyati va uning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi roli: Dis. ped. fan. dok. (PhD) Toshkent, 2010

### DOIRA CHOLG'USINING GENEZISI

*Qobilqoriyev Qudratilla Baxtiyor o'g'li*  
*O'zbekiston davlat*  
*san'at va madaniyat instituti*  
*“Cholg'u ijrochiligi” kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Doyra cholg'usi qadimdan xalqimizning madaniy ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Bu haqida buyuk allomalarimiz tomonidan yozilgan risolalardan, musavvirlar chizgan miniatyuralardan ham bilib olishimiz mumkin. Mazkur maqolada doyra cholg'usining genezisi, tarixiy shakllanish bosqichlari, ijrochilikda qo'llanish sohalari borasida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** doyra, evolyutsiya, zarbli cholg'ular, membrana, “zili bom”, doyra ijrochiligi, zarb.

**Аннотация:** Дойра издревле служил для удовлетворения культурных потребностей нашего народа. Об этом мы можем узнать из трактатов, написанных нашими великими учеными, и миниатюр, нарисованных художниками. В данной статье представлены сведения о генезисе дойры, этапах его исторического становления, сферах его использования в исполнительстве.

**Ключевые слова:** эволюция, ударные инструменты, мембрана, «зили бом», исполнительство дойры, удар.

**Annotation:** Doyra served to meet the cultural needs of our people since ancient times. We can learn about this from the treatises written by our great scientists and the miniatures painted by artists. This article provides information about the genesis of doyra, the stages of its historical development, the areas of its

use in performance.

**Key words:** doyra, evolution, percussion instruments, membrana, “zili bom”, doyra performances, beat.

Doira milliy musiqa ijrochiligimizdagi usul (ritm) beruvchi asosiy cholgʻu hisoblanadi. Ushbu cholgʻu ikki ming yillik tarixga ega qadimiy cholgʻulardandir. Bu haqida Saymalitosh, Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan sopol terrakotalar, ritonlar (fil suyagi bilan bezatilgan shoxsimon idishlar)dagi doyrasimon cholgʻularda ijro etayotgan ayollar tasvirlari guvohlik beradi. Ularda aks ettirilgan urma zarbli cholgʻular oʻzbek doyralariga oʻxshash ekanligi koʻpgina adabiyotlarda qayd etilgan.

Doyra cholgʻusi yillar mobaynida ayrim qadimiy tasvirdagilarga nisbatan baʼzi oʻzgarishlarga uchragan. Qadimda hofizlar, xonandalar hajmi uncha katta boʻlmagan, diametri 30-35 santimetr kattalikdagi doyralar chalib, qoʻshiqalar ijro etganlar. Bu hajmdagi doyralar ashulachi ijrosi uchun qulay koʻrinishda, vazni yengil qilib yasalgan.

Keyinchalik doyra cholgʻusining ochiq joyda ijro etiluvchi milliy cholgʻular ansambllarida keng qoʻllanishi, mazkur jarayonda doyraning ovoz balandligi karnay, surnay hamda nogʻoralarning ovozigina monand boʻlishini taʼminlash maqsadida birmuncha kattaroq hajmda yaʼni, diametri 40-43 santimetr atrofida tol, saksovul, tok zangi, tut daraxtlari yogʻochidan tayyorlangan.

U davrda doyralar qizdirmasdan ijro qilingan. Ovozi esa “zili bom” sadoli boʻlgan. “Zili bom” iborasi ustoz sanʼatkorlar tomonidan qoʻllanilgan boʻlib, oʻsha davrdagi doiralarning unchalik keskin boʻlmagan, salobatli, vazmin sadosiga nisbatan qoʻllanilgan. Doyra ichidagi halqalar soni ham hozirgilariga qaraganda kamroq boʻlgan.

XX asrning 70-yillariga kelib doyra gardishlari 39-42 santimetr kattalikda yasaldi. Ijrochilikdagi texnik imkoniyatlar rivojlanib, ijodiy izlanishlar davri boʻldi. Doiralalar ham qizdirib ijro qilina boshlandi. Bu esa cholgʻuning yanada jarangdor sado berishiga xizmat qildi. Keyinroq doira qizdirishda maxsus projektorlar qoʻllanildi. Hozirgi kungacha doyrachilar ushbu vositadan foydalanib kelmoqdalar. Doyra ijrochiligida yillar davomida oʻzgarib kelgan yana bir jihatga eʼtibor qaratsak. Oʻtgan asrning ikkinchi yarmigacha doyrachilar cholgʻuda yanada jarangdor tovush hosil qilish uchun ikkala qoʻllarining toʻrtinchi barmoqlariga temirdan yasalgan



noxun taqib ijro qilganlar. Keyinchalik bu jarangdorlikka barmoqlar yordamida ham erishilganligi sababli noxunlardan foydalanishga ehtiyoj qolmagan.

Hozirda professional ijrochilikda qo'llaniluvchi doira gardishlarining diametri 36-38 santimetr, eni 5-7 santimetr kattalikda o'rik, yong'oq, akatsiya, klyon daraxtlarining yog'ochidan yasalmogda. Doyraning bir tomoniga teri qoplanadi. Gardishning teriga tutashgan ichki tomoni tovushni bo'g'masligi uchun biroz yo'nilgan bo'lishi lozim. Doyra gardishining ichki tomoniga maxsus metal halqachalar (shing'iroqlar) o'rnatiladi.

Bundan tashqari, doyra gardishiga qo'shimcha bezak sifatida baldoqlar o'rnatiladi. Ular gardishning eniga qarab tayyorlanadi. Baldoqlar uchtalik komplekt ya'ni "ingichka-yo'g'on-ingichka" yoki bittadan yo'g'on shaklda gardish bo'ylab o'rnatiladi. Ularning uchini yoysimon qilib kesilishiga alohida e'tibor berish zarur. Aks holda ular doira sadosini bo'g'adi. Baldoqlarni gardishga jiplab mixlash lozim. Chunki ochiq yoki bo'sh o'rnatilgan baldoqlar doira sadosiga qo'shib ketishi natijasida dag'al tovush chiqaradi. Bu holat esa tovushning softligi, tiniqligiga ta'sir qiladi. Baldoqlarning soni gardish diametrining katta-kichikligiga qarab, 10 dan 12 komplektgachani tashkil etadi. Ular qadimdan to XIX asrning oxirigacha misdan, kumushdan yasab kelingan. XX asrdan boshlab to hozirgi kunga qadar baldoqlar jez (latun) dan yasalmogda.

Ustoz san'atkor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, professor Dilmurod Islomov XX asrning 90-yillari o'rtalarida doyra yasovchi ustalarga taklif bilan chiqdi. Ustalar bilan hamkorlik samarasi o'laroq hajmi odatdagisidan birmuncha katta bo'lgan, diametri 55 santimetr atrofidagi doyra yasaldi. Natijada ilgorigidek o'ziga xos shirali, yumshoq sadolanadigan doyralar vujudga keldi. Bu ko'rinishdagi doyralar ijrochilar orasida ancha ommalashib, ijro amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Doyra cholg'usining ijrochiligi bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yurtimiz hududidan topilgan arxeologik yodgorliklarda doyra chalayotgan ayollar tasviri aks etganiga guvoh bo'lamiz. Ular erkaklardan holi tarzda o'zlarining yig'inlarida, xursandchilik kunlarida doyra chalib qo'shiq kuylashgan, raqs tushishgan. Bu orqali madaniy hordiq chiqarishgan. Bugungi kunda ham ayollar o'zlari doyra chalib, ansambl tarzda turli qo'shiqlar, yallalar, laparlar kuylashadi. Shu o'rinda ayollar ijro etadigan doyralar haqida ma'lumot berib o'tishni joiz, deb topdik. Yallachilar tomonidan qo'llaniladigan doyralar erkaklarning doiralaridan ancha farq qiladi. Vodiya yallachi ayollarning doirasi

elaksimon ko‘rinishda bo‘ladi. Ular uchun doirani elak va g‘alvir tayyorlaydigan ustalar maxsus yasaganlar. Bu doiralarning hajmi odatiy doyralaridan katta bo‘lsa-da, ammo vazni juda ham yengil bo‘ladi. Gardishning diametri 40-45 santimetr, eni esa 4-6 santimetr oraliqida tut, tol, qarag‘ay yog‘ochlaridan yasilib, unga yosh buzoq, echki terilari yupqa qilib ishlov berilgan holda qoplanadi. Yupqa teri qoplanishining sababi, yallachilar odatda, doyrani olovda toblab emas, balki oftobning issig‘ida qizdirib chaladilar. Faqat havo sovuq bo‘lgan paytlardagina olovda biroz qizdirib olishlari mumkin. Shunday qilinganda doyradan yallachi ayollar ovozigacha xos o‘zgacha “bo‘g‘iq” tovush hosil qilinadi. Shuningdek, doyraning og‘irligi ortib ketmasligi uchun uning gardishga o‘rnatiluvchi halqachalarning soni professional ijrochilikda qo‘llaniluvchi doyralarnikidan kamroq, oralari ochiq holda joylashtiriladi.

XX asrning o‘rtalariga kelib, yurtimizda doyra ijrochiligini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yuqori darajaga ko‘tarildi. Ko‘plab yoshlar aynan doyra cholg‘usiga mehr qo‘ydi. Sababi, o‘sha davrga kelib o‘zbek doyra san‘atida o‘ziga xos ijrochilik uslublari shakllana boshladi. Shu bois doyra ijrochiligini o‘rganish va bu cholg‘uga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortdi. Shundan kelib chiqib doiralarni zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ularda tayyorlangan doira gardishlari bir necha bo‘laklarga bo‘lingan yog‘ochlarni bir-biriga dumaloq shaklda yelimplash uslubida yasalgan. Teriga ishlov berish va qoplashda ham farq bor. Fabrika va zavodlarda yasalgan doiralarga asosan sun‘iy ishlov berilgan teridan foydalaniladi. Ammo sun‘iy teri qo‘lda ishlov berilgan terichalik pishiq sifatga ega bo‘lmaydi. Boisi, teriga ishlov berishda kimyoviy vositalar qo‘shiladi. Bu holat terining chidamlilik darajasini pasaytiradi va tez orada ishdan chiqadi, yoriladi. Asosiysi, doyra yasovchi ustalar tomonidan qo‘lda ishlov berilgan (oshlangan) terilardek kuchli, yorqin sadoga ega emas. Fabrika va zavodlarda yasaladigan doyralar terisining ichki qismiga mohir rassomlar, hattotlar tomonidan turli xil miniatyuralar tasviri tushiriladi. Shuningdek, gardishning old (yuz) qismiga ustalar tomonidan sadafdan naqshli geometrik shakllar bilan bezak beriladi. Bu ko‘rinishdagi doyralar asosan, havaskor ijrochilar uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga hunarmandchilik san‘atining bir ko‘rinishi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Doyra yasovchi ustalar tomonidan maxsus yasalgan doiralalar professional ijrochilikda qo‘llaniladi. Doyralar ijrochining yoshi, gavda tuzilishiga qarab turli o‘lchamda va og‘irlikda yasaladi. Doiralarning vaznidagi farqlanishga e‘tibor qaratidigan bo‘lsak, ustalar tomonidan yasaladigan standart doiralarning vazni 2000 (ikki ming) grammdan 3000 (uch

ming) gramm oralig'ida bo'lsa, fabrika va zavodlarda yasaladigan doiralar 1000 (ming) grammdan 1500 (bir yarim ming) gramm og'irlikda tayyorlanadi.

Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, doyra cholg'usi o'tmishda, xususan, zardushtiylik davrlarida ayollar orasida keng qo'llanilgan. Baxshi ayollar odamlarni davolashda, diniy marosimlarda doira cholg'usidan foydalanganlar. Bunday xususiyatlar shamanlar faoliyatida ham kuzatilgan. Ular ham inson tanasidan yovuz ruhlarni chiqarish, kasallikni davolash, olovga sig'inish, qurbonliklar qilish, zikr tushish kabi turli marosimlarida doyra chalganlar.

“Jumladan, hozirgacha saqlanib qolgan ayollar tomonidan o'tkaziladigan “ko'chiriq” marosimida (bunda alohida xususiyatga ega bo'lgan ayol vafot etgandan keyin uning faoliyatini davom ettiradigan ayolni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi) doira asosiy vazifani bajaradi. Doyra jo'rligida jazavaga tushish darajasiga keltirilgan ishtirokchilar tomonidan (hamma tan olgan holda) bir ayolga kelib qo'ngan “rux” lar tasdiqlangandan keyin “ruxlar ko'chdi” ma'nosida ilohiy cholg'u doiraning gardishlari va terisiga ataylab so'yilgan jonliq (qo'y, echki yoki tovuq) ning qoni surtiladi va tanlangan ayolga beriladi. Bundan 30-35 yillar muqaddam ham Toshkent viloyatining Piskent, O'rta Chirchiq tumanlarida ayol baxshilar bo'lib, ular odamlarni davolash va diniy marosimlarda ayollarni boshqarish bilan shug'ullanar edi. Ayol baxshilarning cholg'usi doyra esa ularning doimiy hamrohi sifatida olib yurilar edi”.<sup>12</sup>

Baxshi, ko'chirmachi deb nomlangan doirachi ayollarning ijrolaridagi xilma-xil doira usullari yordamida ayrim ruhiy kasallar shifo topib tuzalganliklari, bu muolaja insonlarda ruhiy ishonch paydo qilish bilan bog'liq bo'lganligini alohida qayd etish joiz.

“Surxondaryo viloyatining Sherobod, Angor, Muzrabot va Boysun tumanlarida faqat ayollarga xos bo'lgan va “Doyra badashlari” nomi bilan atalib kelinayotgan qadimiy usullar turkumi yaxshu saqlanib qolgan. Badashlarni mahalliy aholi doyrada chalinadigan usul deb tushunadi. Ijroda mahalliy dapp cholg'usi ishlatilib, ba'zan angishvona, qoshiq va sopol idishlardan jo'rnavoz sifatida foydalaniladi. Badashlar dapp cholg'usida chalinadigan doyra usulli asardir. Bu usullar qadimda qo'shiq bilan bog'liq bo'lgan degan taxminlar ham bor. Badashlar

---

<sup>12</sup> Toshmatov O', Turatov S. “Ko'hna cholg'u ijrochiligi” – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2016-yil, 12-bet.

asosan ayollar tomonidan ijro etilganligi sababli (ijroda yengil hidoblanganligi uchun) ham faqatgina qizdirilmagan dapp cholg'usida chalingan".<sup>13</sup>

“Markaziy Osiyoda eng qadimgi mehnat qo`shiq-lari o`sha davr turmush tarzi bilan bevosita bog`lanib tarannum etilgan. Markaziy Osiyo hududida musiqa cholg`ulari nisbatan ilgariroq “Neolit va Eneolit” davrlarida paydo bo`lganligini taxmin qilish mumkin. Ayniqsa, doira boshqa cholg`ularga nisbatan ertaroq paydo bo`lganligi haqida tegishli ma`lumotlar san`at tarixi bilan bog`liq ilmiy adabiyotlarda berilgan. Doira chalib fol ochuvchilarni folbin, ruhshunos, farishta chaqiruvchi, parxon (parixon) deb ham ataganlar. Fol ochuvchi parxonlar faoliyati ham doira jo`rligida bo`lib o`tgan. Oldinda kutilayotgan xabar-larni doiraning insonga ruhiy ta`siri orqali yetkazganlar va bu bilan fol ochish mahoratlarini namoyish qilganlar. Demak qadimda diniy, falsafiy usullar ham bo`lgan. Bunday ijrolar Hindiston, Xitoy, Afg`oniston hududlarida nisbatan kengroq taraqqiy etganligi haqida turli ma`lumotlar mavjud”.<sup>14</sup>

Bugungi kunga kelib, Markaziy Osiyo va Sharq xalqlari musiqasida qo`llaniluvchi doyrasimon cholg`ularni yasashda sun`iy plastikdan xomashyo sifatida keng foydalanilmoqda. Bunday ko`rinishdagi doyralarning afzalligi shuki, ularga membrana sifatida tortilgan sun`iy plastiklar tabiiy teri kabi havo haroratiga qarab ovoz xususiyatini o`zgartirmaydi. Har qanday sharoitda ham bir xil sadolanadi. Ammo plastikdan yasalgan doyralarda, ularning sadosida o`zbek xalqining milliyligini namoyon qiluvchi jihatlar, o`ziga xos shirali, haqiqiy o`zbekona ruhdagi, tinglovchiga zavq beruvchi sadolanish yo`q desak, adashmagan bo`lamiz. Shuning uchun ham tabiiy xomashyodan yasalgan doyralar necha asrlar buyon xalqimizning sevimli cholg`ulari qatorida doyrachilar qo`lidan tushmay kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomov D. “Moziydan sado” monografiya – Toshkent: “Ekstremum press” nashriyoti, 2019-y.
2. Toshmatov O`, Turatov S. “Ko`hna cholg`u ijrochiligi” – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2016-yil.

<sup>13</sup> Panjiyev Q.B. Surxondaryo viloyati o`zbek xalq qo`shiqchilik ijodiyoti. San.fan.nom.dissertatsiyasi. – Toshkent: 2010-yil. O`zR FA San`atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv. № 1033, 90-bet.

<sup>14</sup> Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg`ular (o`zbek va tojik musiqa an`analari misolida). Toshkent. 2005-yil, 144-bet.

3. Panjiyev Q.B. “Surxondaryo viloyati o‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti”. San.fan.nom.dissertatsiyasi. – Toshkent: 2010-yil. O‘zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv. № 1033.
4. Saidiy S.B. “Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg‘ular (o‘zbek va tojik musiqa an‘analari misolida)”. Toshkent. 2005-yil.
5. Qobilqoriyev Q. “Doira cholg‘usining o‘zbek milliy musiqa madaniyatidagi o‘rni”. Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: 2020-yil.

## CHOLG‘UCHILAR DASTASINI TASHKIL QILISHDA NAZARIY VA AMALIY KO‘RSATMALAR

**Odilov Askarali Ismailovich**  
**Haqqulov Sherzod Mahmudoli o‘g‘li**  
**Samarqand davlat universiteti (dotsent)**  
[askarali\\_odilov@mail.ru](mailto:askarali_odilov@mail.ru) tel. (94) 284 47 65

O‘qituvchi sinfga yoki musiqa xonasiga kirib kelgandan so‘ng to‘garak a‘zolari bilan salomlashib, so‘rashib olgach, jurnalga talabalarning ya‘ni rubobchi sozandalar darsga kirganligi haqida yo‘qlama joyiga belgilab qo‘yadi. So‘ngra cholg‘u asboblari jo‘rlashga, ya‘ni fortepiano cholg‘usining «**lya**» tovushini eshitib, cholg‘ularni shu notaga qarab sozlab oladilar va ijro etishga tayyor ekanligini ma`lum qladilar.

Talabalar ijro malakalarini oshirish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda barmoqlar harakati mashqlarini sekin – asta ijro eta boshlaydi. Barmoqlar harakati ya‘ni o‘ng va chap qo‘l mutanosibligi sezilgandan so‘ng, ansambl a‘zolari berilgan gammalar (tovushqator) ijrosiga o‘tadilar. DO major, RE major, MI major va ularning parallel minorlarini har – xil usul va uslublarda ijro etib berishi nazarda tutiladi. Shundan so‘ng har – xil murakkablikdagi etyudlar ijrosiga o‘tiladi[1;34].



Shu narsani ta'kidlab o'tish joizki, cholg'uchilar ansambliga berilgan badiiy asarlarda uchraydigan usul (shtrixlar) ni rivojlantirish uchun etyud va mashqlar tanlanadi. Mashqlar ham ma'lum bir tizimda berilishi kerak.

Asosan texnikaviy mashqlar va etyudlarni ijro etish, bu o'z navbatida cholg'uchilarning ijro mahoratini oshirishga zamin yaratadi. Cholg'uchilar dastasida malakaviy ijro mahoratini oshirish va ularni rivojlantirishni o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan ularning ro'hiy holatiga ham bog'liqdir.

Texnik malaka va ko'nikmalar hosil bo'lgandan keyingina cholg'uchilarga ularning imkoniyatlariga mos keladigan oddiy kichik musiqiy asarlardan tanlab berish lozim.

O'qituvchi, rahbar cholg'u asbobini qo'liga olib o'zi avval ijro etib ko'rsatsa, kuyning mohiyatini tushuntirib bergandan so'ng, dasta qatnashchilari shu kuyni eshitib cholg'uda ohangini topib ijro etishga harakat qiladilar.

Bu uslub o'quvchilarning, ya'ni dasta qatnashchilarining eshitib uni xotirada saqlab chalish qobiliyatini rivojlantiribgina qolmay, balki, ularning musiqiy qobiliyatini tarbiyalashga, umuman ijroga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashqlarni oddiydan murakkabga erishish tamoyili sifatida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisolanadi. O'quv mashqlarini o'zlashtira borgan sari, cholg'ularda ijro sur'ati tezlashib boradi. Sababi, ilgari o'zlashtirilgan malaka va ko'nikmalar shu tariqa rivojlanib hamda mustahkamlanadi. Bajariladigan ishni aniq tushungan talabalar har bir muayyan holatda nima qilishini va nimalarga erishishni hamda ularni qanday yo'l bilan amalga oshirishni biladigan bo'ladilar.

Buning natijasida diqqat – e'tiborni jamlab, fikrni bir yerga to'plab, ishlash ko'nikmasi paydo bo'la boshlaydi. Shu bilan birga va mashqlarni ijro etayotgan vaqtda, notalarni sanab chalish va ularni nomlarini aytib, kuylash, ko'rganini eslab qolish qobiliyatini oshiradi. Talabalarda xotiraning rivojlantirishga va shu notalarni baland – pastlik darajasini tez anglab olishga yordam beradi.

Berilgan badiiy asarni ma'lum qismini ijro etish vaqtida, avval uni sust tempda chalib berishi maqsadga muvofiqdir, chunki, tez sur'atda ijro etilgan asarda ko'p xatoliklar borligi ko'zga tashlanadi. Uy vazifasi dasta qatnashchilari uchun qancha tushunarli bo'lsa, ijroning bajarilishi ham shuncha osonlashadi. Uy vazifasini cholg'uchilar ijro etib ko'rsatib chalayotgan vaqtda bir oz adashib chalishi

mumkin, lekin o'qituvchi tinglayotgan paytida musiqiy asar qanchalik chala bo'lmasin, cholg'uchilarni chalishdan to'xtatmasdan, asarni oxirigacha eshitishi zarur. Darsni birdaniga xatolarni tuzatishdan boshlab, ha deb ularni to'xtat deb qistovga olsa, ularning ijrochilik irodasini va ijodiy tafakkurini so'ndirishi mumkin [2;78].

Musiqiy badiiy asarlar ustida ishlayotgan davrda, cholg'uchilar dastasiga musiqa rahbari asta – sekinlik bilan har – xil milliy bezaklarimizdan o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Agar ularga birinchi bosqich paytidan boshlab melizmlarni tushuntirib borilsa, ijrochi to'rtinchi bosqichga qadar ancha yutuqlarga erishishi mumkin.

Shuning uchun birinchi mashg'ulot darsdan boshlab, so'z orqali va o'qituvchining ijrosi misolida talabaga milliy bezaklarimizdan *nola, molish, kashish, bidratma, trell* singari bir qancha melizmlarni oson tushuntirilib, ijroda qanday sadolanishini cholg'uda ko'rsatib berish zarur. Bundan tashqari o'zbek xalq kuylarida uchraydigan **zarblar** to'g'risida axborot berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oddiy *yakka zarb, qo'sh zarb, teskari zarb, ufor zarb bilak zarb, pirrang* kabi zarblarni talaba ongiga singdirib borish kerak.

Agar cholg'uchilar berilgan asarni oddiy usullar bilan chalsa, undagi malaka va ko'nikmalar yetarli darajada emasligi ko'zga tashlanadi, aksincha, ular ijroda milliy bezaklardan foydalangan holda oddiy **nola**, va **qo'sh zarb** yoki **trellardan** unumli foydalanib, dinamik tuslarni mohirona ishlatishga erishsa, unda eshituvchi bevosita cholg'uchilar dastasining ijrosiga qoyil qoladi, yoki boshqacha qilib aytganda biror bir nazoratdan ijobiy baho olishga muvassar bo'ladi.

To'garak qatnashchilariga yangi mavzuni tushuntirishda yoki badiiy asarning qolgan ma'lum bir qismini tahlil qilishda, o'qituvchi didaktik prinsiplarga rioya qilgan holda, ularga bilishi zarur bo'lgan ko'rsatmalarni beradi. Ya'ni musiqiy asarni ma'lum bir qismini cholg'uchilarga cholg'u asbobi vositasida og'ir tempda ijro etib ko'rsatib berishi kerak, cholg'uchilarda shu kichik fraza to'g'risida ma'lumot paydo bo'la boshlaydi. So'ngra ular shu jumlaning (frazani) uyda mustaqil o'zlashtirishga kirishadi [3;42].

**To'garak a'zolari cholg'uchilar dastasining musiqa asari ustida ishlash jarayonining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

- a) o'qituvchi bilan birgalikda asar tanlash,
- b) birgalikda asarni tahlil qilish,
- v) asar muallifi to'g'risida axborot olish
- g) asarning maqsad va vazifasi to'g'risida,
- d) asarning shakli va turlarini bilish,
- e) ma'noli va ifodali ijroning yo'l – yo'riqlari,
- k) asarning texnik qiyinchiliklarini engish mashqlari.
- l) dinamika va temp ustida ishlash mashqlari,
- m) jo'rnavoz bilan ansamblni shakllantirish.

Xulosa qilib aytish kerakki, yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarni hammasini bajargandan so'ng **cholg'uchilar** dastasida badiiy ijroga bo'lgan tasavvur kuchayadi. Rubobchi sozandarda ijro mahoratini oshirish to'g'risida bo'lgan fikrlar yanada kengayib, uslubiy mashqlar, gamma va etyudlar hamda badiiy asarlar ijro etishda o'zi ko'zlagan maqsadga erisha olish istagi rivojlanganini seza boshlaydilar. Shu uslub orqali cholg'uchilar o'zi uyda mustaqil dars tayyorlashni maqsad qilib oladi. Mana shu uslublarni keyingi darsga uyga vazifa qilib, cholg'u asboblari vositasida ijro etib ko'rsatib berishligi muhim ahamiyat kasb etadi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Odilov A.I. «Musiqiy ta'limda pedagogik mahorat asoslari», (Ma'ruzalar matni) Samarqand, SamDU., 2009
2. Odilov A.I. «O'zbek xalq cholg'u asboblari tarixi», SamDU., 2010
3. Odilov A. «Musiqqa o'qitishning innovasion texnologiyalari» (O'quv uslubiy majmua) – Samarqand – SamDU nashri ., 2011
4. Abdullayeva Sh.A., Axatova D.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Ma'ruzalar matni. Navoiy, 2003 2005
5. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Toshkent, 2001

## NAY CHOLG‘USIGA BIR NAZAR

Vahidov Yusuf Kadirovich

O‘zDSMI

“Cholg‘u ijrochiligi” kafedراسi dotsenti v.b.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek xalqining qadimiy va sevimli cholg‘ularidan hisoblangan nay tarixi, ijrochilikdagi o‘ziga xos jihatlar, cholg‘uning tuzilishi hamda takomillashuv jarayonlari, shuningdek, hozirda nay ijrochiligi rivoji yo‘lida olib borilayotgan ishlar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** nay, labium, ijrochilik mahorati, qamish, bambuk.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об истории най, считающейся одним из древних и любимых инструментов узбекского народа, ее особенностях в исполнении, строении инструмента и процессах его совершенствования, а также о проводимых в настоящее время работах. в сторону развития игры на най.

**Ключевые слова:** най, лабиум, исполнительские мастерство, тростник, бамбук.

**Annotation:** This article tells about the history of nai, which is considered one of the ancient and favorite instruments of the Uzbek people, its performance features, the structure of the instrument and the processes of its improvement, as well as the ongoing work, towards the development of the game on nai.

**Key words:** nay, labium, performing skills, reed, bamboo.

Dunyoda shunday kuylar borki, elat, millat degan tushunchalardan qat’iy nazar har qanday ko‘ngilni o‘ziga rom eta oladi. Musiqa qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Xalqimiz hayotida xam musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib kelgan. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay

sozining topilishi ham shundan dalolat beradi. O‘zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish musiqa cholg‘ulari o‘zining betakror va jozibadorligi, ovozi tarovatining beqiyosligi bilan milliy musiqa madaniyatimizda alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, ular inson dunyoqarashining shakllanishiga ham o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda buyuk tabib Abu Ali Ibn Sino ba’zi bemorlarni sevimli kuylar ta’sirida davolagani tarixda ma’lum. Juda qadimdan arab shifokorlari ham musiqa inson tanasiga tez ta’sir etishini anglab, bemorlarni musiqa yordamida davolaganlar.

Nay so‘zi aslida forscha bu turkiy tilda qamish degan ma’noni bildiradi. Sharq xalqlarida umuman ma’lum bir o‘ziga xos falsafasi mavjud. Musiqashunoslarimiz tarixda juda ko‘p naychilarning nomlarini keltirishadi. Shuningdek, Zayniddin Vosfiyning “Ajoyib voqealar” nomli kitobida Shayx Noyi, Xo‘ja Abdullox Narver kabi naychilarni bo‘lganligi va ular judayam chiroyli ijro etganliklari to‘g‘risida tariflar mavjud. Yoki XVI asrda yashab o‘tgan Darvishali Changiyni “Tuxfatul surur” risolasida ustod Qurbon Ali Noyi, ustod Poyanda Muxammad Noyi, ustod Xasan Ali nag‘masoz kabi naychilarning xam nomlari keltiriladiki, o‘sha davrda bular o‘zlarining naydagi ijrosi bilan xalqimizni dilida va qalbida qolganliklari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Necha yuz yillar o‘tdi, musiqa cholg‘ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o‘z o‘rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda. Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo‘nalishda joylashgan ko‘p teshikli nay. Bu turdagi naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda xam Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vietnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizg‘a, ozarbayjonlar ney (juda kam uchraydi), choor (cho‘ponlarning cholg‘u asbobi), o‘zbeklar nay deb ataydi.

Nayni Buryatiya va Mongoliya Xalq Respublikasida limba, Xitoyda li, Afg‘onistonda esa mola deb yuritiladi.



Nay cholg'usi tarixdan bizga ma'lumki, suyakdan, mevali daraxtlardan, katta qushlarning qanotlaridan, yog'ochdan (yog'och nay), jezdan (mis nay), g'arov (g'arov nay), to'nkadan (bridji nay) yasaladi. O'zbekiston va Tojikistonda juda keng tarqalgan. Eng ko'p tarqalgan yog'och nay bilan g'arov nayidir. Nay so'zining etimologiyasi va nay tarixi Shumer tilidan forschaga o'zlashgan "na" yoki "nay", "qamish", "nayza" ma'nolarini anglatuvchi cholg'u asbobining eng qadimiy nomlanishidir. Arablarda puflab chalinadigan cholg'ularning barcha turi uchun qo'llaniladigan "mizmar" so'zi nay uchun ham qo'llaniladi. Turkchada esa haligacha "nay" sifatida yodga olinadi.

Shumerlarda mil.avv. 5000 yillardan beri foydalanilayotgan bu cholg'u eng qadimiy bo'lib, mil.avv. 2800-3000 yillardan qolgan, bugungi kunda Amerika Filodelfiya muzeyida saqlanadi.

Nay cholg'usi katta tarixga ega bo'lsa-da, bugungi kunda ushbu cholg'u – ijrochilik jihatidan ikki xil yo'nalishga:

- 1 – an'anaviy ijrochilik – bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo'shiqlari;
- 2 – nota orqali ijro - bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo'shiqlari bilan birga, O'zbekiston va jaxon kompozitorlarining turli janrlarda yozilgan asarlarini ijro etish.

Mazkur musiqa cholg'usi silindr shaklida yumaloq ichi g'arov bo'lib, diametri 20, 30 mm ni uzunligi esa 45, 52 sm ni tashkil etadi. Nayda ijro etish uchun o'ng va chap qo'llarning uchtadan barmoqlari ishlatiladi. Ulardan bosh qismdagi bitta alohida teshik puflash uchun, qolganlari esa barmoqlar bilan bosib tovush chiqarish uchun qo'llaniladi. Ovozning past yoki balandligiga qarab nay teshiklari barmoqlar bilan butun yoki yarim berkitiladi. Nay cholg'usida yettita maxsus teshikchalar mavjud. Ulardan bittasi cholg'uning yuqori tomonida puflash uchun mo'ljallangan. Bu teshikning pastrog'ida qo'l bilan berkitib ochiladigan oltita teshik bo'ladi. Bu teshiklarni barmoqlar bilan chala yoki to'la bosib va puflash kuchini o'zgartirib

tovushqator hosil qilish mumkin. Barmoq bilan berkitiladigan teshiklarning qarama-qarshi tomonida tovushlar muvozanatini saqlashga yordam beradigan ikki yoki uchta teshik bo'ladi.

An'anaviy o'zbek cholg'u ansambllar tarkibida nay yetakchi sozlardan xisoblanadi. Kuy boshlanadigan pardaga bog'liq holda nayga moslab boshqa musiqa cholg'ulari sozlangan. Shuning uchun naydagi barmoq chalgich teshiklar berkitilish soniga qarab milliy sozandalar orasida besh qo'l, to'rt qo'l, uch qo'l deb nomlanuvchi sozlash turlari ham qo'llaniladi. Hozir nay cholg'usining o'rni yakkanavoz va jo'rnavoz sifatida yanada kengaydi. Undan xalq cholg'u ansambllari va orkestrlarida foydalanishning yangicha usullari yuzaga keldi. Demak nay sozi o'zbek ansambl jamoalarida, yakkanavozlikda, folklor jamoalarida va orkestrlarida, hattoki hozirda estrada yo'nalishida ham keng qo'llanilib o'zining yetakchi o'rini tutadi.



Nayda barmoq bilan yopiladigan oltita teshiklari va puflab chalinadigan bitta teshik "labium" joylashgan. Sozning balandligi nayning yuqori qismini ichkarisida joylashgan tiqin (probka) va harakatlantiruvchi golovka bilan tartibga solib turiladi. Golovka yoki probkani siljitish bilan havo to'lqinini ko'paytirish va shu bilan birga, tovushni pasaytirish va kuchaytirish mumkin.

XVIII asrga kelib nay cholg'usi barmoq bilan bosiladigan teshikchalarga qo'shimcha klapanlar o'rnatilib takomillasha boshladi va XIX asrga kelib nems

fleyta cholg'uchisi Tyopl Biom nomli ijodkor pardalari berkitib va ochiladigan moslama cholg'u yaratdi. Unda teshiklari berk pardalar tashkil topgan va hozirgi fleytalar hamda boshqa puflab chalinadigan cholg'ular Tyopl Biomning ishlab chiqqan pardalari bo'yicha shakllangan. Hozirgi kunda turli metaldan yasalgan ovozi mayin va chiroyli bo'lgan cholg'ularni Yevropada fleyta nomi bilan mashhur bo'lib ketdi.



Nayning ovozi juda yoqimli. Bu cholg'u ikki holatda, ya'ni o'tirib va tik turgan holatda ijro etiladi. Nay fortepianoning yoki chang cholg'usining lya notasiga sozlanadi. Nay chalish sabog'ini olayotgan har bir yosh o'quvchi va talabalarimiz, nay sozining tuzulishi va tarixini o'rganish, ushbu cholg'uda ijod qilgan ustozlar hayoti bilan tanishish va ular ijro etgan dilrabo ohanglardan bahramand bo'lishlari maqsadga muvofiq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi (1995 yil, 20 oktabr) Farmoni // O'zbekiston ovozi. –Toshkent: 1995, 21 oktabr.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O‘qituvchi, 1998, 56 b.
3. S.Begmatov va boshqalar. Musiqa madaniyati: 6 – sinf uchun darslik. -T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 2001. – 144 b.
4. A.H.Jabborov O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. –T., 2004.-238 b.
5. Musiqa psixologiyasi. –T.: Musiqa, 2005. – 78 b.
6. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish. Ped. fan. dokt. . diss. -T., 2000. – 305
7. Batir Do‘simbetov. “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” – Toshkent, 2021.-240 b
8. Madaniyat va san’at atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2015.- 137 b
9. Y.Rajabiy. I. Akbarov. O‘zbek xalq musiqasi tarixi, (O‘qituvchi). 1981 yil.
10. Matyoqubov B.J “Damli va zarbli cholg‘ularda chalishni o‘rgatish uslubiyati”, “O‘zbekiston davlat konservatoriyasining tahrir – nashriyot bo‘limi”, Toshkent, 2008. 109 bet.

**CHANG CHOLG`USIDA IJRO KO`NIKMALARINI  
O`ZLASHTIRISH USLUBIYOTI**

**Alimova Saboxat,**  
Termiz ixtisoslashtirilgan  
san`at maktabi o`qituvchisi

Ma'lumki davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy, ma'naviy, marifiy sohalardagi faoliyatni yangi tizim asosida yo`lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Maskur tashabbusning birinchisi yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san`atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, istedadini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Yurtimiz aholisining 30 % ni 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit - qizlar tashkil etadi. Ularning talim olishi va kasb - hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli hamda samarali o'tkazishni tashkil etish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa turli yot illatlarga qarshi imuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi, shu bois ushbu masalani yoritmoqlik va amalda bajarish ayni muddaodir.

Ushbu mavzu professor Axmad Odilov tomonidan ilk marotaba o'rganib chiqilgan. Uning Toshkent Davlat Konservatoriyasidagi faoliyati davomida qilgan amaliy ishlari va yozib qoldirgan manbalari bunga yaqqol misoldir. O'sha davrlardagi yani XX asrning ikkinchi yarimidan so'ng tashkil etilgan changchilar ansambli uzoq vaqt o'z dasturlari bilan mamlakatimizning turli tadbirlarida, O'zbekiston televideniya-sida ishtirok etib xalqimiz olqishlariga sazovor bo'lishgan. Bu mavzuni yana boshqa muttaxislar - Rustam Nematov, Fazilat Shukurova, Tohir Sobirov, Anvar Lutfillayevlar amaliy va ilmiy darajasini o'rganib chiqqanlar.

Chang sozi ishtirok etgan ansambl yoki orkestr ijro madaniyatini tahliliy o'rganinsh, bir turdagi Changchilar ansabl ijrosini shakllantirish, sifatli hamda mohirona ijod maktabini keng yo`lga qo'yish bugun ham dolzarb hisoblanadi. M.:

- Chang cholg`u ijrochilik maktabi va uning namoyondalarini o'rganish;
- Chang cholg`usining paydo bo'lishi, istemolda qo'llanilgan davri haqida o'rganinsh;
- Chang cholg`usining ansambl va orkestrdagi o'rni, ahamiyatini o'rganinsh;
- Chang cholg`usida mohirona ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish uslublarini o'zlashtirish;
- Joylarda changchilar ansamblini tashkil etish, mukammal ijrosini ta'minlash hozirgi zamon cholg`u san`atning vazifasini anglash;



- Bo`lajak changchi sozandalarni tarbiyalash jarayonida ularni chang cholg`usi bilan yaqindan tanishtirish, cholg`uning milliy musiqa merosimizda tutgan o`rni haqida ma`lumotlar berish, ilmiy izlanishlarga o`rgatish muhim va zamon talabi hisoblanadi.

Xalq cholg`ulari uzoq o`tmishda paydo bo`lgan. Ma`lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg`ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, rubob, tanbur kabi torli cholg`ular, shuningdek damli cholg`ularning tariflari berilgan.

Byuk Sharq mutaffakkirlarining merosi halq cholg`ularini o`rganish sohasida tarixiy qimmatga ega. **Abu Nasir Farobiy, Abu Ali Ibin Sino, Sayfiddin Urmaviy, Abduraxmon Jomiy Darvesh Ali Changiy** kabi musiqashunos olimlarning yozma manbalarida xalq cholg`ulariga ta`rif berilgan. Darvesh Alining risolasida yozilishicha chang cholg`uchilar xomiysi – Zuxroga bag`ishlanib tariflangan. Changning yeti maqom ijrosi uchun 26 tori va yeti pardasi bo`lgan risolada changchi Dilorom, Mavloni Merik, Changiy buxoriy va ko`pgina mashhur ustalarning nomlari tilga olingan. Chang o`rta asrlarda eng keng tarqalgan cholg`u sifatida ko`plab adabiy manbalarda qayt etiladi. Chang cholg`ularini o`z asarlarida Firdavsiy - Ozoda, Navoiy – Dilorom, Nizomiy esa fitna deb atashgan. XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma`lumotlarni qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkin, yani bu davrga kelib O`rta Osiyoda xalq cholg`ularida ijrochilik madaniyati o`z kamoliga yettgan.

O`quvchi-yoshlarga o`rgatiladigan ko`nikmalar va o`tiladigan ijrochilik darslari jarayonida changchi sozandalar maktabi, ularning ijodiy faoliyati, ular haqidagi yozma manbalar, ularning chang sozi uchun moslashtirilgan va ijro etgan asarlari hamda faoliyat yuritgan changchilar ansambllari haqida yosh ijrochi sozandalarga mukammal bilim berib borish zarurligini eslatib o`tamiz. Xalq cholgulari ijrochiligida chang cholg`usining ijro mohiyatini o`quvchilarga o`rgatish uslubiyati mazmuni shakli va yo`nalishlarini mujassam etish maqsadga muvofiq. Chang cholg`usining o`ziga xos betakror va noyob tovushini ijro etish natijasida amalda o`rganinshning ahamiyati, cholg`uning tarixiy taraqqiyoti bilan tanishish ham nihoyatda muhimdir.

Chang cholg`usi turlarining sadolanish imkoniyatlari quyidagicha:

- **Pikkolo chang** – diapazoni birinchi oktavadagi “do” dan uchinchi oktavadagi “lya”gacha;
- **Tenor chang** – diapazoni katta oktavadagi “sol”dan ikkinchi oktavadagi “mi”gacha; kichik oktavadagi do dan birinchi oktavadagi solgacha;

- **Bas chang** – diapazoni katta oktavadagi “do” dan kichik oktavadagi “sol” gacha .  
Hozirgi payitda mavjud changning ijro imkoniyatlari kengaytirildi. Chang sozida tovush chiqarish yo`llari bittadan to`rttagacha oshiriladi bular:
- **Urma zarb** – asosiy tovush chiqarish yo`li. Chang cho`plarini torlarga birin ketin urib tovush hosil qilish;
- **Cho`p chertma Pizzicato** col legno (Pizz.col legno) – cho`plarni orqa qismi bilan tirnab (chertib) chalish;
- **Barmoq chertmasi Pizzicato** (Pizz) – qo`l barmoqlari bilan chang torlarini mayin chertib chalish;
- **Cho`p tarak col legno** (colleg) – cho`pning orqa yassi qismida chang torlarini chiqqillatib urib chalish.

Chang cholg`usidagi shtrixlar, yani ijrochilik sanati o`ld uslublari quyidagicha:

- 1) Kalta urma zarb (stakkato). Chang cho`plarini torlarga urib, yengil, uzib-uzib, sakratma tovush hosil qilish;
- 2) Rez (tremolo) chang cho`plarini torlarga tez – tez almashtirib urib yoki cho`plarning orqa yassi qismi bilan davomli chertib, rez hosil qilish;
- 3) Bog`lama (legato) tovushlarni bir tekis ulab, cho`plar bilan torlardan torlarga uzluqsiz mayin o`tib chalish;
- 4) Surdinali (bo`g`ma) kalta zarb (sitakkato kon sardino). Jaranglab turgan chang torlarini chap qo`l barmog`i bilan tez-tez tovush so`ndirib, kalta bo`g`in tovush hosil etish.
- 5) Tebratma (vibrato). Sho`p chertmali uslubni qo`llagan holda jaranglayotgan yon qatoriga tutashgan qisimini bo`sh qo`lning o`rta barmog`i bilan asta to`lqinlantirib tebratib chalish;
- 6) Cho`p sirg`atma (gilisando) - Cho`pning orqa yalang qismi bilan bir tovushdan ikkinchi tovushga. Pasdan yuqoriga yoki yuqoridan pasdga cho`plar bilan tovushlarni sirg`antirib chalish.

Ansambil haqida umumiy tushunchalar.

Ansambil so`zi fransuscha olingan bo`lib, ensemble - hamjihatlik bir butunlik manosida keladi. Musiqa istilohida esa hamohanglik, uyg`unlik demakdur. Anig`roq aytadigan bo`lsak ko`pchilik sozandalarning birgalikdagi ijrosi. Ansambillar turli xil ko`rinishda faoliyat olib borishadi. Bularga: cholg`uchilar ansambli, vokal ansambli, estrada vokal ansambli, birturdaga cholg`uchilar

ansambli (duet, trio, kvartet, kvintet va hakoza), raqqosalar ansambli, maqomchilar ansambli hamda shu kabilar kiradi. Ansambl tushunchasi san'atning boshqa sohalarida ham uchraydi.

Ko'p ovozli ijro ikki asosiy ko'rinishga ega, agar ko'p ovozli musiqada birinchi ovoz alohida ahamiyatga ega bo'lsa qolgan ovozlari unga jo'r bo'ladi, bu musiqiy tilda gomofoniya (yunoncha homos – teng, fone – tovush; ovoz) deb ataladi. Har biri alohida mustaqil bo'lgan birnecha kuy yo'lini garmonik tarzda qo'shib rivojlanib borishi, esa polifoniya (yunoncha poli – ko'p, foni – tovush; ovoz) deb ataladi.

O'zbek musiqasida ko'p ovozlilik an'analari xalq kuy va qo'shiqlarini garmoniyalash hamda polifonik shakllardan keng foydalanish XX asrdan ishlatila boshlagan. Bu esa, o'z navbatida o'zbek kompozitorlarning yangidan yangi ko'p ovozli yirik asarlarni yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Ansambl va orkestrlarning umumiy jihatlari va farqlariga kelsak, Orkestr (yunoncha orchestra yunon teatrida saxnaning old maydonchasi) - musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi cholg'u asboblari yig'indisi va shu asboblarni chaluvchi musiqachilar kollektivi. Orkestr ansamblidan dirijyor tomonidan boshqarilishi va ba'zi partiyalar yakka sozanda emas, balki sozandalar guruhi tomonidan ijro etilishi bilan farqlanadi. Sozlarning turlari va tuzilishiga ko'ra, orkestrlar simfonik orkestrlar, xalq cholg'ulari orkestri, kamer orkestr, damli cholg'ular orkestri, torli cholg'ular orkestri, Estrada orkestri, jaz orkestri va boshqa turlari mavjud. O'zbekistonda orkestrlarning barcha turlari mavjud.

Orkestr va ansambilning umumiy jihatlari: har ikki jamoada ham badiiy rahbar mavjud. Orkestr va ansambilning garmonik tarzda qo'shilishi bazan bir xil bo'lishi mumkin. Har ikki jamoaning ham cholg'ularning mavjudligi, yani turlari bir xil bo'lishi mumkin. Ijro etiladigan asboblari ham bir biriga to'g'ri kelishi mumkin.

Orkestr yoki ansambl ijrosida chang cholg'usi yakkaxon tarzda tanlangan asarni chalsa ohanglar o'zgacha sado beradi albatta buning uchun cholg'uchi avvalambor yetuk sozanda va o'z partiyasini yaxshi bilishi, shu bilan birga ikkinchi ovozni yaxshi sezgan holda hamsado (garmonik) tovushlarni anglab yetishi lozim.

Chang cholg'usi orkestr tarkibidagi ikkinchi (urma torli) guruhga mansub bo'lib ushbu cholg'uga mo'ljallangan partiyani boshqa cholg'ular ijro etsa to'la qonli sado bermasligi mumkin. Chunki chang sozida mavjud bo'lgan texnik imkoniyatlar va ijro uslublarini boshqa cholg'ulariniki bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Orkestr va chang uchun I.Xamrayev konserti, S.Boboyev, A.Mansurov, M.Otajonov kabi kompozitorlarning chang va orkestr uchun yozgan asarlari ko`p yillar mobaynida yetuk sozandalar tomonidan chang sozida ijro etib kelinadi.

S.Yudakov "Farg'onacha raqs", C.Rustamov "lezginka", Narimanidze "Davluriy", o'zbek xalq kuyi "Rohat", "Farg'onacha jonon" va shu kabi boshqa kuylar changchilar ansambli ijrosida talqin qilinsa cholg'uning texnik imkoniyatlarini namoyon etish, cholg'uchilarning ijro mahoratlarini oshirish uchun omil hisoblanadi.

O`quvchilarning badiiy musiqiy didini o`stirish, nazariy bilimlarini oshirish, amaliy ijro mahoratlarini rivojlantirish uchun joylardagi barcha musiqa ixtisoslashtirilgan san`at maktablarida ansambl to`garaklarini tashkil etish va ularning har ikki oyda natijasini, yani hisobotini internet tarmoqlari orqali yoritib borilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Changchilar ansamblga kelsak, chang cholg`usi murakkab, torlarning ko`p bo`lganligi sababli uni soz xolatiga keltirishi uchun ko`p vaqt, katta mehnat mashaqqat talab etiladi. Yagona sozga keltirilishi esa mushkul. Boz ustiga bizning iqlim juda o`zgaruvchan, musiqa cholg`ularimiz esa tashqi muhitga ta`sirchandir, changchilar ansabl ni tuzish uchun maskur cholg`uning soz ushlab mukammallik darajasida bo`lishi darkor, shunday bo`lsad bugungi kunda biror bir musiqiy jamoa yo`ki unda chang sozi jaranglamasa orkestr, ansamblarda ko`rik tanlovlarda, konsertlarda ushbu soz alohida o`ringa va e`tiborga sazovordir. Changning ovozi ijro imkoniyati ijodiy jamoalarda katta ahamiyat kasb etadi. O`qituvchi yosh sozandalarga chang cholg`usini to`g`ri saqlash qoidalarini eslatib o`tishi kerak. Chang sozini toza va quriq saqlagan holda saboqdan bo`sh vaqtda sozni matodan tikilgan g`ilofda yoki taxtachadan yasalgan qutida tik va yopiq holda avaylash kerak, o`quvchilarga chang sozi nechog`li murakkab bo`lsada uni hayotga tadbiiq qilish chanchilar ansambli tuzish va ansambl ijrosini keng jamoatchilikka namoish etish kerakligini uqtirish lozim. Professor Axmat Odilov hayotlik chog`id mavjud bo`lgan chang bas cholg`usini iste`molga yana kiritish yo`llarini toppish masalasini ko`rib chiqishni muttahasislardan iltimos qilmoqlik joizdir, shunday qilib o`quvchilar musiqa ta`limining muhim jihatlaridan biri bo`lmish ansambl va orkestr ijrochiligiga nisbatan talabni kuchaytirishlari kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev Sh.M. **“Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”**. – T.: “O`zbekiston”, NMIU, 2017.-488
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori **“Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”** (O`zR Qonun xujjatlari to'plami 2017y, 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son 982-modda).
3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich: **“Milliy taraqqiyot yo`limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz ”** T. O`zbekiston - 2017
4. Axmat Odilov : **“O`zbek xalq chog`ularida ijrochilik tarixi”**. Toshkent O`qituvchi - 1995
5. Abduvaxob Saxiyev: **“Milliy cholg`u asanblari uchun asarlar.”** Gafur Gulom nomidagi nashiriyot matbuot ijodiyot uyi Toshkent - 2016
6. Anvar Lutfillayev: **“Xalq cholg`ularida ijrochilik (Chang) ”** Toshkent – 2017

**XALQ QO`SHIQLARI -USTOZLAR SAYQALIDA**

**Xolmirzayeva Xumora Bahodirovna**

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi  
huzuridagi Botir Zokirov nomidagi  
milliy estrada san'ati instituti , estrada  
xonandaligi kafedra 2 kurs magistranti

Musiqqa – ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch beraoladigan jon ozug'idir. Qudratli kuchga ega bo'lgan musiqqa o'z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi.

Musiqani qalbi go'zallikka ishtiyoqmand kishilargina sevadi, anglaydi. Musiqqa tinglash va uni idrok etish bolalikdan singdirib boriladi, tarbiyalanadi.

Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkomol inson haqida gapirib bo'lmaydi. Musiqqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning muhim vositalaridan hisoblanai. Musiqqa badiiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega san'at turidir.



Musiqqa sanati xaqida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqqa sanatisiz erishib bo'lmaydi...Musiqqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarini ifoda etadi," deb quyidagicha fikr bildirganlar.

Xalq bayramlari, sayillari, katta yig'inlari, to'y-tomoshalarini musiqqasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ularda yangragan har bir kuy-qo'shiq, raqs ishtirokchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Marosim, bayram va sayillarda ijro etilgan, xalq tomonidan yaratilgan qo'shiqlar tabiat manzaralariga, ijtimoiy voqelikka bo'lgan munosabatlari natijasida vujudga kelgan.

Xalq musiqqasi ming yillar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog'onalariga ko'tarildi, har bir xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylandi. O'zbek halq musiqqasi xalqning turmush tarzi, ahloq odobi, diniy e'tiqodining ayrim jihatlarini o'zida mujassamlashtirib, orzu- umidlari, mehnatga, vatanga bo'lgan muhabbati, sevgiga vafodorlikni tarannum etadi.

O'zbek xalq musiqqasi tabiat, jamiyat hodisalari va inson hulq-atvoridagi go'zallikni idrok etishga, ulardan zavqlanishga xizmat qiladi. Barcha xalq qo'shiqlari muayyan sharoitda yuzaga kelib hayotni o'zida aks ettiradi. Xalq musiqqasi san'at asarlarining kishilar ongiga eng ta'sirchan vosita sifatida tevarak-atrofdan ro'y berayotgan voqea va hodisalarni singdirishga yordam beradi. Xalq qo'shiqlarini musiqqashunos olimlarimiz turlicha guruhlariga bo'ladilar:

- a) mehnat qo'shiqlari;
- b) oilaviy-maishiy marosimlar qo'shiqlari;
- v) diniy marosimlarda kuylanadigan qo'shiqlar.

Xalq qo'shiqlari va musiqqasi ijodkorlarni har doim o'ziga jalb qilib kelgan. Har bir xalq folklorini qayta ishlash bastakordan asarlarni puxtalik bilan o'rganib chiqishni talab etadi. Ayniqsa, bu jarayon tabiatan bir ovozli bo'lgan xalq qo'shiqlari bilan ishlashda o'ta noziklik ila namoyon bo'ladi. Ko'p ovozli milliy musiqqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarining o'rni beqiyosdir.

Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan baxra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganib olishimiz lozim. O'zbekistonda musiqqa, tasviriy, monumental va amaliy sanat sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodifiy emas. Bu sanat turlari chet elda keng etirof etilgan. Milliy va jahon eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va

ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni manaviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak.

Buyuk, atoqli o'zbek kompozitori Mutavakkil Burxonov o'zbek va qardosh xalqlar qo'shiqlariga qayta sayqal berib jamoaviy ijro uchun moslashtirgan birinchi kompozitorlardan. Uning badiiy yetuk darajada qayta ishlangan o'zbek xalq qo'shiqlari: "Yorlarim" ("Tanovar"), "Go'zal qizga" ("Ganji Qorabog'"), qoraqalpoq xalq qo'shig'i "Bibigul", uyg'ur xalq qo'shig'i "Sayra", tojik xalq qo'shiqlari "Zarra gul" va "Sari ko'hi baland" kabi jo'rsiz asarlari hali-hamon kompozitor va yosh ijodkorlarga namuna sifatida xizmat qilib, ijro etib kelinmoqda.

Xalq qo'shiqlarini, ya'ni monodik qo'shiqlarni qayta ishlash jarayonidagi ko'povozlilikning dinamik sur'atini o'sish tamoyillarini kuzatar ekanmiz, ko'povozlilik uslubida nisbatan oddiy shakl bo'lgan kvarta-kvinta intervali, paralel ovozlarning harakatini ko'rishimiz mumkin.

Xalq qo'shiqlarini qayta ishlashda antifon (dialog), kanonli, imitatsiya yo'llardan juda ko'p foydalaniladi, chunki ular musiqaning milliy tabiatini, uning turli ko'rinishlarini yorqin ko'rsatib berishga, o'zbek monodiyasi shaklini unga xos sadolar doirasida ochib berish va ko'povozlilik bo'yoqlari bilan boyitishga imkoniyat yaratadi. Ko'povozlilikning boshqa uslublari shakllanishlari qatorida, folklorning qayta ishlashda polifonik xat usullaridan foydalanish, professional kompozitorlarga hamda xalq qo'shiqlarini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchilar uchun ham oddiy holga aylandi.

Qo'shiqlarni qayta ishlashdagi manbalaridan biri usul hisoblanadi. Darhaqiqat usulning o'zbek musiqasida badiiy - ifodaviy xususiyatlari beqiyosdir. Turli xil ritmik usullarga boy doiraning zarblarini ham ko'povozlilikka moslashtirishda kompozitorlarimizning mohirona, rang-barang effektlardan foydalanishlarini ko'ramiz. Xalq qo'shiqlarini ko'povozlilikka moslashtirishda yana ko'plab koloristik effektlar-yumiq ovoz, unli tovushlarni vokallashtirish, maxsus bo'g'in birikmalaridan ("bum-bak", "ra-na-na", "rak-tak-tak", "yor-yor", "yoroney"), qarsak chalish, barmoqlarni qirsillatish, turli hil xayqirishlardan foydalanish qo'shiqlarni yanada musiqiy rivojini boyitadi va kuchaytiradi. Melizmlar, forshlag, mordentlar kuylarni yanada bezab ularni yanada jozibaliroq, nafisroq, go'zalroq bo'lishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, estetik hissiyotni tarbiyalash insonning yoshlik davrlaridan boshlanadi. Milliy g'urur, milliy tuyg'u, milliy qadriyatlar, an'analarga sadoqat, ona

zaminga hurmat - bularning barchasi insonga uning yoshlik davrlaridan boshlab singdirilgan.

Barchamizga ayonki, kuy qo‘shiqqa san‘atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u asbobi bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh tasirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Eng muhimi bugungi kunda musiqa sanati navqiron avlodimizning yuksak manaviyat ruhida kamol topishida boshqa sanat turlariga qaraganda kuchliroq tasir ko‘rsatmoqda.

Bolalarni xalq qo‘shiqlari asosida tarbiyalash ham eng muhim vazifalardandir. Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq artisti dirijyor, kompozitor Sh.Yormatovning juda ko‘plab bolalar xalq qo‘shiqlarini bolalar xorlari uchun moslashtirgan asarlarini ta‘kidlab o‘tish joizdir. “Boychechak”, ”Chittigul”, ”Lolacha”, ”Bu gulshan soz”, ”Jamalagi tillo” kabi bolalar xalq qo‘shiqlarini bastakor bir necha yillik tajribalariga asoslangan holda bolalar xori uchun moslashtirdi. Jamoa ijrosida bu qo‘shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, tasirchanligi yanada kuchaydi.

Demak, xalq musiqasi hamda xalq qo‘shiqlari orqali inson ruhiyatiga estetik ta‘sir ko‘rsatish kishida hayotning haqiqiy go‘zallikdan zavqlanish qobiliyatini, odamlar baxt-saodati yo‘lida ijodiy mehnat qilish, ma‘naviy barkamol inson bo‘lishga intilishlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Kuy-qo‘shiq insonning inson bo‘lib ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy-ma‘naviy omil hisoblanadi. Xalq qo‘shiqlarining har bir turi insonni ma‘naviy jihatdan tarbiyalashda o‘ziga xos vazifani bajaradi.

Xalq qo‘shiqlarini ko‘povozlilik ijro mazmunida ham ezgulik g‘oyalariga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat, o‘z tarixi, madaniyati bilan mag‘rurlanish, pok vijdon, halol mehnat, yaxshilik, sadoqatli bo‘lish kabi insoniy fazilatlarning mano-mohiyati ifodalangan. Xalq qo‘shiqlari insonlarni ma‘naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga, ularni birlashtirishga va insonlarda estetik zavq uyg‘ota oladigan san‘at turlaridan biridir. Bu san‘at sog‘lom yosh avlodni, yoshlarning manaviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o‘stirishga xizmat qiladi.

## TALABALARNING MUSIQIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA REPERTUAR MASALASI

**Xurshid Beknazarov**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida dotsent v.b.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning ijrosi uchun reperuar ularning imkoniyatidan kelib chiqib tanlanishi, tanlangan reperuar talabaning musiqiy kompetentligini oshirishga xizmat qilishi kerakligi xususida so'z borada.

**Kalit so'zlar:** san'at, musiqa, pedagog, cholg'u, risola, ta'lim, tarbiya, an'ana.

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о том, что репертуар для выступления учащихся должен подбираться исходя из их возможностей, выбранный репертуар должен служить повышению музыкальной компетентности учащихся.

**Ключевые слова:** культура, музыка, педагог, музыкальные инструменты, книга, образование, воспитания, традиция.

**Аннотация.** In this article, the repertoire for the performance of the students should be chosen based on their capacity, with the chosen repertoire to serve to increase the musical competence of the student

**Key words:** art, music, pedagogue, musical instrument, brochure, education, upbringing, tradition

Musiqa san'ati qadimdan xalqimizning boy madaniy merosi hisoblanib, u davrlar o'tishi bilan shakllanib, takomillashib milliy mumtoz san'atimizdan to bugungi zamonaviy estrada san'atiga qadar malakali, iqtidorli ijodkorlar tomonidan sayqallanib bugungi kunga qadar yetib keldi. Bu borada o'qituvchi-pedagoglarning xizmatini ham alohida qayd etish zarur. Zero, biron bir kasb yo'qki, ustozning ko'magisiz o'rganilsa, egallanilsa. Qadim Yunonistonda ilk marotaba tilga olingan pedagog atamasi bugun kundalik hayotimizga shunchalar singib ketganki, har bir soha va kasb avvalida unga murojaat qilinadi.

O'qituvchi, muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan katta e'tibor qaratilib, zamon talabidan kelib chiqib, pedagogka qo'yiladigan talablar ham takomillashib, murakkablashib boravergan.

Repertuar masalasi har bir pedagogning pedagogik mahorati, bilim darajasini, uning iqtidorini belgilaydigan mezonlardan biridir. Bunda har bir o'qituvchi auditoriyaga xos, mavzuga mos tarzda repertuar tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bir qaraganda talaba yoki biror musiqa jamoasi uchun repertuar tanlash arziyas yumushdek ko'rinadi. Lekin shu repertuarni to'g'ri va o'z o'rnida tanlash muhim jarayon hisoblanadi. Boisi, tanlangan repertuar talabani, o'quvchini mahoratini oshirishga yoki aksincha qiziqishini so'ndirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Ayni vaqtda musiqa ijrochiligi ham shu qadar tez rivojlanmoqdaki bundan bir necha yil oldin oliy ta'lim muassasasi talabalari yoki professional musiqa jamoalari ijro etgan musiqa asarlarini hozir musiqa va san'at maktablarining musiqa jamoalari va o'quvchilari mahorat bilan ijro etmoqda. Bu o'z navbatida musiqa san'ati quyidan yuqoriga qarab rivojlanayotganligini, o'rta ta'lim sifati bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganligini anglatadi.

Bir qaraganda hozir yaxshi musiqa asarlarni topish qiyindek. Nimadir kerak bo'lsa internetdan izlab topish eng maqbul yo'ldek. Internetdan izlagan musiqani mp3, mp4 variantlari topish mumkin ammo nota variantini topish amrimahol. Natijada kerakli asarni eshitib o'rganish (sulxavoy ya'ni quloq bilan eshitish orqali), yoki notaga tushirib o'rganish talab etiladi. Notaga tushirganda to'g'ri asl holiga yaqin bo'lsa yaxshi, lekin hatolar ko'p bo'lsa asl musiqani buzib ijro etilishiga olib kelishi mumkin. Har bir musiqa asarini ijro etganda uning badiiy bezagiga alohida e'tibor berish kerak. Chunki musiqaning o'ziga xos qochirimlari ohanglari, badiiy bezaklari borki ularsiz ijro etilayotgan asar o'z mohiyatini, o'sha millat ruhini, kalaretini ochib bera olmaydi. Ayniqsa, Sharqona ohang inson ruhiyatiga shu qadar chuqur ta'sir qiladiki uni butun dunyo musiqashunoslari ham alohida e'tirof etgan.

Shu kunga qadar xalq musiqalari asosida yaratilgan kompozitor asarlari tinglovchilar tomonidan qizg'in kutib olingan. Zero, xalq musiqalarida odamlarning dard-u quvonchi, qayg'u va iztirobi o'z aksini topgan bo'lib, shuning uchun ham u vaqt sinoviga bardosh berib kelmoqda. Biroq so'nggi yillarda mahoratli sozandalarimizga aksariyat xollarda yaxlit musiqa asarlarini topish biroz muammoga aylanmoqda. Bu borada kompozitorlarimiz talaygina asarlar bastalab taqdim etishmoqda ammo ular sozandalar tomonidan muntazam ijro etilmayapdi. Bunda ayrim kompozitorlar xalq musiqalaridan uzoq bo'lgan ohanglardan foydalanayotganliklari sabab shunday xolat yuzaga kelayotgan bo'lsa ajab emas.



Aksariyat talabalar ustozni tanlab bergan, o'zi uchun u qadar tanish bo'lmagan musiqa asarini ijro etadi. Ba'zilar esa o'z xohishlariga ko'ra tanlashadi. Shuni aytib o'tish kerakki har bir sozanda o'z xato va kamchiliklarini tashqaridan nazar solib ikkinchi odamdek xis eta olmaydi. Ustoz bo'lsa talabaning mahoratini oshirish uchun uning kamchilik, kemtik nuqtalarini to'ldirish, ustirish, boyitish uchun shu jixatlarni to'ldirishga xizmat qiladigan asarlarni tanlab beradi. Bunda ustoz o'z repertuarida milliy musiqiy kuylardan, qo'shiqlardan foydalanishi, "Shashmaqom" dan o'lmas asarlarni o'rgatishi muhim sanaladi. Shu boisdan, nodir va boy san'atimiz durdonalarini yoshlarga o'rgatishda ustozlardan ham ulkan ilmiy salohiyat, zamonaviy yondashuv, psixologik tadqiqot va albatta milliy merosimizdan suv ichgan boy repertuarlar tanlash talab etiladi.

San'atshunos Feruza Asqar, "Musiqqa va inson ma'naviyati" kitobida umumta'lim maktablarda "Musiqqa madaniyati" fani yetarlicha darajada o'tilayotmaganligi xususida to'xtalib kompozitor Ikrom Akbarovning fikrini keltirib o'tgan. Ikrom Akbarovning fikriga ko'ra, boshlang'ich ta'lim bo'g'inidagi jiddiy nuqsonlar shundan iboratki, "ashula darslari, odatda, rasmiyat uchun o'tiladi va bolalarning estetik hamda umumbashariy didi shakllanishiga juda kam darajada yordam beradi. Ba'zan maxsus musiqa maktablarining o'quvchilari ham musiqa tarixi, madaniyat masalalarida eng oddiy narsalarni bilmaydilar"

Buning oqibatida, bir tomondan kelgusida professional musiqachi bo'luvchilar madaniy-ma'naviy saviyasida kemtiklik alomatlari paydo bo'lib qolmoqda, ikkinchidan, o'z professional saviyasini yuksak darajaga chiqara olmagan "san'at"korlar xilining ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda deb ta'kidlaydi.

Har bir sozanda ijro etish uchun asar tanlayotganda o'z imkoniyatini ochib bera oladigan asar tanlashga intiladi. Repertuar tanlash muxim vazifalardan biridir. Sozanda asar tanlaganda fakat klassik asarlarni ijro etmasdan xalq musiqalaridan bastakorlar asarlaridan, qardosh xalqlarning asarlaridan ham ijro etishi kerak. U boshqa xalq musiqiy asarlarini ijro etayotganda o'zini o'sha elat vakili sifatida xis qilib, kuy bilan ruhan birlashib ijro etsagini tinglovchining qalbidan chuqur joy oldadi. Bu albatta qiyin, masalin Qurmang'azining "Balbiraun" asarini dutorda yoki dutor primada yoyinki dumbrada mahorat bilan ijro etilgan variantini eshitingu, so'ng qozoq sozandasining ijro etgan variantini eshitib solishtirib ko'ring. Albatta farqi katta.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, nodir va boy san’atimiz durdonalarini yoshlarga o‘rgatishda ustozlardan ham ulkan ilmiy salohiyat, zamonaviy yondashuv, psixologik tadqiqot va albatta milliy merosimizdan suv ichgan boy repertuarlar tanlash talab etiladi. Tanlangan har bir repertuar talabalarning musiqiy kompetentligini oshirishga xizmat qilsin.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Sharipova G., Asamova D., Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: 2014, 108 bet
2. Sayfullayev B., Isakulova N. Kasbiy pedagogika. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya. 2015. – 214 b.
3. Qodirov R.G. Musiqa pedagogikasi. Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2018.- 616 b.
4. Feruza Asqar “Musiqa va inson ma’naviyati” Toshkent “O‘zbekiston milliy ensiklopidiyasi” 200. -96 bet 14 bet, 24-25 betlar

## ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA, MUSIQA DARSLARI SIFAT SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING EKSKLYUZIV XUSUSIYATLARI

**Iroda Erkin qizi Sattarova**

Termiz davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti  
bobur.shoturayev@gmail.com

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada musiqa darslarida zamonaviy metodlar yordamida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, ularning sifat samaradorligini ta'minlashning eksklyuziv xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** musiqa ta'limi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter, musiqiy dasturlar, pedagogik dasturlar.

### **Abstract**

This article talks about the exclusive features of ensuring the quality effectiveness of music lessons using information and communication technologies using modern methods

**Keywords:** music education, information and communication technologies, computer, music programs, pedagogical programs.

### **KIRISH**

Ta'limga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha amaliy tajribalarni o'rganish, kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'limning deyarli barcha bo'g'inlarida mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish keng tus olmoqda. Bizningcha bu har bir darsda pedagogik texnologiyaning u yoki bu turini qo'llash kerak degan xulosani bermasligi kerak. Ilg'or pedagogik texnologiya qachon samarali bo'ladi, u o'quvchilar uchun qiziqarli, ularni faollashtiruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlashga, mushohada qilishga yo'naltira olsa.

Ta'lim sohasida kompyuterlashtirish, internetlashtirish, shuningdek, axborotlashtirish jarayonlari mavjud. Ushbu o'zgarish natijasida ta'lim sifati, samaradorligi va mavjudligi yaxshilanmoqda. O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim

va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan bir qatorda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yagona interaktiv axborot makonini yaratish dolzarb masala bo'lib qoldi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta'lim tizimida, ayniqsa oliy pedagogik ta'lim tizimida pedagog – kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko'tarishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyati o'qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'limni texnologiyalashtirish eng muhim vazifalardan bo'lib turibdi.

O'qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta'lim–tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o'qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni musiqa darslari misolida izohlaydigan bo'lsak, o'qituvchi avvalo o'zining so'z mahorati, cholg'u asbobida chalish, qo'shiq kuylash, turli ko'rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o'ynaydi.

Musiqa darslarida aksariyat o'quvchilar o'qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o'qituvchining shaxsiy “namunasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik yetakchi o'rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hech qanday maqsadga erishib bo'lmaydi.

Puxta tashkillashtirilgan ilmiy - pedagogik tayyorgarlik ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi o'qituvchilar muntazam ravishda o'zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta'lim – tarbiya samaradorligini ta'minlashda, kelajak uchun mas'ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda boshqalarga o'rnak bo'lib xizmat qiladilar. Demak har bir ta'lim bo'g'inida shu jumladan umumta'lim maktablarida “Musiqa madaniyati” darslarini olib boruvchi ilg'or pedagoglarning innovatsion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib, rag'batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritishda eng muhimi o'quvchilarni

ushbu faoliyatga tayyorgarligi va qiziqishlarini inobatga olish va kerakli texnologiyani tanlash hisoblanadi.

O`quv muassasasi u maktabmi, kollejmi, oliy o`quv yurtimi u yerda asosiy maqsad o`quvchi yoki talabaga bilim berish hisoblanadi. O`qituvchi bilim berishdan tashqari bilim berishning eng qulay, samarali yo`llarini izlab, ta`lim jarayonini qiziqarli va mazmunli o`tishini tashkil etadi. Bunday faoliyatning o`zini ta`lim texnologiyasi deb atash mumkin. Ta`lim texnologiyasi (yunoncha “tehne” – mahorat, san`at, “logos” – tushuncha, ta`limot ma`nolarini anglatadi) yoki pedagogik texnologiyada pedagogik ta`lim berishning turli yo`l, usullarini o`z faoliyatiga joriy etish bilan birga bu jarayonning natija berishiga ishonch hosil qilish kerak.

Hozirgi vaqtda pedagogik dasturiy ta`minotning turli xil klassifikatsiyalari va tipologiyalari juda ko`p. Ushbu uslubiy maqsadga muvofiq pedagogik dasturiy vositalar quyidagilar bo`lishi mumkin: kompyuter darsliklari (darslari); o`quv dasturlari (repetitorlar); nazorat qilish (sinov chig`anoqlari); ma`lumot va ma`lumotnoma (entsiklopediyalar); taqlid; modellashtirish; namoyish (slayd yoki videofilmlar); o`quv o`yinlari; bo`sh vaqt (kompyuter o`yinlari: rol o`ynash, mantiqiy, sport va boshqa turlari). Musiqiy ta`limda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o`qitish vositalari, shakllari va usullarini optimallashtirishga, muayyan ta`lim muammolarining oqilona echimlarini topishga, o`quv jarayonini takomillashtirishning tegishli usullarini tanlashga imkon beradi, an`anaviy muammolardan kelib chiqadigan bir qator qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kompyuter ta`lim dasturlarining quyidagi turlari mavjud: elektron darslik; elektron musiqiy entsiklopediya; kutubxona ma`lumotlarini qidirish tizimlari; bilimlarni boshqarish kompyuter dasturlari. Bugungi kunda musiqiy kompyuter dasturlari musiqiy ta`limning quyidagi asosiy yo`nalishlari bo`yicha ishlab chiqilmoqda. Musiqachining badiiy tafakkurini tarbiyalash; amaliy ko`nikmalarni shakllantirish; musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish; ijodiy faoliyat; atamalarning asosiy tushunchalarini o`rganish; nazariy bilimlarni ta`minlovchi dasturlar - ular talabalar tomonidan musiqiy asarlar tuzish qonunlari va qoidalarini, asosiy nazariy tushunchalarni o`zlashtirishga qaratilgan. Dasturlar, qoida tariqasida, ko`plab musiqiy atamalarni, musiqiy savodxonlik va musiqa nazariyasining elementlarini,



notalarni, akkordlarni va boshqalarni aniqlash uchun test topshiriqlarini tushuntirib beradigan o'yin va ta'lim bo'limlarini o'z ichiga oladi. Solfedjio, garmoniya, polifoniya an'anaviy mashg'ulot shakliga muvofiq nazariy fanlardan biridagi darsga taqlidni ifodalaydi yoki uzoq muddatli mashqlarni talab qiladigan individual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, dastur talaba bilan pedagogik muloqotni olib borishi, fikr-mulohazalari bo'lishi va baho berishi kerak.

Eshitish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar - intonatsiya, garmonik, ohangdor eshitish va hokazolarning sofligini rivojlantirish bo'yicha turli treninglarni o'z ichiga oladi. Ular tarkibida notalar, intervallarni, tarozilarni va boshqalarni aniqlashda mashq qilishga imkon beradigan turli xil eshitish diktantlari mavjud. Musiqiy adabiyot dasturlari - bular kitoblar, ensiklopediyalar, MIDI fayllari ko'rinishidagi musiqiy asarlar to'plamini, tegishli bastakorlar va musiqachilarning qisqa tarjimai hollarini o'z ichiga olgan turli xil musiqiy asarlar to'g'risidagi kichik rasmi ma'lumotnomalar va ushbu material bo'yicha kichik viktorina bo'lishi mumkin. Musiqa va musiqiy adabiyotlar tarixi bo'yicha dasturlarning matnlari slaydlar va reproduksiyalar, musiqiy asarlardan parchalar, videofilmlar bilan tasvirlangan, tanlangan musiqiy va badiiy asarlar va maqolalar slayd-shousi bilan birga rivoyatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Zamonaviy musiqa amaliyotida yangi axborot texnologiyalaridan tobora ko'proq foydalanilmoqda, bu zamonaviy madaniyatning bir qismiga aylandi. Elektron musiqa asboblarining (sintezatorlar, namuna oluvchilar, musiqa kompyuterlari) tobora ko'payib borayotgan turlari mavjud. Musiqiy ta'limda multimedia tizimlaridan foydalanish musiqiy entsiklopediyalar, kitoblar, ma'lumotnomalar va lazer kompakt-disklariga yozilgan turli xil antologiyalardan ta'lim maqsadida foydalanish imkoniyatini beradi. Zamonaviy musiqa darsi - bu darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompyuter texnologiyalari va elektron musiqa asboblaridan foydalaniladi.

Musiqa darsi ijodiy muhitni yaratishi bilan ajralib turadi, chunki musiqa darslarining mazmuni hissiyotlar va ularning sub'ektiv tajribalaridan iborat. Ushbu o'ziga xos tarkib turli xil texnikalarni, ish turlarini va yangi multimedia vositalarini tanlashni belgilaydi. Musiqiy kompyuter texnologiyalari musiqiy mahsulotlarning texnik reproduksiyasida printsiptial jihatdan yangi bosqichni ochdi. Musiqiy notadan, amaliy musiqa janrlarida, ovoz yozish vositalarida, ovozni qayta tiklash

uskunalarining sifatli imkoniyatlari, teatr va konsert tadbirlarida, ovoz dizayni va musiqiy eshittirishlarda foydalanib kelinmoqda.

XXI asr musiqiy pedagogikasi sohasidagi yetakchi yoʻnalishlardan biri bu talabalarni axborot va kompyuter texnologiyalari bilan tanishtirishdir. Axborot va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish obʻektiv ravishda zarur. Birinchidan, bastakorlar va ijrochilarning kasbiy tayyorgarligi uchun, ikkinchidan, yordamchi oʻquv materialining manbasi sifatida foydalanish (maʼlumotnoma, oʻqitish, tahrirlash, ovoz yozish, ovozni koʻpaytirish va hk). .).

Kompyuter dasturlari, shuningdek, cholgʻu asboblarini chalishni oʻrgatishda, musiqiy quloqni rivojlantirishda, musiqiy asarlarni tinglashda, kuylarni tanlashda, musiqiy matnni tartibga solish, improvizatsiya qilish, matn terish va tahrirlashda ham qoʻllaniladi. Kompyuter dasturlari sizga asbobning diapazonini, ijrochining parchalarni ravonligini, zarbalar va dinamik soyalarni bajarilishini, artikulyatsiyani va boshqalarni aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, kompyuter sizga "orkestr" bilan qismlarni oʻrganishga imkon beradi. Shuningdek, u dirijyor "simulyator" vazifasini bajarishi mumkin (televizion uskunalar yordamida). Kompyuter dasturlari musiqa tarixi davomida asarlarning ohanglarini (mavzularini) musiqiy va auditoriya tahlilini oʻtkazishga imkon beradi. Koʻpgina musiqiy fanlar uchun kompyuter bibliografik va entsiklopedik maʼlumotlarning qimmatli manbasidir. Vizual taqdimot yoki illyustratsion materialga imkon beradigan kompyuter taqdimotlari bilan keng tarqalgan loyiha topshiriqlari, oʻqitishga yangi axborot texnologiyalarini joriy etish belgilangan tashkiliy shakllar va oʻqitish usullarining modifikatsiyasini belgilaydi.

Oʻqitishning yangi zamonaviy usullari shaxsga yoʻnaltirilgan va rivojlantiruvchi taʼlim gʻoyalari amalga oshirish, oʻquv jarayonining barcha bosqichlarini mustahkamlash, uning samaradorligi va sifatini oshirish uchun moʻljallangan. Taʼlim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish tafakkurning vizual-majoziy va nazariy turlarini rivojlantirishni boshlaydi, shuningdek talabalarning ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Axborot texnologiyalari musiqa va unga aloqador mavzular uchun oʻquv jarayonining ajralmas qismidir. Axborot texnologiyalari imkoniyatlari boshqa va boshqa musiqa fanlarini oʻqitishda ham oʻqitish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Musiqada kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi istiqbolli, dolzarb va obʻektiv zarurdir. Axborot kompyuter texnologiyalaridan malakali va tizimli

foydalanish talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilarga vaqtni yanada samarali taqsimlash, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o'zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. O'qituvchining ta'lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta'lim samaradorligi ta'minlashning muhim kafolati bo'ladi. O'qituvchining pedagogik texnologiyalarini qo'llashida ularni mazmunli va samarali tashkil etishga oid bilimlardan yaxshi habardor bo'lishi qo'llanilgan texnologiyalarni dars samaradorligiga ijobiy ta'siri va natijalarni tahlil qilish baholay olish, tegiushli xulosalar chiqara olishi, o'z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'z galar nazari bilan baholash o'z bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lanishi va o'quvchilarni darsda faol ishtirokini ta'minlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **REFERENCES**

1. Qozog'iston Respublikasining 2007 yil 27 iyuldagi 319-III-sonli "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni (2012 yil 10 iyuldagi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. Oston, 27.01.2012. Zabolotskaya I.V., Terentyeva NA. Musiqiy ta'limdagi yangi axborot texnologiyalari // "Axborotlashtirish muammolari" nazariy va ilmiy-amaliy jurnal 1996 y. № 4.
3. Xizmat ko'rsatadigan televidenie Musiqa darslarida axborot texnologiyalari / TV xizmat ko'rsatishi mumkin. // Musiqani o'rgatish. - 2007. -№. 10.–C. 15.
4. Qodirov R. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash. – Toshkent, "G'. G'ulom." Nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997-yil.
5. Rajabova D. Fortepiano mashg'ulotlari. – Toshkent, O'qituvchi, 1994-yil.
6. Qoraboyev U. O'zbek xalq o'yinlari. – Toshkent, "San'at" – 2001-yil.
7. Abralova M, Soliyeva D. Musiqa. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008 – yil.

**MUSIQA TERAPIYASINI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA  
QO'LLASH USULLARI.****Saydaqulova Gulshona Odiljon qizi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Xalq Ijodiyoti Fakulteti

Cholg'u Ijrochiligi Kafedراس

II – kurs magistranti

Bugungi kunda musiqa savodini bilish, musiqa haqida tushunchalarga ega bo'lish inson tug'ilgandan boshlab ko'zga ko'rinmas holatda gavdalanadi. Ya'ni yangi tug'ilgan go'dakka ona allasini aytishi, ulg'aygan sari atrof muhitga moslashib o'yinli musiqalarni tinglashi, shovqinli atrofga boqib har bir narsaga e'tibor bilan qarashi uning musiqa sadolarini ajratib ulg'ayishi tabiat hamda insonga hos bo'lgan ko'nikmalardir.

Yoshi bir yarim – ikki yosh atrofidagi bolaning tili chiqishi uchun ota-ona u bilan ko'p suhbat qurishi kerakligi haqida bilamiz. Kattaroq bolalarda ham shunday. Bola tilining rivojlanishi aqliy rivojlanish bilan uzviy bo'g'liq. Bola bilan ko'p suhbatlashish, yoshiga munosib kitoblarni ko'proq o'qib berish, berayotgan savollariga aniq va tushunarli qilib javob qaytarish juda muhim. Bola gapirishni televizordan emas, muloqotdan o'rganishi kerak. Televizor yordamida tili chiqqan bolani jamiyatda muloqot qilish jarayonida muammolar kutishi mumkin. Ko'p gapiradigan bola ko'p ma'lumotga muhtoj bo'ladi. Ana shunday ma'lumotlarni ota-ona bolaning yoshiga munosib ravishda suhbat orqali taqdim eta olishi darkor. Bola kichikligidanoq o'z hissiyotlarini anglay olishi kerak. U salbiy yoki ijobiy his bo'lishidan qat'iy nazar bola uni berkitmasligi lozim. Aksincha, o'z hissiyotlarini tushunolgan bola ularni jilovlashni ham o'rganadi. Berkitish bilan jilovlashning farqi bor. Ota-onasidan qo'rqqani sababli ukasiga baqirmaslik bu hissiyotlarni yutib yuborish, berkitish deganidir. Lekin ukasi hali kichik va ba'zida xato qilib turishini ota-onasi tushuntirib bergan bola ukasidan jahli chiqsa, jilovlay oladi. Yoki ijobiy bir hissiyotni olsak: bola do'sti bilan o'yinchog'ini bo'lishmoqda. Shunda ota-ona bir daqiqa vaqtini ajratib, bolasiga qanday ajoyib ish qilganini, do'stini xursand qila olganini aytishi lozim. Shunda bo'lishish orqali paydo bo'ladigan xursandchilik hisi bilan bola tanishib oladi. Qarama-qarshiliklar o'yini 3 yoshdan katta bolalarni idrok qilishini oshirishda va matematik qobiliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, bolaga biror so'z aytasiz. Masalan, «gul». Bola bunga nisbatan qarama-qarshi bir fikrni aytishi kerak bo'ladi. Masalan, barg. «gul» va «barg» qarama-qarshi obrazlar. Gul so'zini eshitgan bolaning xayoliga birinchi bo'lib «tuproq» keladi. Lekin shunda

«tuproq» demay, bir soniya o'ylab, qarama-qarshilikni izlab uni izhor eta olish aqliy rivojlanishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar bolaning so'z boyligi kamroq bo'lsa, u holda xuddi shu o'yinni harakatlarda o'ynash mumkin. Masalan, siz bitta chapak chalasiz, bola ikkita yoki undan ko'proq, muhimi sizdan farqli miqdorda chapak chalishi lozim. Birinchidan, bu o'yin juda qiziqarli bo'lsa, ikkinchidan, bolada tabiiy ravishda o'ylash, fikr yuritish, fikrni to'g'ri izhor qila bilish, o'ylamay gapirmaslik, rejalashtirish, maqsadga erishish kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Bolaning shaxsiyatini shakllantirishning asosiy vazifasi - bolaning har tomonlama va uyg'un rivojlanishi. Bu vazifani musiqiy ta'lim bajaradi. N.K. Krupskaya san'atning bola shaxsini tarbiyalashdagi ahamiyatini shunday ta'riflaydi: "Biz san'at orqali bolaga o'z fikr va tuyg'ularini chuqurroq anglashi, aniqroq fikrlashi va chuqurroq his etishiga yordam berishimiz kerak." Shularga asoslanib, pedagogika. qoidalari, musiqiy ta'lim va rivojlanish kontsepsiyasini belgilaydi. bularga asoslanib, pedagogika. qoidalari, musiqiy ta'lim va rivojlanish kontsepsiyasini belgilaydi. Bolaga musiqiy ta'lim - bu musiqa san'atining ta'siri, qiziqishlari, ehtiyojlari va musiqaga estetik munosabatini shakllantirish orqali bolaning shaxsini maqsadli shakllantirish. Bolaning musiqiy rivojlanishi faol musiqiy faoliyat jarayonida bolaning shaxsiyatini shakllantirish natijasidir. Ko'pgina olimlar va o'qituvchilarning fikricha, musiqiy ritm hissi ta'lim va rivojlanishga mos kelmaydi. Musiqiy ta'limning vazifalari - bola shaxsini shakllantirish, bola shaxsini har tomonlama va barkamol tarbiyalashning umumiy maqsadiga bo'ysunadi va musiqa san'atining o'ziga xosligi va maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi.

Bola shaxsini estetik-axloqiy shakllantirish va shakllantirishda musiqiy tarbiya muhim ahamiyatga ega. Musiqiylik orqali bolalar madaniy hayotga qo'shiladi, muhim ijtimoiy voqealar bilan tanishadilar. Musiqani idrok etish jarayonida bolalarning bilimga qiziqishi, estetik didi rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi. Musiqa cholg'ularida chalgan bolalar odatda boshqalarga qaraganda ko'proq savodli bo'lishadi, (kirishuvchan, esda qolish qobiliyati kuchli va hokozo). Musiqa xayoliy fikrlashni ham, fazoviy tasvirni ham, kundalik mashaqqatli mehnat odatini ham beradi. To'rt yoshdan boshlab bolalar musiqa bilan shug'ullanishni boshlashga qulaydir. Muntazam musiqa darslari xotirani yaxshilaydi va bolalarning aqliy rivojlanishini rag'batlantiradi, deydi Kanadalik olimlar. Ular musiqa darslari va diqqatni jamlash qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligining birinchi dalillarini olishga muvaffaq bo'lishdi. Ma'lumki, musiqiy qobiliyat insonning boshqa ko'plab qobiliyatlaridan oldin namoyon bo'ladi. Musiqiylikning ikkita asosiy ko'rsatkichi, hissiyot orqali sezgirlik va musiqaga quloq solishi, bola hayotining birinchi oylarida



paydo bo'ladi. Chaqaloq quvnoq yoki sokin musiqaga hissiy jihatdan javob berishga qodir. U diqqatini jamlaydi, tinchlanadi, agar u musiqaning ovozi eshitsa. Quvnoq, raqsga tushgan kuy eshitilsa, uning yuz ifodasi o'zgaradi, harakat bilan jonlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bola hayotining birinchi oylaridayoq tovushlarni balandligi bilan ajrata oladi. Bu haqiqat, ayniqsa, professional musiqachiga aylanganlar uchun yaqqol ko'rinadi. Motsart to'rt yoshida ajoyib qobiliyatlarni namoyon etdi, u organ, skripka chaldi, besh yoshida o'zining birinchi kompozitsiyalarini yaratdi.

Shunday qilib bolaga musiqa savodini o'rgatib borish yaxshi natijalar berishini bilib oldik. Ho'sh Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limini terapevtik tarzda tashkil qilinsa qanday natijalarga erishiladi. Birinchi navbatda "Musiq terapiyasi" degan savolga javob olsak. Musiq terapiyasi bu insonga terapevtik maqsadlarga erishishda yordam beradigan musiqiy aralashuvlardan foydalanadigan intizom. U klinik va tarixiy dalillarga asoslanadi va boshqa psixologik terapiya turlari singari, ushbu sohada ixtisoslashgan mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi kerak. Musiqiy terapiya jarayonida mutaxassis aralashuvni qabul qiladigan odamda jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy o'zgarishlarni yaratish uchun musiqani turli usullardan foydalanadi. Qo'shiq aytish, raqsga tushish, muayyan musiqa asarlarini tinglash yoki kompozitsiya qilish kabi turli xil tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin. Fikrimizcha Musiqiy terapiya g'oyasi bu, har hil tadbirlar, odamga barcha turdagi muammolarni hal qilishda va yangi ko'nikmalarni egallashda yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, musiqa ham insonga his-tuyg'ulari va fikrlarini osonroq ifoda etishga yordam beradi. MTMlari - Bolalar tarbiyalanadigan maskanlarda, Musiq terapiyasi - bu o'qituvchi va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir ko'rinishidir. Bugungi kunda ushbu yo'nalish bolalar bog'chalari va boshqa maktabgacha ta'lim muassasalarida juda mashhur. Odatda, musiqa terapiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda, shuningdek, boshqa terapiya turlarini davolashda qo'llaniladi – (terapiya usuli, ertaknamo usul terapiyasi va boshqalar). Kompleksdagi barcha ta'lim usullari bolalarda turli xil hissiy farqlarni, qo'rquvni, ruhiy kasalliklarni tuzatishga qodir. Otistik terapiya autizmi bo'lgan bolalarni davolashda va aqliy va nutq rivojlanishidagi kechikishlar mutlaqo ajralmas holga aylanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalari uchun musiqa terapiyasi nima? Bolalar guruhidagi musiqa terapiyasi quyidagi shakllarda ifodalanishi mumkin: Musiq tinglash, raqs tushish, xor aytish, o'zlarini musiqiy asarlarini yaratish, oddiy musiqa cholg'ularini o'rganish, Guruh shaklidan tashqari, ko'pincha bolaga ta'sir qilishning individual shakli qo'llaniladi. Bunday holda, o'qituvchi yoki psixolog musiqa kompozitsiyalari orqali chaqaloq bilan muloqot qiladi. Odatda bu usul, agar bolada ruhiy kasalliklar yoki rivojlanish

nuqsonlari bo'lsa, qo'llaniladi. Ko'pincha bu holat chaqaloq tomonidan azoblangan stressdan keyin paydo bo'ladi, masalan, ota-onalarning ajralishi yoki kaltak yeyishi bilan bog'liq. Bolalar singari musiqalar o'zlarining kayfiyatlarini yaxshilaydi, ruhini yengillashtiradi, ijobiy natija beradi, ozodlikka hissa qo'shadi. Ba'zi chaqaloqlar shodiyona musiqaga raqs qilish jarayonida uyatchanlikni to'xtatishadi. Bundan tashqari, raqs musiqasi jismoniy taraqqiyotning turli nogironligi bo'lgan bolalar uchun foydali bo'lgan motor faoliyatini rag'batlantiradi.

MTM da bolalar rivojiga musiqiy yondashish usullar Musiqani jonli yoki yozuvda tinglash mumkin (ijro, audio). Musiqa yordami bilan dam olish usullarini (masalan, mushaklarning progressiv gevşemesi "Dam olish" yoki chuqur hayollar kabi) o'rgatish. Tanish qo'shiqlarni ham kuylash (kapella) yoki cholg'u asboblari ostida. Do'mbira, gitara yoki zarbning bir turi kabi cholg'ularlarda chalishni o'rgatish. Musiqiy asarlarni asbob yordamida yoki ovoz bilan ta'sirlang. Qo'shiq so'zlarini yaratish, yozdirish yoki yodlash. Buni tuzing yoki bajarishni o'rgatish. musiqiy asarlarni tahlil qilish (ertaklarga asoslab). Musiqa ritmida raqsga tushing. Muayyan qo'shiq yoki improvizatsiya natijasida yuzaga kelgan o'zlarining hissiy holatlarini tekshirish va h.k. Mutaxassis musiqiy terapevt boshchiligidagi ushbu tadbirlarning barchasi bolalarning psixologiyasini turli xil jihatlari, masalan, ularning hissiyotlari, e'tiqodlari yoki bilim qobiliyatlari ustida ishlash uchun ishlatilishi mumkin.

Olimlar bolalarning psixo-emotsional holatini tartibga solish uchun klassik musiqa asarlari ro'yxatini tuzib chiqishdi: Xavotir va noaniqlik tuyg'ularini kamaytirish uchun - Shopinning Mazurka, Strauss Valslari, Rubinshteynning Ohanglari. Achchiqlanish, umidsizlikni kamaytirish, tabiatning go'zal olamiga mansublik hissini oshirish uchun - Baxning "Kantata №2", Betxovenning "Oy nuri sonatasi". Umumiy qulaylik uchun - Betxovenning "6-sonli simfoniya", 2-qism, Brahmsning "Lullaby", Shubertning "Ave Maria". Gipertenziya va boshqa odamlar bilan munosabatlardagi keskinlik alomatlarini yo'qotish uchun - Bax tomonidan skripka uchun "D minor kontserti". Hissiy stress bilan bog'liq bosh og'rig'ini kamaytirish uchun - Motsartning "Don Xuan", Liszt tomonidan "Vengriya rapsodiyasi №1", Xachaturian tomonidan "Suite Masquerade". Umumiy hayotiylikni oshirish, salomatlik, faollik, kayfiyatni yaxshilash - Chaykovskiyning "Oltinchi simfoniya", 3-qism, Betxovenning "Edmond Overture". Diqqatni, konsentratsiyani oshirish uchun - Chaykovskiyning "Fasllar", Debussining "Oy nuri", Mendelsonning "5-simfoniya".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak musiqa terapiyasi umumiy insonning emotsional holatga foydali ta'sir ko'rsatadi, boladagi barcha ulg'ayish jarayonida kerak bo'gan faolliklarga ta'sir etadi. agar: bolalar bilan musiqa terapiyasini mashq qilish uchun qulay sharoitlar yaratilsa; uslubiy yo'nalishlar ishlab chiqilgan; maxsus musiqa asarlari tanlanadi; bolalarda barcha hislar ishtirok etadi; musiqiy ta'sirning boshqa faoliyat turlari bilan uyg'unligi o'rnatiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https://gigafox.ru/uz/>
2. <https://minikar.ru/uz/>
3. <https://minikar.ru/uz/>
4. "Musiqa terapiyasi" A.Abduvahobov. 2021
5. "Музыкальная терапия для детей" Алвин Уорик 2022

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQIY CHOLG'ULARNI O'RGATISH VA TO'GARAKLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MASALALARI

**Aziz Sami Elbek**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Cholg'u ijrochiligi" mutaxassisligi 2-kurs  
magistranti.

Ilmiy rahbar: "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida dotsenti  
S.T.Turatov

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani hamda o'quvchilarda musiqiy cholg'ularga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va shu asnoda har bir o'quvchiga kamida bitta musiqa cholg'usini o'rgatish usul va ko'nikmalari haqida so'z yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается наука о музыкальной культуре в общеобразовательных школах и методы и навыки для пробуждения интереса учащихся к музыкальным инструментам и, таким образом, обучения каждого ученика хотя бы одному музыкальному инструменту.

**Abstract:** This article discusses the science of musical culture in general education schools and methods and skills for awakening students' interest in musical instruments and thus teaching each student at least one musical instrument.

**Kalit so'zlar:** farmoyish, qaror, musiqa madaniyati fani, musiqiy cholg'ular, to'garaklar.

### Kirish

So'nggi yillarda madaniyat va san'at sohalariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.15 2022/2023-o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar

---

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-112., 02.02.2022. Lex.uz

amalga oshirilishi madaniyat va san'at yo'nalishidagi yangi ta'lim muassasalari, yangi yo'nalishlar va ixtisosliklar ochilib, muassasalarning moddiy texnik bazalari mustahkamlanmoqda. Ushbu ishlar Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyish va qarorlari asosida amalga oshirilmoqda.

Ko'p asrli adabiyotimiz va san'atimiz g'oyat serqirra bo'lib, milliy qadriyatlarimizning teran ildizlaridan oziqlanib kelmoqda. Ulardan xalqimiz, millatimizning yangi-yangi avlodlari bahramand bo'layotganligi ayon haqiqat.

Prezidentimiz san'at va madaniyat sohasi vakillari bilan o'tkazilgan ochiq va samimiy muloqotida so'z yuritib, **“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagamiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi”**<sup>16</sup>, degan fikrni qat'iyat bilan ta'kitladi.

Bugungi kunda sog'lom avlodni tarbiyalash, ular ongida milliy mafkuramizni uyg'otish, jahon ta'lim standartlariga mos yosh kadrlarni tayyorlash bosh maqsadimizga aylanib, butun e'tiborimiz ta'lim va tarbiya masalasiga qaratilishi bugungi kun siyosatining asosiy maqsadidir. Shu bois yoshlarni rahmdil va yurtni sevish ruhi ostida tarbiyalaydigan ma'naviyat mash'alasi bu – musiqa fanidir.

Musiqa ta'limining ham bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni beqiyosdir. Bolalik va o'smirlk davrini olib qaraydigan bo'lsak, yosh bola ongida ma'lumotni tez ilg'ab olish funksiyasi yaxshi rivojlangan bo'ladi. 9 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarda esa eshitish qobiliyatining yaxshiligi, shu yoshda bolani aqliy imkoniyati yuqori ekanini aniqlab beradi. Misol uchun haftada kamida yarim soat davomida bir yoki bir nechta musiqa cholg'ularini chalishga urinib ko'rgan sakkiz yoshli bolalarda og'zaki va intellektual qobiliyatlarini ochib berishda musiqiy cholg'ular asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Faoliyatimiz davomida bir qator umumta'lim maktablarida ilmiy amaliyot o'tash mobaynida bolalarda musiqa madaniyati faniga bo'lgan qiziqishi yuqori darajada ekanligi bizni quvontirdi. Bunda har bir sinfdan o'qiydigan bolalardan musiqa fani haqida o'zlarining tushunchalarini so'ragan paytda hamma o'quvchilar bir ovozdan musiqiy cholg'ular haqida qolaversa, butun dunyo birdek foydalanib kelayotgan notalar ketma-ketligini sanay

---

<sup>16</sup> Xalq so'zi gazetasi 2017 y. 4 avgust



boshladilar. Demak, bolalarda musiqa fanini o'zlashtirish uchun tayanch tushunchalar mavjud ekan. Davlatimiz rahbari shu soha vakillari faoliyatini bekorga tanqid qilmadi. Musiqa madaniyati fani o'qituvchisidan bugungi kunda talab etilayotgan vazifalar juda katta mas'uliyat bilan ishga yondashishga undaydi. Kamida uchta musiqiy cholg'ularda mukammal ijro qila olish mahoratiga ega o'qituvchilarning oylik ustama haqlari oshirilishi bevosita shu soha vakillarini quvontiradi. Haqiqatan ham o'zi ijro mahoratiga ega bo'lmagan pedagogning faoliyatidan nima ham kutish mumkin?!. Bu bir qator salbiy vaziyatlarni yuzaga keltirib chiqarishi ayon haqiqatdir. Misol uchun musiqa madaniyati fani o'qituvchisi hech qanday musiqiy cholg'ularsiz darslarni o'tganda, o'quvchilarda eng qiziqarli darsdan zerikish hissi uyg'ona boshlaydi. Sinf xonasida shovqin yuzaga keladi. O'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan gaplashishi va boshqa shunga o'xshash holatlar nafaqat o'quvchining balki o'sha fan o'qituvchisini ham psixologiyasiga ta'sir o'tkazadi. Bunday paytda agar o'qituvchining qo'lida musiqa cholg'usi bo'lganida darsning bu qadar tez o'tib ketganini ham sezmasdan qolishar edi.

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanidan dars berayotgan o'qituvchilarning qo'lida hech bo'lmaganda birgina musiqiy cholg'usi bo'lishini va shu cholg'uda mukammal ijro mahoratiga ega bo'lish bilan bir qatorda cholg'uni o'rganish ishtiyoqi bor o'quvchilarga pedagogik mahoratini ishga solgan holda o'rgatmog'i kerakligi taklifini kiritgan bo'lardim. Chunki, sozda mohir ijro qila olgan sozanda pedagogik mahoratga ega bo'lmasligi mumkin yoki buning teskarisi. Vaziyatdan kelib chiqib o'quvchining cholg'uga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirib qo'ymaslik lozim. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini tashkil etish, musiqa va ashula darsini yangicha uslubda samarali o'tish hozirgacha ayrim joylarda talab darajasida emas. Umumta'lim maktablarida hozirgi kunda musiqa bo'yicha oliy ma'lumotli o'qituvchilar yetishmasligi sababli ayrim maktablarda musiqa madaniyati fani ikkinchi darajali fan hisoblanib, boshqa fan o'qituvchilariga berib qo'yilganini ham guvohi bo'lamiz. Natijada o'quvchilar bu fandan aytarlicha qoniqish hosil qilmaydilar. O'quvchilarni o'qitish ularga musiqiy savodxonlikni yetkazish va ularni cholg'u yo'nalishlarida mukammal mutaxassis qilib yetishtirishda dars jarayoni muhim rol o'ynaganidek, ularga ta'lim berish bilan bir qatorda tarbiya berish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Xar bir o'qituvchi, darsni qiziqarli o'tishi, ilg'or texnologik metodlardan foydalangan xolda zamonaviy tusda davr talabi darajasida darsni tashkil etishi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'z kasbi ustida tinimsiz mexnat qilib o'z kasb mahoratini oshirib borishi, mustaqil ijod

qilishi o'z ijodidan talabalarni ustoz-shogird yo'nalishida singdirib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Musiqiy cholg'ularni o'rgatish vaqti mobaynida to'garak tashkil etish va o'quvchilarni jalb qilishda agar musiqa o'qituvchisi darsda musiqiy cholg'ular bilan dars jarayonini o'tkazgan bo'lsa, bunda hech qanday qiyinchiliklarsiz to'garak tarkibini kengaytira oladi. Bunda o'quvchilarning yoshiga qarab tasniflanadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar ham musiqiy faoliyatdan bahramand bo'lishlari mumkin, bunda uydagi norasmiy musiqiy tajribalar va til rivojlanishining o'ziga xos jihatlari o'rtasidagi bog'liqlik haqida so'z yuritiladi.

4 yoshdan oshgan bolalarda til va musiqiy qobiliyatlar o'rtasidagi bog'liqlik muntazam ravishda kuzatiladi. 1 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar ongida katta bilim bo'shlig'i mavjud. Ushbu bo'shliqni to'ldirish musiqaga yo'naltirilgan maxsus treninglar orqali yuzaga chiqariladi. Biz bilamizki bu yoshda bolalarda aqliy faoliyatning rivojlanish bosqichi kechadi. Bola eshitgan ohanglariga e'tibor qarata boshlaydi ya'ni ohangni his qila olish qobiliyati uyg'onadi. Keyingi yosh davrlarda esa tushuncha hosil qila boshlaydi. Cholg'ular haqida ko'proq bilish istagi va qiziqishlari uyg'ona boshlaydi. Musiqiy cholg'ularni o'rganishni boshlagan o'quvchilarda boshlang'ich darslarni o'zlashtirish biroz qiyinchilik tug'diradi. Ammo bu vaziyatdan sabr bilan o'ta olgan musiqa ihlosmandi muvaffaqiyatga erishadi. Bu bevosita inson qaysi ishga qo'l urmasin, avvalo o'sha ishga bo'lgan mehri va qiziqishlarini so'ndirib qo'ymaslikka undaydi. Musiqa madaniyati fanining umumta'lim maktablarida o'qitilishi maqsadi ham o'quvchilarning kelajakda qaysi sohani tanlashiga qaramasdan uning o'sha kasbga bo'lgan mehrini qay darajada egallashiga turtki bo'la oladi deb o'ylayman.

Shunday ekan, ushbu fan o'qitilishida samaradorlikni oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishiga e'tibor qaratish musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga alohida mas'uliyat yuklaydi. Musiqa madaniyati darsini yanada tushunarli va qiziqarli o'tish borasida yuqorida aytilganlarga qo'shimcha qilib shuni aytish kerakki, birinchidan salomlashishni ham musiqiy metodlardan foydalangan holda qo'llash, oldingi o'tilgan darsni musiqa savodi bo'yicha qisqacha so'rab baholash, undan so'ng yangi mavzuni o'tishni boshlash va musiqa nazariyasidan tushuncha berib o'tish, cholg'ular bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati ta'limida berilgan qo'shiqlar, nota materiallari o'quvchilarning imkoniyati, ovoz diapazonlari aniq va mukammal rivojlanishini hisobga olgan holda mantiqiy ketma-

ketlikda beriladi. Musiqa tinglash, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodi va musiqa ijodkorligi faoliyat turlarini amalga oshirish bilan birga milliy cholg‘u sozlarini, xalq kuyi namunalarini farqlashni o‘rganadilar. Biz pedagog hodimlar unib-o‘sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk va milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan kadrlarni tarbiyalab, kelajakda soha ravnaqiga hissasini qo‘shadigan yoshlarni jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi uchun to‘g‘ri yo‘l va ko‘nikmalarni berib borishimiz kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-112., 02.02.2022. Lex.uz
2. Xalq so‘zi gazetasi 2017 y. 4 avgust
3. Sharipova G. “Musiqa va uning o‘qitish metodikasi” Toshkent-2006;
4. Hasanova X. “Qo‘shiqlar sehri” Toshkent-2012;
5. Karimova D., Yakubova Sh. “Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash” Toshkent-2016;

## MUHAMMADJON MIRZAYEV XALQ KUYCHISI

Shuxrat Qoraboyev

[shuxratkarabaev3@gmail.com](mailto:shuxratkarabaev3@gmail.com)O‘zbekiston davlat  
san’at va madaniyat instituti  
“Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalqimizning boymusiqiy merosi hisoblanmish o‘zbek bastakorlik san’ati orqali yoshlarning yuksak badiiy didi hamda ma’naviyatini shakllantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, barkamol avlod, mumtoz musiqa, badiiy did, janr, kuy.

Dunyoda har bir xalqning buyukligini anglatadigan omil-bu ma’naviyati va madaniyatidir. Jahon bo‘ylab madaniy aloqalarni tiklanishi, o‘zaro san’atlarini namoyish etishlari esa, umumbashariyat madaniyatining ravnaqiga xizmat qiladigan amallardir. Yirik-yirik, nufuzli xalqaro festivallar, ilmiy-amaliy anjumanlarni o‘tkazilib turishlari fikrimizning dalilidir.

Ma’naviyatimizni negizini ifoda etadigan omil bu musiqa san’ati bo‘ladigan bo‘lsa, san’atning namoyandalari uning haqiqiy asoschilari, sababchilari va vositachilari sifatida tarix zarvaraqlariga muhrlanadilar. O‘tmishni o‘rganish, ilmiy-nazariy tadqiq etish hamda shunga xos kelajak barpo etish har bir davrda asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelingan.

Musiqa san’atimiz juda boy va qadimiydir. Uning turli yo‘nalishlari, janrlari mavjudki, har birini o‘rganib tadqiq etishga yetarli meros jamlangan. Bunga yorqin misol maqom san’atida yuzaga kelgan ulkan mumtoz musiqiy merosimizdir. Shu san’atning o‘zi bir qator tarixiy jarayonlarni olamshumul ahamiyat kasb etishini anglatadi. Jumladan: musiqiy namunalar merosini o‘rganish, musiqiy ijodkorlar hayoti va faoliyatini o‘rganish, zamonlarning jonli jarayonini aks ettiruvchi ijrochilik muammolari va h.k. Bu masalalarning barchasi doimo davr talabi bo‘lib kelgan.

Shular orasida san’at rivoji bilan bog‘liq, yoshlar tarbiyasini ko‘zlab, hamda tarixiy shaxslarning ilm-fan yutuqlariga qo‘shgan hissasi, benazir ijodini idroklash

ham tadqiqot talab yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni aynan musiqa sanʼati nuqtai nazaridan isloh qiladigan boʻlinsa, sozanda-xonandalik ijodiyoti, bastakorlik, zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti masalalari mavjudligini koʻramiz. Ushbu yoʻnalishlarda muntazam tarzda izlanishlar olib boriladi. Taʼlim jarayoni hamda bastakorlik amaliyotiga boʻlgan ehtiyojlarni nazarga olib zamonamizning bastakorlaridan biri, Oʻzbekiston xalq artisti, betakror sozanda Muhammadjon Mirzayevning ijodiy faoliyati va musiqa sanʼatida qoldirgan merosini oʻrganishga jazm etdik.

Oʻzbekiston xalq artisti, bastakor va sozanda Muhammmadjon Mirzayev ajoyib lirik qoʻshiq, ashula va kuylari bilan el-yurtning hurmat-eʼtiboriga sazovor boʻlib, XX asr oʻzbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U bastakorlik anʼanalarini davom ettirgani holda yaratgan asarlarida hayotni, sevgi-muhabbatni, vafo va sadoqatni, mardlik va jasoratni ardoqladi, bastakorlik uyushmasining aʼzosi M.Mirzayev zamonaviy oʻzbek musiqa sanʼatining rivojlanishiga barakali hissa qoʻshdi va katta musiqiy meros qoldirdi.

Muhammadjon Mirzayev Toshkent shahrida 1913 yilning 13 avgustida ishchi oilasida tugʻildi. 1920 yildan umumtaʼlim maktabda oʻqidi. 1932 yili Toshkent Toʻqimachilik fabrikasiga ishga kirdi va boʻsh vaqtlarida Temiryoʻlchilar saroyida tashkil topgan havaskorlik toʻgaragiga qatnab, mandolina chalishni oʻrgandi. 1936 yili Oʻzbek filormoniyasi qoshida Toʻxtasin Jalilov rahbarligida tashkil etilgan “Oʻzbek xalq cholgʻulari ansambli”ga ishga qabul qilindi. Mazkur ansambl uning uchun katta ijrochilik maktabi boʻldi. Bu yerda M.Mirzayev, T.Jalilov koʻrsatmasi bilan, rubobchi Mamat Oxundan qashqar rubobida chalishni oʻrgandi. Yosh sozanda tez orada ansamblda ishtirok eta boshladi. Shu asnodda u qashqar rubobini xalq orasida keng tarqalishiga sababchi boʻlib qoldi. Darhaqiqat mazkur ijodiy jamoa M.Mirzayev uchun birgina rubob chalishda emas, balki oʻzbek xalq musiqa merosini puxta oʻrganishga qulay imkoniyatlar yaratdi. U mashhur sozandalar bilan yonma-yon ishlab, boʻsh vaqtlarda ular bilan muloqotda boʻlib, musiqiy ijrochilik va ijodkorlik sirlarini, hayotiy maktabni shu ansamblda oʻtadi.

Ikkinchi jahon urishi yillari Oʻzbek filormoniyasi qoshida bir nechta “Front konsert brigadalari” tuzildi. Shulardan biri 1942 yilda tashkil etilgan boʻlib, D.Soatqulov (nay), M.Mirzayev (rubob), S.Aliyev (gʻijjak), SH.Hamidov (doira), N.Nalivayko (bayan), xonandalar N.Yakubova va S.Samandarova, laparchi



M.Otonova, raqqosa T.Mahmudovalar jangchilarga konsert berib, faol xizmat qildilar.

Ma'lumki, 1943 yili "Farhod GES" qurilishi munosabati bilan ishchilarga madaniy xizmat qilish maqsadida boshqarma qoshida kompozitor va dirijyor M.Nasimov rahbarligida "Musiqali drama teatri" tashkil topdi. O'zbekiston "San'at" bosh boshqarmasi M.Mirzayevni ushbu teatrga musiqa rahbari lavozimiga tayinladi. Uning mustaqil bastakorlik faoliyati shu jamoada boshlandi. Sozanda va ijodkor azamat quruvchilarga atab g'ayrat bilan, zamonaviy mavzularda yangi-yangi jozibali qo'shiq va raqs kuylarini yaratib ansambl ijro repertuarini boyitib bordi. 1946 yili rubobchi M.Mirzayev filormoniyaga ishga qaytdi. Ikki yildan so'ng Toshkent Davlat Konservatoriyasida "O'zbek xalq cholg'ulari" kafedrasini tashkil etildi. Bu dargohda M.Mirzayev birinchi talabalar qatorida o'qishga kirdi va uni 1953 yili bitirdi. Shu yildan boshlab to umrining oxirigacha filormoniya huzuridagi "Musiq bo'limida" rubobchi – yakkanavoz vazifasida ishlab, tomoshabinlarga faol xizmat qildi. Uning ijrochilik mahoratiga tinglovchilar tan berishar edi.

Bastakor va sozanda M.Mirzayevning ijodiy faoliyati, ayniqsa, urushdan keyingi yillarda gullab-yashnadi. U 1950-1980 yillarda o'z ustida ko'p ishladi, izlandi, tinimsiz ijodiy mehnatda bo'lish uning yashash tarziga aylandi. U yillar davomida, xalqimizning sevimli xonanda, sozanda va raqqosalariga atab, ularga mos ajoyib asarlar yaratib berar edi. Masalan, xalqimizning faxri O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov ijrosida bastakorning quyidagi ashula va yallalari ilk bor yangradi: "Qachon bo'lg'ay", "Shuhi jononim mening", "Yor istab", "Yo'lingda" (Z.Furqat she'rlari), "Yakka bu Farg'onada", "Ko'zlaring", "Surating", "Yolg'iz", "Yana" (Muqimiy g'azallari), "Shaydo bo'libman" (Kamtar so'zi), "Zor etding" (Jannati so'zi), "Parvo etib ket" (S.Abdulla so'zi). Tojik va o'zbek xalqlarining sevimli xonandasi, Tojikiston xalq artisti Hanifa Mavlonova ijrosida bastakorning quyidagi ashulalari mashhur bo'lib ketgan edi: "Parvona bo'ldim" (Kamtar so'zi), "Yuragingni o'ynatdimi" va "Gulchehra yor" (P.Mo'min so'zlari), "Husningga bu shaydoni" (Shuhiy so'zi) "Tong otguncha" (Dilafgor so'zi). Shuni aytib o'tish joizki, M.Mirzayev yillar davomida, M.Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" raqs ansambli, O'zbek Davlat filormoniyasining "Shodlik", "Lazgi" ashula va raqs ansambllar repertuarini boyitib keldi. U besh yuzdan ortiq qo'shiq, ashula, yalla va raqs kuylarini yaratdi. Uning yaratgan asarlari orasida juda ham mashhur bo'lib ketgan, ajoyib "Bahor vals", "Dildor I va II", "Intizor etma", "Ufori sanam",

“Gulnoza” raqs kuylari yoki “Oltin sandiq”, “Ey gul”, “Uch dugona”, “Toshkent nahori”, “Muhabbat maktubi” (T.To‘la so‘zlari), “Ko‘zlarimga ziyo olaman” va “Chavandoz qizlar” (N.Narzullayev so‘zlari) kabi qo‘shiqlari, rubob uchun yaratgan “Go‘zal Vatanim”, “Marg‘ilon qizlari”, “Orzu dil”, “Zulfizar”, “Yor uchrashuv”, “Dilrabo”, “Shodlik” kuylari keng qanot yozdi.

Bastakor M.Mirzayev ona-yurt tabiatiga, sevimli xalqiga san’atkorlarga har doim hayrat va hayajon bilan go‘zallikni kuy va qo‘shiqlarida ifodalab keldi. U o‘z davrining mashhur kuychisi edi, shuning uchun uning ijodida zamonaviy mavzu ustuvor turdi. Shuni aytish joizki, M.Mirzayev 1937, 1951, 1959 yillarda Moskvada o‘tkazilgan O‘zbekiston adabiyot va san’ati dekadalarida, “Katta Farg‘ona”, “Farhod GES”, “Katta qo‘rg‘on suv ombori”, “Toshkent kanali” kabi yirik inshootlarning qurilishlarida ijrochiligi va bastakorligi bilan faol qatnashdi.

U zamonaviy O‘zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishidagi ulkan xizmatlari uchun 1945 yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, 1965 yili O‘zbekiston xalq artisti fahriy unvonlari bilan taqdirlagan.

Muhammadjon Mirzayev 1999 yil 86 yoshida Toshkent shahrida vafot etdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Karomatov F.M. Xalq muzikasi //O‘zbek muzikasi tarixi. Tuzuvchi: T.YE.Solomonova. - T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. - 27 - 34-b.
3. K. Olimboyeva, M. Ahmedov «O‘zbekiston xalq sozandalari» II-kitob T., 1974 y.
4. A. Fitrat «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi» T., 1983 y.
5. Fayzullayev E. Sharq xalqlari mumtoz musiqasini o‘rganishda badiiy Didni tarbiyalash //Xalq ta’limi j. - T.: 2004. 1-son. - 147-149-b.
6. A. Jabborov «O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari» T., 2004 y.

**BOYSUN HUDUDIDAGI KO'HNA CHOLG'ULAR TARIXI***Rashidov Qahramon**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola qadim Boysun hududiga aloqador ko'hna cholg'ular tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida yozilgan. Bundan tashqari o'zbek xalq cholg'ularining shakllanish tarixi va musiqiy merosimizda tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. O'rta asrlarda mavjud bo'lgan torli, damli hamda urma-zarbli cholg'ularning nomlari va ular xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Boysun, ko'hna, terminologiya, ma'naviy makon, musiqa, chanqovuz, dutor ijrochiligi, makon va zamon, boysun musiqasi, milliy qadriyatlar, Milliy cholg'ular, tarixiy qo'lyozmalar, musiqiy risolalar, etnograf, tarix.

**Аннотация:** В данной статье написано об истории и этапах развития древних музыкальных инструментов, относящихся к древнему Бойсуньскому ареалу. Кроме того, обсуждались история становления узбекских народных инструментов и их место в нашем музыкальном наследии. Приведены названия струнных, барабанных и ударных инструментов, существовавших в средние века, и сведения о них.

**Ключевые слова:** Бойсунь, древний, терминология, духовное пространство, музыка, чангуз, дуторское исполнительство, пространство и время, бойсуньская музыка, национальные ценности, народные инструменты, исторические рукописи, музыкальные трактаты, этнограф, история.

**Abstract:** This article is written about the history and stages of development of ancient musical instruments related to the ancient Boisun area. In addition, the history of the formation of Uzbek folk instruments and their place in our musical heritage were discussed. Names of stringed, drum and percussion instruments that existed in the Middle Ages and information about them are given.

**Key words:** Boisun, ancient, terminology, spiritual space, music, changquz, Dutor performance, space and time, Boisun music, national values, National instruments, historical manuscripts, musical treatises, ethnographer, history.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda, o'ziga xos shakllardan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos ravishda shakllanib, asrlar osha

rivoj topib kelgan. Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Farobiy (IX asr) o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) Musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV asr) "Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy" risolasida, Ahmadiy (XIV asr) "Sozlar munozarasi" asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) "Risola dar bayoni qonuni va amali musiqiy" risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr), Amuliy (XVI), Darvesh Ali Changiy (XVII) musiqiy risolalarida musiqiy cholg'ularni o'rganib, tadqiq etish masalalarini turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrining musiqiy cholg'ulari tasnifotini bayon etganlar. O'tmishning zabardast shoirlari o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlari va ularning mohir ijrochilarini qayd etishda cholg'ularga murojaat etganlar. Ayniqsa, o'z ijodi bilan ma'rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy hazratlari musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz tarmoqlariga urg'u berib o'tganlarini ul zotning asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'ular va ularda ijrochilik masalalarini o'rganish xususida samarali harakatlarni amalga oshirganlar.

Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari cholg'u ijrochiligi amaliyotida vujudga kelgan cholg'ularning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbati, sozgarlik mezonlari, cholg'ular tayyorlashda ishlatiladigan daraxtlar va materiallar haqida malumotlar keltirilgan. Ularda torli cholg'ulardan: Borbad, Ud, Rud, Qo'biz, G'ijjak, Navha, Nuzxa, Qonun, Chang, Rubob, Tanbur, Dutor; Damli cholg'ulardan: Ruhafzo, Shammoma, Organun, Sibizg'i, Nayi anbon, Chag'ona, Bulamon, Surnay, Nay, Qoshnay, Karnay; Urma zarbli cholg'ulardan: Daf, Doira, Nog'ora, Safoil kabilar to'g'risida turli darajadagi ma'lumotlar keltirilgan.

Al Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida cholg'ular va ularda ijrochilik masalalariga katta e'tibor bilan yondoshib, cholg'ularni amaliyotdagi tutgan o'rni, ayrim falsafiy xususiyatlari hamda ma'lum darajada tasnifoti bilan yoritganlar.

Davrlar o'tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'ular ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan.

Tarixiy manbaalarda Qulmuhammad Udiyning Ud cholg'usiga tortinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va tortinchi torlari taqilganligi kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi bilan

bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va ovoz mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'naviy va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bolib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan, u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir. XIX asr oxiri va XX asrning o'zida Chang va Qashqar rubobi shakllandi hamda cholg'u ijrochiligidan keng o'rin egalladi. Ud va Qonun cholg'ulari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda Kurd sozi ham oziga xos jozibasi bilan cholg'u ijrochiligidan munosib orin oldi. Musiqiy cholgularning ta'rifi, shakllari, tuzilishlari, tarkibiy jihatlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan o'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyotlar hamda musiqiy risolalarda yoritila boshlandi. Demak, o'rta asrlarga kelib, qadimdan shakllanib, takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini topgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Al Xorazmiy, Zaynulobiddin Husayniy, Sayfiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, o'z risolalarida cholg'ular va ularning bir qator sifat va xususiyatlari haqida oz risolalarida mufassal bayon etganlar. O'rta asrda yozilgan musiqiy risolalarda cholg'ularning takomillashishi hamda rivoji yo'lida qilingan o'zgarishlar, yaratilgan yangi cholg'ular va istemoldan chiqqan cholg'ular tasnifotini ko'rish mumkin.

XIX asrning II yarmiga kelib o'zbek an'anaviy cholg'ularini o'rganishga alohida ahamiyat berila boshlandi. O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga qiziqish G'arb mamlakatlarida ortib bordi va uni o'rganish maqsadida mutaxassislar kela boshladi. Marko Polo, Vamberi, Ankomin, Leysek, Eyxgorn kabi sayohatchi etnograflar, tarixchilar, kopelmeysterlarning kundaliklarida qayd etilgan ma'lumotlar keyinchalik yirik-yirik maqolalar va kitoblar tarzida nashr etildi.

Boysun ilmiy ekspeditsiyasi natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq madaniyati mushtarakligi Boysunga xos va uturli madaniy jarayonni bir-biriga bog'lanishida mavjud. Globallashish jarayoni har bir xalqda o'z milliy madaniy qadriyatlarini chuqur o'rganishni taqozo etib kelmoqda. Shu tufayli har bir xalqning milliy madaniyati umumjahon madaniyatidan o'ziga munosibo'rin egallay olishi kerak. Binobarin, hozirgi madaniy hayotda xalq ijodiyoti g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyat tizimida ananalarga asoslanishi bilan ajralib turadigan xalq ijodiyoti milliy qadriyat va marosimlar bilan birligi, uni tabiat va koinot bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Xalq amaliy san'atidagi turli bezaklar, ranglar, kamalak jilolari, turli xil xalq tomoshalari va o'yinlari, rang-barang musiqa ohanglari va



cholg'ulari o'zaro uyg'unlashib, umuminsoniy-manaviy makonni vujudga keltirgan va keltirmoqda. Chunki bu manaviy makon avvalo, xalq ijodi asosida vujudga keladi va ushbu makon xalqning afsona, ertak, doston, qo'shiq, chaqirlar, o'yinlarida namoyon bo'ladi va qadimiy ananalarga doimo hayot baxsh etadi. Hozirgi kunda manaviy va moddiy-madaniy merosni bir-biridan ajratmasdan yaxlit holda o'rganish zaruriyati tug'ildi. Ular bugungi hayotning tarkibiy qismiga aylanib, xalq madaniyati yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilish, asrab-avaylash va rivojlantirishni taqozo etadi. Bu yodgorliklar qayerda bo'lishidan qat'iy nazar umuminsoniyat boyligidir. Ular tarixiy, adabiy, badiiy, etnologik musiqiy xazinadir. Musiqa shu qadar qudratliki, u birdaniga qalbni ham, ongni ham, vujudni ham egallab oladi. Musiqa qudratining yana bir o'ziga xosligi shundaki, barcha kishilar etiborini ezgulik va go'zallikka yo'naltiradi. Mumtoz musiqa ohanglari xalq qo'shiqlari, cholg'u kuylari, raqslarida xuddi shunday ulug'vor joziba mavjud. Musiqaning mana shunday sehri borligi Boysun musiqa folklorida namoyon bo'lmoqda. Boysun musiqa folklori—o'tmish va zamonaviy-madaniy durdonalardan biri bo'lib, uning badiiy tarjimai holida qiziqarli va ahamiyatli sahifalardan biri bo'lmoqda. Chunki, u xalq badiiy tafakkurini, musiqa amaliyoti va ma'naviy hayotning ma'lum xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi.

Boysun musiqa folklorini o'rganish va tadqiq etish hozirgi kunda muammoni ko'rish nafaqat Boysun yoki Surxondaryo yoki umumo'zbek lokal uslubi, umuman musiqa sanati genezisi masalalarini hal etishda yordam beradi. Boysun musiqasi va musiqa cholg'ulari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va anaanalarga boy. Unga lokal xususiyatlar ham xosdir. Buni biz tog'lik va tekislik joylarda yashovchi aholining madaniyatlarida ko'rishimiz mumkin. Ammo malum hududlarning ichida ham, ayniqsa, tog'lik joylarda o'zbeklar va tojiklar madaniyati va tillari bilan bog'liq yorqin shevalik farqlar kuzatiladi. Boysun ilmiy ekspeditsiyasi natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq madaniyati mushtarakligi Boysunga xos va u turli madaniy jarayonni bir-biriga bog'lanishida mavjud. Musiqada, tilda o'xshashlik ikki jarayonni mavjudligida kuzatiladi: birinchisi-maxsus va o'ziga xoslik, ikkinchisi-boshqa xalqlardan o'zlashtirilganligi. Xalqlarning jamiyat munosabatlari rivojlanishida ular bir-biriga tasir ko'rsatib kelgan. Binobarin, turkiyzabon va boshqa yaqin joylashgan xalqlarning musiqasi, tili va madaniyatida azaliy turkiy vositalar bilan birgalikda o'zlashtirilgan boshqa vositalarni ham aniqlash mumkin. Qadimiy turk yozuvlari, yodgorliklari tadqiqotchisi S.Y.Malov shunday takidlab yozadi: «Hamma yodgorliklar, yoki ushbu yodgorliklar tillari aksariyati

turkiy tillarning qadimiy tarixining umumiy muhiti, umumiy tarixiy mezonni sifatida xizmat qiladi». Ananaviy musiqa cholg'ulari Boysun hududining boshqa xalq ijodiyoti tarmoqlari tufayli, xalqning turmush sharoiti, marosimlari, ko'chmanchi va o'troq turmush tarzi majmuasi bilan bog'liqdir.

Chang qo'biz - qadimiy torli-urma yoki tilsimon-chertim musiqa cholg'usi bo'lib, ko'proq ayollar orasida tarqalgan. Boysunda XX asrning II yarmigacha changqo'bizning uch xili omma orasida tarqalgan edi Bular temir changqo'biz, suyakli changqo'biz va yog'ochli changqo'bizlar. Suyakli chang-qo'biz (uzunligi 15-18 sm, eni 3-4 sm) tuya qovurg'asidan yasaladi, uning o'rtasidan tilcha kesiladi va unga ip bog'lanadi. Chalish paytida shu ipni tortish orqali chang qo'bizning tilchasi to'lqinlantirib turilishi jarayonida tovushlar hosil etiladi (shunda asosiy ovoz va uning oberton tovushlari hosil bo'ladi). Yog'ochli chang-qo'biz ham suyakliga o'xshash, o'tmishda yong'oq, tut va archa daraxtidan yasalgan. Changqo'bizda aynan yuqori tovushlar og'iz bo'shligidagi havo bosimi orqali sozlanadi. Hozirgi kunda chang qo'bizni Boysunda yakka va ansambl bo'lib, to'y marosimlarda keng foydalanib kelmoqda.

Qadimiy cholg'ulardan keyin Boysunda XX asrning ikkinchi yarmidan chang, qonun, nay, rubob, tor, doira, barabanlar kabi cholg'ular tarqaldi. Ushbu qadimiy musiqa cholg'ulari yakkasoz va ansambllar, to'y marosimlari va mavsumiy mehnat jarayonlari, ommaviy tantanalar va yig'inlar, turli xarakterdagi an'analar, musiqiy-she'riy kechalar, gap-gashtaklar, oila yig'inlari va uchrashuvlari, xalq o'yinlari, tomosha san'ati va xalq raqslariga jo'rnavor bo'lib qo'llanilib kelmoqda. Bunday musiqa cholg'ularini, xalq an'analarini va madaniyatini saqlash, himoya qilish, uni qayta tiklash va rivojlantirish uchun o'rta maxsus ta'limlarida va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlariga kiritib tadqiq qilish lozimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Каримов И.А. “Юксак маънавият енгилмас куч” Т. 2008 йил
- 2.В.Беляев Музыкальные инструменты Узбекистана Москва 1933 г
- 3.Абу Абдуллох Хоразмий Мафотиҳ ал-улум А.Назаров таржимаси.
- 4.Абу али Ибн Сино Муסיқа ҳақида рисола Н.Шодмонов таржимаси.
- 5.Т.С.Вызго Музыкальные инструменты Средней Азии Музыка. 1980

6. Ал-Фараби. Трактаты о музыке и поэзии Пер.с арабского. Алматы: Гилим, 1993.

7. Ё.Тошматов Чолғушунослик (Ўрта махсус таълим муассалалари учун ўқув-қўлланма) Т.: 2004

## O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRI REPERTUARLARI TAHLILI, MUAMMO VA YECHIMLAR

*Karimov Dilshod Mashrab o‘g‘li*

*O‘zbekiston davlat san ‘at va madaniyat instituti*

*“Cholg‘u ijrochiligi” mutaxassisligi 2-bosqichi magistranti*

*E-mail: [dilshod3288882@gmail.com](mailto:dilshod3288882@gmail.com)*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularining shakllanish tarixi va musiqiy merosimizda tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratilgan repertuarlar muammolari va yechimlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy cholg‘ular, cholg‘u ijrochiligi, sozanda, ustoz-shogird, rubob, qadriyat, an‘ana, orkestr, Petrosyans, musiqa ta‘limi, ansambl, repertuar, metodika.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается история узбекских народных инструментов и их роль в нашем музыкальном наследии. Также были даны отзывы о проблемах и решениях репертуара, созданного для оркестра народных инструментов.

**Ключевые слова:** Народные инструменты, инструментальное исполнительство, музыкант, учитель-ученик, рубоб, ценность, традиция, оркестр, Петросянц, музыкальное образование, ансамбль, репертуар, методика.

## ANNOTATION

This article discusses the history of Uzbek folk instruments and their role in our musical heritage. Also, feedback was given on the problems and solutions of the repertoires created for the orchestra of folk instruments.

**Key words:** National instruments, instrument performance, musician, teacher-student, rubob, value, tradition, orchestra, Petrosyans, music education, ensemble, repertoire, methodology.

O'zbek xalqi qadimiy boy musiqiy merosga ega bo'lib, bunda musiqiy cholg'ularning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Bizning musiqa cholg'ularimiz xalqimizning moddiy, madaniy boyligi hisoblanib, madaniy tariximizni anglashda va milliy madaniyatimiz rivojida boshqa sohalar singari muhim o'rin tutadi. Azaldan o'zbekning mehmonxonasida dutor yoki tanbur kabi biron-bir cholg'uning doimo osig'liq turishi xalqimizning san'atga cheksiz hurmati va ixlosidan dalolat beradi. Jonli merosimiz, ustoz san'atkorlarning bilim va tajribalariga murojaat qilish hamda ular bilan uzoq yillar davomida bevosita muloqotda bo'lish ko'p jihatlardan yangi, noyob va ishonchli ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Xususan, milliy cholg'ularimizning ohanglari rang - barangligi va boyligi xalqning turmush tarzi, madaniyati, shakllanishi qirralarini o'zida aks ettirgan bo'lib, sharq xalqlari musiqiy tafakkurining nafis jilolarini o'zida mujassamlashtirgan. Yuksak estetik fazilatlariga, mohirona ijrochilik an'alariga ega bo'lgan va o'ziga xos tarovatni yorqin ifodalab kelayotgan o'zbek xalq cholg'ulari shu davrlarda ilmiy asosda maxsus tadqiqot obyekti sifatida e'tiborga tushgan.

Milliy xalq cholg'ularimizni takomillashtirishdagi ilk tajribalar, o'tgan asrning 20–30-yillarga to'g'ri keladi. Ushbu g'oyani birinchi bo'lib, mashhur san'atkor Xorazmlik ustoz Matyusuf Xarratov hamda Toshkentlik mashhur sozgar Usta Usmon Zufarovlar amalga oshirganlar. Ularning o'z oldiga qo'ygan vazifalari musiqa cholg'ularining ovoz jarangdorligini oshirish va Has pardalar yordamida cholg'u diapazonini oshirish (eng past tovushdan, eng yuqori tovushgacha) kengaytirishdan iborat edi. Hammamizga ma'lumki milliy musiqiy cholg'ularimiz azal–azaldan faqatgina xona sharoitida ijro etishga mo'ljallangan edi. Ularning tembr xususiyati ham aynan shunga mos edi. Asta–sekin cholg'ularda keng davralarda va katta sahnalarda ijro etishga tog'ri keladi va yaratilgan mazkur cholg'ular esa talabga javob bermay qoladi. Shu sababli ular cholg'ular tovushini kuchaytirish kerakligini tushunib yetadilar va o'zlarinig ilk g'oyalarini amalga oshiradilar.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek kompozitorlarining diqqat e‘tiborlari ommaviy janrlarga ya‘ni: xor jamoasi uchun asarlar, kichik kamer orkestri va xalq cholg‘u sozlari orkestri uchun asarlar yaratishga qaratilgan edi. Shu munosabat bilan usta Usmon Zufarov birinchilardan bo‘lib, To‘xtasin Jalilov buyurtmasiga asosan orkestr jamoasi uchun past registrlilik cholg‘ular ya‘ni katta g‘ijjak, katta tanbur va katta dutorlarni bir necha turlarini yasay boshladilar. Ular, 1934–1936-yillar T.Jalilov rahbarligidagi unison orkestri tarkibida qo‘llaniladi va kutilgan natijaga erishilmagandan so‘ng jamoa tarkibidan chiqarilib tashlanadi. Shundan so‘ng U.Zufarov faqatgina cholg‘uning turli–tuman shakllarini yaratgan va ilmiy izlanishlarida o‘z hissasini qo‘shgan. Ushbu ilk marotaba yasalgan cholg‘ular hozirgi kunda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasining “Milliy cholg‘u” ilmiy ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasi musiqa cholg‘ulari muzeyida eksponat sifatida saqlanmoqda. Mazkur izlanishlar davomiyligi A.I.Petrosyans rahbarligida bir guruh ustalar Ramanchevko, Kevxoyans, Didenko, Andreyev ish tajribasiga tayangan holda torli chertma cholg‘ularni 12 bosqichli teng temperatsiyalangan prinsip asosida ijrochilikning zamonaviy va talab darajasiga moslashga kirishadilar.

1937-1938-yillardan boshlab o‘zbek davlat filarmoniyasi qoshida o‘zbek xalq cholg‘u sozlari orkestri tashkil etilgan. Keyinchalik shu xildagi orkestr O‘zbekiston radiokomiteti qoshida ham tashkil topadi. Yillar davomida xalq cholg‘u sozlarini asta-sekinlik bilan takomillashtirishga kirishib o‘zbek xalq cholg‘u sozlari orasida dutor-bas, rubob-prima, g‘ijjak-bas kabi yangi xildagi xalq cholg‘u sozlari kiritiladi. Bu o‘zgarishlar maxsus laboratoriyalarda o‘tkazilar edi. Lekin o‘zbek xalq cholg‘u sozlari orkestri asosida o‘zbek milliy musiqalarimizni yanada repertuarlarini ko‘paytirish turar edi. Orkestrning tashkil bo‘lgan yillarida G.Sabitov “Totorcha syuita”, F.Nazarov “Yoshlar syuitasi”, S.Boboyev “Bayram uvertyurasi”, V.Knyazev “Orkestr va qashqar rubob uchun konsert”, G‘.Qodirov “O‘zbek xalq temalarida syuita”, B.Giyenko “Ukraincha syuita”, “Pomircha syuita”larni ijod qilib keng tinglovchilar diqqatiga havola etdilar. 60-yillar davomida orkestr repertuari ancha ko‘payib asarlar mavzulari ham kengayadi. Bular S.Varelasning “Hamza poemasi”, P.Xalikovning “simfoniyyetasi”, B.Zeydmanning “Qahramonlik poema” lari bo‘lgan. O‘zbek xalq cholg‘u sozlari orkestri jahon klassik musiqa asarlarini ham ijro etib o‘z san‘atlarini Giyenkaning “Vals fantaziyasi”, M.I.Glinkaning “Kamarinskaya”, “Ruslan va Lyudmila” operasidan raqslar, J.Bizening “Karmen” operasidan uvertyurasini, “Arlezianka” syuitasini va boshqa xalqlar kompozitorlarining asarlarini ijro etib baynalminal aloqalarini mustahkamlaganlar.



O'zbekiston radiosi qoshidagi o'zbek xalq cholg'u sozlari orkestri tashkil qilinishidan boshlab unga ko'zga ko'ringan san'atkor, ustoz Yunus Rajabiy rahbarlik qilganlar, lekin 1960-yilda O'zbekiston radiosi qoshida maqomchilar ansambli tashkil bo'lganda Y.Rajabiy unga badiiy rahbar bo'lib, cholg'u orkestrida esa qobiliyatli kompozitor, ajoyib sozanda, shu orkestrda ishlab kelgan Doni Zokirov rahbarlik qiladi.

Doni Zokirov- O'zbek xalq og'zaki ijodiyotini yaxshi bilgan, qardosh xalqlar musiqalari bilan qiziqgan san'atkordir. U kishi o'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini orkestrlashtirib cholg'u orkestr mohiyatini oshirgandi. D.Zokirov talqinida o'zbek xalq kuylaridan "Yovvoyi ushshoq" ni orkestr va yakka nay ijrosida qayta ishlagani ko'p tinglovchilar diqqatini o'ziga jalb etgan. Shu bilan bir qatorda "Jazoir" pyesasi ham o'zining jarangli, jo'shqin kuylari bilan orkestr dasturidan mustahkam joy oldi.

Keyinchalik yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek O'zbekiston radiosi qoshidagi D.Zokirov nomli O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va O'zbekiston Davlat Filarmoniyasi qoshidagi T.Jalilov nomli O'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari ijodiy faoliyati orqali o'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrochiligi yoshlar orasida sevib tinglanib asta-sekin ommalashdi. Ular nafaqat respublikamiz, balki qo'shni Davlatlar bo'ylab ham ijodiy gastrollarda ko'plab muvaffaqiyatlarga erishganlar. Bu jamoalar o'zbek xalq cholg'ulari orkestr ijrochiligiga tamal toshini qo'ygan, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek xalq cholg'ularida orkestr ijrochiligi juda katta o'rin egallagan. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari o'zbek xalq milliy musiqasi, kompozitorlik ijodi va jahon kompozitorlari asarlarini ham o'zbek xalq cholg'ulariga moslashtirib professional darajada ijro eta oladi. Shunisi diqqatga sazavorki, hozirgi kunda O'zbek xalq cholg'ulari orkestrlarida zamonaviy estrada musiqiy namunalari ham ijro etib kelinmoqda.

Shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki, kompozitorlarimiz ijodi Orkestr repertuarlarida alohida o'ringa egadir. Orkestrda asardagi ijro mohiyatni o'stirishda eng avvalo kompozitor tomonidan yaratilgan asarlar muhim ro'l egallaydi. Aynan Repertuar so'ziga ta'rif bayon etadigan bo'lsak, Repertuar - bu Orkestrning ozuvqaviy manbayi undan keyin esa ularni boshqaruvchi dirijordir. Nafaqat Orkestr repertuarlarida balki barcha sozlar uchun yaratilgan asarlar cholg'u va ijrochi uchun eng asosiy ozuqa manbayi hisoblanadi. Hozirgi kunda Xalq cholg'ulari orkestrida ijro etilayotgan asarlarning aksariyati 80-85-yillardagi asarlar hisoblanadi. 90-yillardagi, ya'ni mustaqilligimizdan keyingi yillarda yaratilgan asarlarning ijro etilgani juda ham kam. Shu tariqa hozirgi davrga kelib kompozitorlarimiz tomonidan aynan Xalq cholg'ulari uchun yaratilayotgan asarlar kamayib ketayotganligi va yaratilayotgan yangi asarlarning kamligi bu o'z-

o‘zidan repertuarimiz boyligiga judayam sekin astalik bilan erishayotganligimizdan darak beradi.

Hozirda yosh kompozitorlarimiz tomonidan yaratilayotgan asarlar juda ham chiroyli va mukammal darajada. Lekin juda ko‘p aksariyat asarlar hozirda aynan Simfonik Orkestr uchun yaratilayotganligi muammoli vaziyatni yuzaga chiqaradi. Tog‘ri, ushbu fikr doirasida yosh kompozitorlarimiz Simfonik orkestrlari uchun asarlar yaratilishi betarafdori emasmiz. Biz shunchaki, o‘zbek yosh kompozitorlarining eng avvalo o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlari uchun asarlar yaratilish jarayonini birinchi o‘ringa qo‘yib, O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlari repertuarini eng yuqori darajaga ko‘tarilishi tarafdorimiz.

Manashu o‘rinda Xorazmlik kompozitor ijodkorlarimiz repertuar muammosi haqidagi o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar: “Bizda xalq cholg‘ularining tarixiy taraqqiyoti va uning qanday sozlanishi kerakligi haqida bakalavr bosqichida bir yil davomida talabalar mukammal tarzda o‘qitiladi. Biz ham shu davrda orkestr va ansambl uchun turli xil asarlar yozganmiz, undan so‘ng esa magistratura bosqichida “O‘zbek xalq kuylarini qayta bastalash” kabi dars soatlarimiz va bizga ushbu dars bo‘yicha o‘qituvchi birlashtirilgan edi. Biz ko‘plab asarlar yozganmiz. Faqatgina bizning viloyatimizda mana shu asarlarimizni ustida ishlab beruvchi O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri yo‘q, lekin simfonik kuylarimizni ijro etilishida bizga yordam beradigan Simfonik orkestr mavjud edi, hozirgi kunga kelib Simfonik orkestr ham yo‘q. Aynan shuning uchun ham biz simfonik orkestrlarga asrlarni ko‘proq yozar edik.

Albatta bunday muammoli jarayon yosh ijodkorlarni biroz sarosimaga solib qo‘yishi mumkin. Lekin bir qancha fidoiy ustozlar ko‘magida ushbu muammoni yechimi topildi. Bunda bitiruvchi Kompozitorlarning bitiruv malakaviy ishlariga bittadan Xalq cholg‘ulari uchun maxsus yaratilgan asar yaratilishi va yozilgan asarni kichik yoki katta asar bo‘lishidan qat‘iy nazar, kuylarni ijro etib bera oladigan Xalq cholg‘ulari orkestrini tashkil etib, unda manashu yangi asarlarni ijrosi va tahlili ustida ishlash masalasini o‘rtaga tashlanadi. Aynan manashu ikkinchi asar o‘rniga yosh kompozitorlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarni olib, uni kompozitor ustoz va o‘zi hamkorligida yangi asarni kashf etilishida, Xalq cholg‘ulari orkestri repertuarida yangi bebaho durdona asarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi

O‘zbek xalq cholg‘ulari, xususan, ko‘p ovozli orkestr ijrochiligi yo‘lida hali juda ko‘p qilinadigan ishlar bor. Hozirgi cholg‘ularimiz va ijrochilgimiz ham o‘z–

o‘zidan paydo bo‘lib qolgan emas. O‘zbek xalq cholg‘ularini yanada sifatini yaxshilash, ijrochilik maxoratini oshirish, yangi uslubiyot va repertuarlarni boyitish, davr ijodkor yoshlardan izlanish, o‘z ustida tinimsiz mehnat qilishni talab etadi. Inson hayotida qo‘shiq – kuyning hamisha o‘z o‘rni, o‘z vazifasi bor – u ermak uchun to‘qilmagan, bekorchilikdan eshitilmaydigan ma‘naviy manbaadir. Qo‘shiq va kuylar insonlarni yashashga hattoki, kurashga chorlagan, mehnatga, muhabbatga ruhlantirgan, dard-u qayg‘usiga malham, baxt-u quvonchiga sherik bo‘lgan mo‘jizakor ohang sehrdir. U xalq merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an‘analari va qadriyatlarini milliy ohanglardagi tarannumi, millat orzu – umidlarining ifodasi, xalq ruhiyatining ko‘zgusi hisoblanadi.

### REFERENCES

1. T.Ye.Solomonova. “O‘zbek musiqasi tarixi”. T.1981.
2. Toshmatova O. “Ijrochilik san‘ati tarixi”. T. 2002 y.
3. Mansurva G. “Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti”. O‘quv metodik qo‘llanma- Toshkent. 2008;
4. Ismailov Tohir. “MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA RUS KOMPOZITORLARI IJODI ORQALI O‘QUVCHILARNING ESTETIK DIDINI RIVOJLANTIRISH” science and education in volume 2. issue 4, april 2021;
5. Ismailov Tohir “CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART” “Экономикаисоциум” №3(82) 2021

### Internet saytlari.

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)

## O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI IJROCHILIGINING YOSH AVLODNI YUKSAK MA'NAVIYAT RUHIDA KAMOL TOPISHIDAGI O'RNI VA TA'SIRI

*Uvaydulloyev Azizbek Dilmurod o'g'li*  
*O'zbekiston Davlat San'at va madaniyat instituti*  
*"Cholg'u ijrochiligi" mutaxassisligi magistranti*  
*azizbekuvaydulloyev@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa, cholg'u ijrochiligi, cholg'u ijrochiligini rivojlantirishda musiqa psixologiyasi va turli xil metodlardan foydalanish, musiqa o'qituvchisi nazoratida bolalarning musiqa ijro qilish holati, bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakllantirish, musiqa ijrochisiga qo'yiladigan talablar, notaga qarab ijro qilish hamda uning murakkab jarayonlari to'g'risida batafsil yozilgan.

**Kalit so'zlar:** cholg'u ijrochiligi, musiqiy pedagogika, musiqa psixologiyasi, ijro uslublari, taraqqiyot strategiyasi, nota, musiqiy bilim, eshitish qobiliyati.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье музыка, инструментальное исполнительство, использование психологии музыки и различных методов в развитии инструментального исполнительства, состояние музыкального исполнительства детей под руководством учителя музыки, формирование творческих способностей в музыкальном исполнительстве детей, требования к музыкального исполнителя, в зависимости от реализации ноты и ее сложных процессов подробно расписаны.

**Ключевые слова:** игра на музыкальных инструментах, музыкальная педагогика, музыкальная психология, исполнительские стили, стратегия развития, нота, музыкальные знания, слух.

### ABSTRACT

In this article, music, instrumental performance, the use of music psychology and various methods in the development of instrumental performance, the condition of children's music performance under the supervision of a music teacher, the formation of creativity in children's musical performance, the requirements for a music performer, depending on the note implementation and its complex processes are written in detail.

**Key words:** musical instrument performance, musical pedagogy, music psychology, performance styles, development strategy, note, musical knowledge, hearing ability.

### KIRISH

Davlatimiz mustaqillikka erishgach, musiqa san'atiga e'tibor yanada oshdi. Jumladan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, milliy ruhdagi asarlarni ijro etish yanada jadallashdi. Chunonchi, ijrochilik san'atini mazmunan milliy musiqiy tamoyillar bilan boyitish, tinglovchilarni milliy ohanglar, an'analar va ko'p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Hozirgi kunda bunday imkoniyatlar yaratilishi, bir tomondan bolalarda kuy-qo'shiqqa bo'lgan qiziqishini oshirsa, yana bir tomondan musiqa va madaniyat muassalarida ijrochilik san'ati kabi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi. Ikkinchidan, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik kabi xislatlari shakllantiriladi. Musiqa ijrochiligi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. Uchinchidan, musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillikning birinchi yillaridanoq mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Ayniqsa, ijrochilik san'ati merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish ta'minlandi. Buning natijasida nufuzli ijrochilar tanlovlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shu jihatdan ham bugungi kunda cholg'u ijrochiligi san'ati asosida o'quvchilarni musiqiy bilimlarni egallashlari, estetik go'zallik imkoniyatlarini ochish zaruriyati alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki musiqa ijodiyotining kasbiy, professional janriga oid nazariy va amaliy bilimlarni, badiiy-musiqiy, estetik tafakkurni shakllantirishda, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda dolzarb muammolardan hisoblanadi. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi – 17nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson

---

<sup>17</sup> Ro'zimurodov, I. A. O. (2022). O'QUVCHI YOSHLARNI MUSIQIY TA'LIMDA CHOLG'U IJROCHILIGIGA RIZIQTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 136-144.



hissiyotiga kuchli taʼsir koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlib, oʻquvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-gʻoyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Farobiy «Musiqaning sogʻligʻi uchun foydalidir», degan edi. Yana bir ulugʻ Bobomiz Shayx Saʼdiy Sheroziy aytganidek: «Musiqaning odam ruxining yoʻldoshidir».

### MUHOKAMA

Musiqaning insonga tez taʼsir etuvchi emotsional hissiyotni aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqaning bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqaning inson ruhiyatini ajiralmas qismi boʻlib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqaga olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, goʻzallikni xis eta oladigan, oʻz kasbiga, ona vataniga mehr qoʻygan boʻlishi kerak. Shu bois oʻquvchilarda inson maʼnaviyatining tarkibiy qismi boʻlgan musiqaning madaniyatini tarbiyalash, musiqaning tarbiyasining bosh maqsadi boʻlib turadi. Musiqiy tarbiyani inson qalbiga kiritishning ajoyib usullaridan biri chogʻu ijrochiligi hisoblanadi. Chogʻu ijrochiligi qadimgi davrlardan to hozirgi davrgacha rivojlanib yuksalib kelayotgan sohalaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida barcha sohalar qatorida musiqaning sanʼatining rivojlantirish borasida ham oʻziga xos ishlar amalga oshirilmoqda. Musiqaning sanʼati inson va jamiyatning maʼnaviy, madaniy va maʼrifiy darajasini yuksaltiruvchi muhim ijtimoiy omillardan boʻlib, uning negizini musiqaning va qoʻshiq ijodkorligi, ijrochiligi nazariyasi hamda amaliyoti tashkil etadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng, turli jabhalarda muhim oʻzgarishlar roʻy berib bormoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan madaniyatimiz yanada takomillashdi. Oʻzbek xalqi ham boshqa xalqlar kabi oʻzining milliy musiqaning madaniyatiga ega. Bu madaniyat tobora rivojlanib bormoqda va boyib bormoqda. Oʻzbek musiqaning sanʼatini taraqqiyoti barcha xalqlar sanʼati uchun xarakterli, bir – birini toʻldirish jarayoni bilan bogʻliqdir. Musiqaning madaniyatlarining bir - birini boyitishi va oʻzaro taʼsiri oʻzbek musiqasining milliy, oʻziga xos xususiyatlarini inkor etmaydi. Oʻzbek musiqaning sanʼati keng sahnada namoyish etib kelinib bormoqda. Oʻzbek musiqachilari va qoʻshiqchilari, xalq ansambllari turli respublikalarda va chet mamlakatlarida ham oʻz mahoratalarini muvaffaqiyatli koʻrsatib bormoqda. Ularning barcha joylardagi sahna chiqishlari tinglovchilarda jonli qiziqish uygʻotib bormoqda. Oʻzbek xalqi musiqaning madaniyatining boyib bormoqda jarayoni koʻp qirrali va murakkabdir. Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyevning har bir chiqishlarida mazkur masalaga alohida toʻxtalishlari, ishlab chiqilgan davlat dasturlar bu kabi savollar qanchalik

muhim masala ekanligini namoyon etadi.

Albatta soha rivoji uchun o'z hissasini qo'sha oladigan yetuk kadrlar hozirgi davrda juda ko'plab topiladi. Albatta har bir soha rivoji uchun harakatda bo'lgan mutaxassislar, cholg'u ijrochilari, pedagoglar uchun ham o'ziga yarasha talab etiladigan xususiyatlar mavjud bo'lib, bular:

**Musiqiy idrok** – musiqiy obrazlarni idrok etish qobiliyati. Musiqani idroklash faqatgina rivojlangan musiqiylik xususiyati bo'lgandagina musiqiy bo'ladi. Musiqani idrok etish uchun musiqiy eshitish qobiliyati, ritm va metr hissi zarur.

**Musiqiylik** – har qanday kasbdagi musiqachi egallashi zarur bo'lgan eng muhim kasbiy sifat. Musiqiylik yillar davomida sayqal berilgan tabiat in'omidir.

**Artistizm** – bu soha uchun zarur bo'lgan yana bir komponent. Artistizm, musiqiylik, yaxshi eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan o'qituvchi o'quvchilarni musiqaga qiziqтира olmaydi, darslarda jonli ijodiy muhitni yarata olmaydi. Aynan artistizm G.G. Neygauz, A.G. Rubinshteyn kabi ijrochilarning shogirdlarga sehrli ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik faoliyatlaridagi yetakchi qirrasini edi. D.B. Kabalevskiy o'quvchini fanga qiziqтира olish – metodikaning tub masalasi, deb hisoblagan.

**Badiiy did.** Badiiy didni shakllantirish musiqa madaniyatining eng sara namunalari bilan faol tanishib boorish jarayonida yuzaga keladi. Badiiy didga ega bo'lmagan o'qituvchi o'quvchilarning musiqiy tarbiyasi bilan shug'ullana olmaydi.<sup>18</sup>

**Tinglay olish.** Sinfda o'quvchilar bilan shug'ullanayotgan o'qituvchi ko'p narsani tushuntiradi, ko'rsatadi, ammo ayni paytda o'z shogirdlarini tinglaydi. Chalayotgan ijrochiga tashqi quloq zarur, deb bejiz aytishmaydi. Musiqiy matnning o'qilishi eshitish qobiliyati orqali sayqallanadi va nazorat qilinadi, ammo o'qituvchining eshitish qobiliyati boshqa vazifani ham bajaradi: u o'zini tinglashni, tinglash nazorati ko'nikmalarini egallashni o'rgatadi. Musiqiy pedagogika va metodika qotib qolgan soha emas, ular muntazam yangilanib, takomillashib boradi.

**Musiqiy tafakkur** quyidagi formula bilan tavsiflanadi: impuls > harakat > yakun<sup>19</sup>, u shaklning yaxlit ko'rinishi va alohida qismlarini birdek tavsiflaydi.

<sup>18</sup> Azamatugli, R. I., & Panjie, K. (2022). Traditional and Modern Methods of Teaching Apartment Performance. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 3(4), 56-60.

<sup>19</sup> B.V. Asafev "Musiqiya psixologiyasi" T; 2008 146b.

**Nota bo'yicha chalish. Nota materialini o'zlashtirish.** Taniqli psixolog B.M. Teplov musiqa faoliyatining uchta asosiy turini ajratib ko'rsatadi: musiqani tinglash, ijro etish va bastalash. Bu tasnifni to'ldirgan holda, polshalik musiqa psixologi Y. Vershilovskiy har qanday profildagi musiqachining yana bir nisbatan mustaqil faoliyatini kiritadi, bu *nota varag'idan o'qish* yoki notaga qarab chalish. Olimning fikriga ko'ra, bu faoliyat aniq ifodalanuvchi psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, u jo'rnavoqlik va dirijyorlik kabi musiqa ixtisosliklari uchun asosiy, yetakchidir.

### XULOSA

Bolani shaxs sifatida rivojlantirishda nasli, atrofidagi muhit, tarbiya muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi bu omillarni kuzatib, o'rganib chiqib, o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, musiqaga, go'zallikka, mehnatga munosabatlariga qarab, musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni singdira borishi lozim. Inson musiqadan umrbod zavq topadi va madad oladi. Shu bois o'quvchilarda musiqa madaniyatini tarbiyalash, yuksak did bilan qurollantirish, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish musiqa o'qituvchisining vazifasidir. Musiqa inson ruhiyatiga emotsional ta'sir ko'rsatish bilan birga, musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy ohanglar bilan ta'sir etadi, bolalarni quvontiradi, o'ylantiradi, yaxshilikka, go'zallikka yetaklaydi va nafosat olamiga olib kiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbekiston milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ - 3391-sonli qarori // Xalq so'zi//. 2017. - 18 noyabr.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T., O'zbekiston. 2016. – B.14.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli Qarori.
5. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-637-son. 2020-yil 23- sentabr. <https://lex.uz/>
6. Amanullayev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar majmui (kursi) . - T., 1990.
7. Amanullayev D. Nota bilan kuylaymiz. -T, 1977.

## AN'ANAVIY CHOLG'U IJROCHILIGIDA DUTOR CHOLG'USINING O'RNI VA TARIXI

*Qodirov Boboxon Xudoynazarovich*

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Cholg'u ijrochiligi" mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada an'anaviy cholg'u ijrochiligi tarixi va dutor cholg'usini yaratilish tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ustoz-shogird an'analariga oid misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Musiqiy meros, bastakorlik yo'llari, milliy qadriyatlar, ko'hna tarix, «Mahbub ul-qulub», dutor, dutor bas, notalashtirish, ijro mahorati.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения об истории исполнительства на традиционных музыкальных инструментах и истории создания инструмента дутор. Приводятся примеры традиции учитель-ученик.

**Ключевые слова:** Музыкальное наследие, способы сочинения, национальные ценности, древняя история, «Махбуб уль-Кулуб», дутор, дуторный бас, нотация, исполнительское мастерство.

**Abstract:** This article presents information about the history of traditional musical instrument performance and the history of the creation of the dutor instrument. Examples of the master-disciple tradition are given.

**Key words:** Musical heritage, ways of composing, national values, ancient history, "Mahbub ul-Qulub", dutor, dutor bass, notation, performance skills.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehroqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan

bo'lib qolaveradi. Har bir xalq o'z hayoti, ma'naviyati va an'anasi asosida o'z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg'ular yaratgan. O'zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an'alarini aks ettiruvchi dutor xalqimizning sevimli cholg'usidir. Amaliyotda, dutorning behisob ijrochilik namunalari shakllanganligi har bir yoshdagilar, jamiyatning har bir tabaqasida o'ziga xos o'rin topgan, xalq orasida eng go'zal ijro namunalari yuzaga kelgan. Qariyb 2000 yillik ko'hna tarixga ega bo'lgan ushbu sohada Borbad, Abu Nasr Forobiy, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog'iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan siymolar ijod qildi. Ular musiqa nazariyasi va bastakorlik sohasida juda katta boy meros qoldirdi. O'rta asr musiqashunos olimlari musiqa nazariyasi va bastakorlik masalalari bo'yicha ko'proq Abu Nasr Farobiyning «Musiqaga oid katta kitob», «Musiqaga haqida so'z», Abu Ali Ibn Sinoning «Kitab ash-shifa» asarlarida musiqa ilmi haqidagi ta'rifni asos qilib oladilar. O'zbek xalqining donishmand shoiri va olimi Alisher Navoiy o'zining «Xazoyin ul-maoniy», «Holati Pahlavon Mahmud», «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarida o'zidan oldin o'tgan buyuk musiqiy allomalarimizning musiqa ilmi, bastakorlik an'alarini davom ettirib, boyitdi. Musiqa san'ati insoniyatning ma'naviy boyligi, asriy qadriyatlarini namoyon etuvchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi.

Xususan, milliy musiqiy cholg'ularda ham har bir xalqning uzoq yillar mobaynida shakllanib kelgan rangbarang an'analari o'z aksini topadi. Shunday ekan cholg'ularni insoniyat ma'naviyatining bir bo'lagi sifatida o'rganib, tadqiq va targ'ib etish eng dolzarb masalalardan biri desak xato bo'lmaydi. Tanbur, dutor, chang, nay, gijjak, rubob kabi xilma-xil milliy cholg'ularimiz o'ziga xos tuzilish va tarixga ega bo'lib, ayniqsa, bu cholg'ular orasida dutor cholg'usi nozik va mayin nola va qochirimlarga ega ekanligi hamda xonaki sharoitlarda ijro etishga moyilligi bilan ajralib turadi. Dutor ijrochiligida zabardast ustozlar ko'p o'tgan. Hammalari ham musiqa madaniyatida benazir iz qoldirgan. Ular o'z ijrolari bilan el qalbidan joy olgan va kelajak avlodga ijro xazinalaridan meros qoldirishgan. Faxriddin Sodiqov, Turg'un Alimatov, Mahmud Yunusov, Zohidjon Obidov, Komiljon Jabborov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Nurmuhammad Boltaev, Orif Qosimov, G'ulomjon Qo'chqorov, Abdurahim Hamidov shular jumlasidandir. Ulkan iste'dod egalari bo'lgan bu ustoz bastakorlar o'z ijodiy faoliyatlari bilan Borbad, Forobiy, Ibn Sino, Hoja Abdulqodir Marog'iy asos solgan o'zbek an'anaviy musiqa merosining nodir namunalari targ'ib qilishdi va davom ettirishdi. Sir emaski, milliy musiqa merosi masalasiga yaqin-yaqinlargacha asosan g'arbiy



musiqashunoslikda qabul qilingan talablar bilan yondashildi. Shuningdek kompozitorlik ijodi uchun birdan bir xos bo'lgan sabablar umuman zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartli mezonlariga aylandi. Zotan, o'zbek milliy bastakorlik ijodiyoti to'grisida shu payitgacha ijobiy so'zlar aytilmasdi, uning tarixi, ijodkorlik qonuniyatlari, rivojlanish xususiyatlari deyarli o'rganilgani yo'q.

Dutor O'rta Osiyoda keng ommalashgan cholg'ularidan biri. U ijrochilik amaliyotida keng qo'llanib kelingan. Ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynullobiddin al-Husayniyning "Qonuni ilm va amali musiqiy" nomli risolasida ta'riflangan. Amaliyotda dutorning bir qator turlari mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin, risolada ta'riflangan dutorning barcha xususiyatlari (dastasi, dastaga bog'langan pardalar, torlar va sozlanishlar) hozirgi amaldagi cholg'uga ko'p jihatdan mosligini e'tirof etish lozim. O'zbek xalq cholg'ulari ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g'ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doyra kabi har tomonlama mukammal sozlar mavjud. Har bir cholg'u o'zining shakllanish va takomillashish tarixiga ega. Takomillashish jarayonlari cholg'ularning shakli, ovozi, ovoz diapazoni kabi jihatlariga asoslangan. Dutor, manbalarda yozilishiga ko'ra shakliy jihatdan o'zgarmagan. Dutor cholg'ular orasida o'zining tabiati, nozikligi, sirli sadosi bilan ajralib turgan. Cholg'u sadosining unchalik keskin bo'lmaganligi, mayin va (kamer) xonaki ovozga egaligi bunga asosiy sabab bo'lgan. Bu jihatlar ayni paytda ham saqlanib qolgan. Azal-azaldan dutor ko'proq ayollar ijro amaliyotida kengroq ommalashganining asosiy sabablaridan biri ham ana shunda. O'tmish davomida dutor ijrochiligining turli yo'nalishlari yuzaga kelgan. Xalq ijodiyoti amaliyotida, yakkanavoz va jo'rnavoz soz, hattoki an'anaviy uslubda o'zining maxsus maqom yo'llarini yaratishiga ham sabab bo'lgan. Bunga yorqin misol Xorazm dutor maqomlaridir.

Demak, dutor ijrochiligi o'zining serqirraligi bilan ahamiyatli. XX asrga kelib dutor ijrochiligi professional darajada rivojini topdi. Yakka soz ijrochiligi, ayniqsa, ustozona uslubda o'z o'rniga ega bo'ldi. Bu albatta, dutorning o'tmish ijrochilik amaliyotida erishgan ijro imkoniyatlari, xalq orasida dutor ijro an'alarini rasm qilgan mohir ijrochilar ijodi bilan baholanadi. Natijada dutor ijrochiligida voha va shaxsiy ijro uslublari shakllandi va ommalashdi. Bunday ijro uslublarning paydo bo'lishi sozning inson tabiati qirralarini yanada kengroq ochib berishga imkon yaratdi. Dutor ijrochiligining keng ommalashuvi ijrochining samarali mehnati natijasidir. Shinavanda-tinglovchilar bir-biridan serjilo, rang-barang asarlar va sirli ijro uslublarga oshno bo'lib bordilar. Uslublar vaqt o'tib o'z-o'zidan ijro

maktablariga aylanadi. Xorazm dutor ijrochiligi maktabi yoki Qo‘qon ijro maktabi ana shunday an‘analar asosida yuzaga kelganligi begumon. Darhaqiqat, maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg‘u yo‘llarining bir qator tomonlari mavjud bo‘lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo‘lgan. Birinchidan ijro repertuari, ya‘ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalar yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari va albatta ijrochilikdagi o‘ziga xos xususiyatlardir. Ushbu prinsiplarsiz ijrochilikni maktab darajasida tasavvur etish qiyin. Lekin, masalani ikkinchi tomoni, maktab darajasiga erishish uchun vaqt, ijod, ijrochilik amaliyoti asosiy ahamiyat kasb etadi.

Dutor azal-azaldan O‘rta Osiyoning turli vohalarida o‘z shevasi va an‘anasi asosida iste‘molda bo‘lib kelgan. Xalq ommaviy ijro yo‘llari, daydi yoki yovvoyi ijro yo‘llari hamda an‘anaviy mumtoz ijro yo‘llari doimo xalq dutor ijrochilik amaliyotini bezab kelgan. Dutor aslida, xalqona uslubga moyilligi bilan mumtozlik darajasigacha rivojlangan. Dutor xalq cholg‘u ijrochilik amaliyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va turli cholg‘ular bilan jo‘rnavozlikda, davr madaniyati rivojida munosib o‘rin tutgan hamda kerakli cholg‘u sifatida qadrlangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O.Matyoqubov. Maqomot. T., 2004.
2. O.Ibrohimov. Maqomlar. T., 2004.
3. M.Ziyayeva. Dutor. T., 2008.
4. Sh.Matyoqubov. Ijrochilik san‘ati tarixi. T., 2016.
5. I.Toshpo‘ltova. An‘anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor). T., 2018.

**PROFESSIONAL SOZANDALARNI TAYYORLASHDA  
USTOZ – SHOGIRD AN'ANALARINI TIZIMLI SHAKLLANTIRISH.****Saydumarova Nigina**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
“Cholg'u ijrochiligi” mutaxassisligi 1-kurs  
magistranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada professional sozandalarni tayyorlashda ustoz-shogird an'alarini musiqiy ta'limning barcha bosqichlarida tizimli ravishda o'rganish hamda ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich qo'llash haqida so'z yuritiladi.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается системное изучение традиции учитель-ученик на всех этапах музыкального образования и поэтапное применение ее в подготовке профессиональных музыкантов.

**Abstract**

This article discusses the systematic study of the teacher-student tradition at all stages of musical education and its gradual application in the training of professional musicians.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, musiqa, iste'dod, professionallik, ustoz-shogird, sozanda, an'ana va qadriyat.

**Kirish**

Yurtimizda ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Yosh avlodni barkamol va yetuk qilib tarbiyalash hamda ta'lim berish bosh maqsadimiz hisoblanadi. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ham, buyuk ajdodlarimiz o'gitlaridan ham foydalanilmoqda. Ta'lim sohasida qo'llanilayotgan “Ustoz-shogird” an'analari hozirgi ulg'ayib kelayotgan yoshlarning yanada bilimli, odobli, teran fikrli, mehrlil bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Har bir yosh kadr ishga joylashar ekan, shu joyda halol mehnat qilib, vatanimiz gullab-yashnashiga o'z hissasini qo'shadigan, el ardog'idagi inson bo'lishga harakat qiladi. Buning uchun albatta, ustoz maslahati va ko'rsatmalari zarur. Ish jarayonida ustoz shogirdiga mehnat faoliyati davomida uchraydigan qiyinchiliklarni qanday yengib

o'tishni, muvaffaqiyatdan qanday zavq olishni tushuntirib boradi. Aziz ustozlar, doim biz shogirdlar baxtiga sog' - omon bo'ling!

Musiqqa o'qituvchisida qobiliyatning ilk va boshlang'ich tarkibiy qismi iste'doddir. Iste'dodni esa u ustozni yordami bilan rivojlantirishi hamda ayni shu ma'nodagi qobiliyatni yuzaga chiqarishi mumkin, lekin oldindan belgilab qo'ya olmaydi. Iste'dod tayyor holda rivojlanishiga qadar va undan ajralgan holda paydo bo'lmaydi, ya'ni tarbiyalash jarayonida shakllanib boradi. Qobiliyat ham iste'dod ham ustoz – shogird an'analari orqali davom etadigan jarayon bo'lib, aynan pedagogika sohasida muvaffaqiyatli ish olib borishning dastlabki shartlaridandir.

Musiqqa tabiatdagi go'zallikni idrok etish asosida estetik hislarni tarbiyalashda alohida ahamiyatga egadir. Musiqaviy didni tarbiyalash faqat asarlargagina emas, balki voqelikni turli hodisalariga ham ongli va faol estetik munosabatda bo'lishning asosi hisoblanadi.

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassis o'qituvchilarga tarbiyaviy ta'sir qiluvchi ustoz-shogird an'analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur'atda ilmiy-ijodiy rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta'lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo'lg'usi mutaxassislarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularga o'z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e'tibor qaratish, ustoz-shogird an'alaridan o'rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab kamolga yetkazish masalalari o'z ifodasini topdi. Bugungi kunda yosh mutaxassislarni ilmiy va ijodiy salohiyatini har tomonlama shakllanishiga e'tibor qaratish, ularni kasbiy faoliyatini oshirish zamon talabiga aylandi. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an'alarini yanada rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishidir.

Bugungi kunda ustoz-shogird an'analari barcha sohada, ayniqsa san'at va madaniyat sohasida keng qo'llanilmoqda.

Hayotda yozilmagan, ammo unga amal qilinmasa, hunuk oqibatlarga olib keladigan qonunlar bor. Shulardan biri ustoz va shogirdlik munosabatlaridir. Xalq orasida ustoz va shogirdlik odobi, qadriyati, muloqot shartlari ana shunday yozilmagan qonunlar shaklida million yillardan buyon yashab, kamolga yetib,

rivojlanib kelmoqda. Biron bir kasb egasi yo'qki, u ustoz ko'rib kamolga yetmagan bo'lsin. Ustoz va shogirdlik rishtalari juda nozik bo'lib, sal qaltis harakat qilinsa, uzilishi, keyin ulanganda ham tugun qolishi mumkin. Ana shunday hol yuz bermasligi uchun, avvalo, shogird ustoziga cheksiz mehr qo'yishi, ishonishi, uning har bir so'zi, xatti-harakatini tushunishi, unga rioya qilishi shart.

Keyingi ikki yilda yurtimizda o'qituvchi mehnatini qadrlash, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish borasidagi qulay shart-sharoitlarning yaratilishi ustoz-muallimlarning ko'nglini ko'tardi. Davlatimiz rahbarining bir qator farmon va qarorlarida pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, tizimda eng zamonaviy, ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni tatbiq etish muhim vazifa sifatida qo'yildi. Shundan kelib chiqib, bugun qayta tayyorlash va malaka oshirish masalalariga zamon talablariga muvofiq ijodiy va kompleks yondashish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bunday maqsadga pedagogning bilimi va mahoratini oshirish orqali erishish mumkin, albatta. Ushbu jarayon faqatgina ta'limni boshqarish organlarining emas, avvalo pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari faoliyatining asosiy yo'nalishidir. Bundan buyon o'qituvchi ta'lim berishda asosiy e'tiborni darsning sifat va samaradorligiga qaratishi, o'quvchida fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirib, rivojlantirishda bor mahoratini ishga solishi kerak bo'ladi. Shunga qarab ish haqining oshirilgan stavkasiga ega bo'lishi mumkin. Agar pedagog o'z ustida tinmasdan mehnat qilmas ekan, jamiyat jar yoqasiga kelib qoladi deb bemalol aytsak bo'laveradi. Bunday achinarli holat qachon va qanday vujudga keladi? Aybni jamiyatdan, boshqaruv tizimidan, bir-birimizdan izlash holati ham yo'q emas. Lekin nima bo'lganda ham bunga birinchi galda pedagogning o'zi sababchi emasmi? Bunday holat yuzaga kelishiga o'z kasbini jondan sevib, uni hayotining mazmuni, deb biladigan fidoyi o'qituvchilarning kamayib ketgani, ko'plab muallimlar o'z ustida ishlamay qo'ygani, o'qituvchilik shunchaki ermakka aylantirib qo'yilgani, ta'limning boshqaruv organlari va maktab rahbarlari tomonidan nazoratning bo'shashtirib yuborilgani sabab bo'ldi, desak yanglishmaymiz.

Ta'lim tizimi holati mamlakat kelajagini belgilashini hisobga olmay, bu tizimda moliyaviy qisqartirishlar qilib, katta xatoga yo'l qo'ydik. Ammo Prezident Sh.Mirziyoyev belgilab bergan strategik yo'nalishlar bu kamchilikni bosqichma-bosqich tuzatishga imkon yaratadi. Bosqichma-bosqich deganim bejiz emas. Ta'limdagi nuqtai nazar tez kunda o'zgaradigan holat emas. Bu masalada "uni



qildik", "buni qildik" degan ma'lumotnomalar berishga yo'l qo'ymaylik. Muallimga intiyoz berish barobarida uning mas'uliyatini ham oshirish choralarini ko'raylik.

Ta'limdagi kamchiliklarni yashirish, xaspo'shlash nimaga olib kelishini ko'rdik. Shunday ekan, muammolarni o'rtaga tashlab, uning yechimiga javob izlaylik. Eng katta kamchilik\_ bu kasbiy kompetentlikning yetishmasligi. Ayrim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va tajribasi, o'zini-o'zi anglashi, o'z kuchi va bilimiga ishonishi, o'z mutaxassisligini puxta bilishi va shu kabi kasbiy kamolotni belgilab beruvchi xususiyatlarni namoyon qila olmayotgani juda achinarli holatdir.

Ikkinchidan, ko'plab o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashga o'rganmaganligi, ilg'or tajribalarni, tizimdagi yangiliklarni o'rganib, ish faoliyatida qo'llamasligi ularning zamondan ortda qolishlariga sabab bo'lmoqda. Muallimlarning o'z ustida mustaqil ishlashini muvofiqlashtirish tizimi ham yo'q.

Uchinchidan, o'qituvchining o'z ishiga ijodiy yondashmasligi. Ko'pgina o'qituvchilar dars mashg'ulotlarida yangi, innovatsion metodlarni qo'llamasligi (aniqrog'i, qo'llay olmasligi), zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanmasligi, aksariyat muallimlar esa pedagogik texnologiyalarni besamar qo'llayotganlari.

To'rtinchidan, ko'pchilik o'qituvchilar, hatto maktab rahbarlari ham darslarni kompleks tahlil qilishni bilmaydi. Seminar yoki treninglarda ba'zi o'qituvchilarga darsni tahlil qiling, desangiz "mashg'ulot menga yoqdi" yoki "menga yoqmadi" deyishdan nariga o'tolmaydi. Dars metodik jihatdan qanday tashkil etildi, darsning ilmiyligi qanday, yutuq va kamchiliklari nimalardan iborat, dars psixologik talablarga javob beradimi yoki yo'qmi, mashg'ulotda qo'yilgan maqsadga erishildimi - afsuski, bular haqida ko'p o'qituvchilar hatto tushunchaga ham ega emas. Bunday o'qituvchilar mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish kabi pedagogik usullarni bilmaydi.

Beshinchidan, ba'zi o'qituvchilarning dars ishlanmasi (konspekt) yozish, mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzishni bilmasligi ham ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aksariyat o'qituvchilarning konspektida darsning tashkiliy qismi, o'tilgan mavzuni so'rash, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, o'qituvchilar bilimni baholash, uyga vazifa berish kabi tarkibiy qismlar to'liq yoritilmaydi.

Oltinchidan, ko'plab o'qituvchilarimiz dunyoda bo'layotgan global o'zgarishlar, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub islohotlar, siyosiy

jarayonlarning mazmun-mohiyatini yaxshi bilmasligi, tashqi siyosatdan bexabarligi, bir soʻz bilan aytganda, gʻoyaviy va mafkuraviy saviyaning yetishmasligi ham ularning ijtimoiy mavqeiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Yettinchidan, koʻplab oʻqituvchilarning kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni hanuzgacha yetarli darajada oʻzlashtirmaganligi ularning oʻz ustida mustaqil ishlashlariga yana bir toʻsiq boʻlib “xizmat qilayapti”. Bugungi kunda har bir muallimning qoʻlida qimmatbaho telefon bor, lekin ular ijtimoiy tarmoqlar, taʼlimga oid saytlar va kanallardan foydalanishni bilmaydi. Eng achinarlisi, ular Axborot-taʼlim portali ([eduportal.uz](http://eduportal.uz)), Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi ([uzedu.uz](http://uzedu.uz)), Oʻzbekiston Respublikasi jamoat taʼlim axborot tarmogʻi ([ziyonet.uz](http://ziyonet.uz)), Multimedia umumtaʼlim dasturlarini rivojlantirish markazi ([multimedia.uz](http://multimedia.uz)), kabi taʼlimga oid saytlar, "Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari", "Ingliz tili oʻqituvchilari", "Maʼrifat", "Ziyokor", "Oʻquv kurslari" kabi telegram kanallari faoliyat yuritayotganligi haqida tasavvurga ham ega emas.

Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan hamda Oliy taʼlim vazirligi tomonidan ham barcha fanlar boʻyicha zarur metodik qoʻllanma va multimedia ilovalari yaratilib, maktablar va oiliy taʼlim muassasalarida ham faoliyat koʻrsatayotgan oʻqituvchilarga yetkazib berilmoqda. Afsuski, oʻqituvchilar ushbu multimedia ilovalaridan foydalanmayapti. Disk va metodik qoʻllanmalar oʻqituvchining stoli tortmasida yoki direktorning shkafida chang bosib yotibdi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga murojaatnomasida taʼkidlaganidek: **“Bugun odamlarning ongi, tafakkuri oʻzgarishi kerak, bugungidek yashashga va ishlashga ertaga haqqimiz yoʻq. Shiddatli zamonda bugungi bilim va tajribamiz ertagayoq eskiradi. Bugun muallim ongi va shuurida oʻzgarishlar qilmasa, yangilanishlardan ortda qolsa, jamoa orasida keraksiz insonga aylanib qolishi hech gap emas”**. Zamondan ortda qolgan ustozdan kim ham oʻrganishni xohlaydi?

Taʼlim sohasida "Dars - muqaddas", degan tamoyil bor. Darsga tayyorgarlik koʻrmasdan kirish - jinoyatga qoʻl urish bilan barobar. Pedagog mashgʻulotga har jihatdan tayyorgarlik koʻrishi, har bir darsni masʼuliyatni chuqur anglagan holda oʻtkazishi kerak.

Xulosa sifatida shuni taʼkidlash lozimki, har qanday jamiyatning rivojlanishi hamda har tomonlama ravnaq topishida ustoz va murabbiy deb atalmish kasb egalari fidokorona mehnati muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda musiqiy ta'limning barcha bosqichlarida cholg'u ijrochilarini tayyorlashda ustoz-shogird an'analari uzluksiz davom etib kelmoqda. Demak, musiqiy ta'lim jarayonlarida tahsil olayotgan o'quvchilarga qadimdan shakllangan ustoz-shogird an'alarini chuqur singdirib, kelajakda davom ettirishlarini o'rgatishimiz lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-112., 02.02.2022. Lex.uz
2. Xalq so'zi gazetasi 2017 y. 4 avgust
3. Sharipova G. "Musiqqa va uning o'qitish metodikasi" Toshkent-2006;
4. Hasanova X. "Qo'shiqlar sehri" Toshkent-2012;
5. Karimova D., Yakubova Sh. "Bolalar musiqqa asarlari ustida ishlash" Toshkent-2016;

**TALABALARDA MUSIQIY JAMOALAR BILAN ISHLASH  
KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA DIRIJYORLIK FANINING  
O'RNI****Salomova Saodat Soatmurotovna**O'zDSMI Professional ta'lim:  
Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi)  
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasiIlmiy rahbar: O'zDSMI,  
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrası  
dotsent v.b. Xurshid Beknazarov

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada musiqiy jamoalar bilan ishlash kunikmasini shakllantirishda dirijyorlik fanining o'rni, unga qo'yiladigan talablar xususida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** talaba, dirijyor, san'at, musiqa, pedagog, cholg'u, ko'nikma, mahorat, fazilat*

***Annatotsiya** V dannoy statye govoritsya o roli dirijerskoy nauki v formirovanii opita raboti s muzikalnimi kollektivami i trebovaniyax k ney.*

***Klyucheviye slova:** student, dirijer, iskusstvo, muzika, pedagog, instrument, masterstvo, masterstvo, dobrodetel*

***Annotatsiya.** This article talks about the role of the science of conducting in the formation of the experience of working with musical groups, and the requirements for it.*

***Key words:** student, conductor, art, music, pedagogue, instrument, skill, skill, virtue*

Bugungi kunda respublikamizda madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, davlat darajasida qaratilayotgan e'tibor, ayniqsa yoshlarni madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy musiqamiz va san'atimizga oshno etib tarbiyalash borasida olib boriladigan harakatlar quvonarli. Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda dirijyorlik san'ati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Dirijyorlik san'ati musiqa ijrochiligida alohida o'rin tutadi. Uning cholg'usi orkestr yoki xor jamoasi va uning mohir qo'llaridir.

Talabalar musiqiy jamoalar bilan ishlash kunikmasini dastlab dirijyorlik fanida shakllantirishadi. Dars mashg'uloti vaqti talaba jo'navoz ijrosida guyoki orkestr jamoasini boshqargandik tasavvur etib orkestr jamoasi bilan muloqot qiladi. Asarda uchragan dinamik belgilar, musiqiy jumlar, dirijyorlik shtrixlarini to'g'ri ko'rsatish, musiqiy jamoani boshqarishni o'rganish uchun xato va kamchiliklar tushuntirilib qayta-qayta ishlanadi. Musiqiy jamoalar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda dirijyorlik faninig muhimligi shundaki, yakka dars mashg'uloti vaqtida siz talaba bilan yakka tarzda, asarni qayta-qayta talaba tushunguncha ishlash, nazariy va amaliy bilimlarini boyitish, talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish imkoniyati yuqori. Agar musiqiy jamoalar bilan ishlash kunikmasiga ega bo'lmagan talaba jamoa bilan ishlasa musiqiy jamoa a'zolari ya'ni sozandalar uni dirijyor, jamoa rahbari sifatida xurmat qilmaydi. Uning uchun ko'p o'qishi, izlanishi, o'z ustida tinmay mehnat qilishi zarur. Shu bilin birga u intizomli, mas'uliyatli, reja asosida ishlaydigan, sozandalar ijro imkoniyatini yaxshi bilishi kerak. ishlayotgan asar shakli va dramaturgiyasini xis qilishi va orkestr jamoasiga ham singdirishi muhim. Taniqli dirijyor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ergash Toshmatov "Dirijyorlik" darsligida Bruno Valterning quyidagi so'zlarini keltiradi;

"Dirijyorning o'zi musiqani yaratmaydi, buni u o'zgalar yordamida bajaradi va ularning qo'l harakatlari, so'zlari, o'zining shaxsiy ta'siri bilan boshqarishni bilishi kerak bo'ladi...Obro'-e'tiborga ega bo'lmagan, irodasiz, intilish va tashabbuskorlikdan yiroq bo'lgan inson – garchi musiqiy iste'dod, bilim va qobiliyat sohibi bo'lsada, dirijyor sifatida katta nufuzga sazovor bo'lolmaydi..." bundan xulosa qilib aytish mumkinki har bir yaxshi sozanda ham mohir dirijyor sifatida o'zini namoyot eta olmaydi.

Taniqli ingliz dirijyori genri Vud orkestr jamoasini rahbari uchun zarur bo'lgan quyidagi fazilatlarni keltirib o'tadi:

1. Dirijyor musiqa haqida to'liq va har tomonlama bilimga ega bo'lishi kerak.
2. U orkestr bilan bog'liq barcha jihatlarni bilishi va musiqiy xotiraga ham ega bo'lishi lozim.
3. Dirijyor barcha jihatlari bilan orkestr jamoasiga o'rnak bo'lishi va tartib, intizomga alohida e'tibor qaratishi talab etiladi.

Buning uchun dirijyor bo'lishni maqsad qilgan har bir talabadan yuqorida sanab o'tilgan fazilatlarni shakllantirish, ko'p o'qish, o'rganish, izlanish va mehnat qilish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z ma'ruzasida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan yuksak maqsad va marralarimiz barcha sohalar qatori madaniyat va san'at jabhasida ham oldimizga dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Avvalo, milliy madaniyatimiz va san'atimizda xalqchilik tamoyillarini yanada oshirish, uni tom ma'noda el-yurtimizning qalbi va yuragini ifoda etadigan, eng



yuksak xalqaro mezon va talablarga javob beradigan sohaga aylantirish – eng muhim vazifadir.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida musiqani chuqur o‘rganib, shunday degan edi: “Musiqqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o‘z-o‘zidan qanoat tuyg‘usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi”. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Talabalarimiz ham bu san’at sohasini chuqur o‘rganib ustozlardan o‘rgangan bilimlarini amaliyotda joriy etib madaniyat va san’at sohasi rivojiga o‘z xissalarini qo‘shadi degan umitdamiz.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. E.Toshmatov “Dirijyorlik”
2. K.Azimov “O‘zbekiston dirijyorlari”
3. Q.Qobilqoriyev “Cholg‘u jamoalari bilan ishlash uslubiyoti”





## “O‘zbek milliy cholg‘ularini o‘rganish va targ‘ib etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

“Uzscience International Journal Of Multidisciplinary Research”.

Ilmiy jurnal. Uzbekistan: [www.uz-science.uz](http://www.uz-science.uz) 2023. –68b.

Mazkur Konferensiya to‘plamida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6- noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmonida ko‘zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta‘minlash maqsadida OOO “UNITED PROFESSIONAL MASTERS” MChJ tomonidan ta‘sis etilgan “Uzscience International Journal Of Multidisciplinary Research ([www.uz-science.uz](http://www.uz-science.uz))” ilmiy jurnalining 1-bo‘lim 1-sonli Konferensiyasi o‘rin egallagan.

**Mas‘ul muharrir:**

Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi, magistr D.Xamidov

**Ta‘sischi:**

A.Muratkulov

**Direktor:**

V.Farmonov